

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ALOQA,
AXBOROTLASHTIRISH VA TELEKOMMUNIKATSIYA
TEKNOLOGIYALARI DAVLAT QO'MITASI
TOSHKENT AXBOROT TEKNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

O'zbek va rus tillari kafedrası

O' QISH KITOBI

**(Bakalavriatda rus tilida tahsil oladigan barcha yo'nalishdagi
talabalar uchun)**

TOSHKENT-2013

TATU Ilmiy-uslubiy kengash muhokamasida tasdiqlangan (26 aprel 2013 yil 6-sonli bayonnoma)

Mas'ul muharrir:S.X.Abdullayeva.

Tuzuvchilar: K.Agayubova N.D. Yulanova

Taqrizchilar: f.f.n, dots. A. Rafiyev

f .f.n,dots.M.X.Axmedova

Maskur qo'llanma rus tilida so'zlashuvchi guruhlar uchun tuzilgan qo'llanma Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tavsiya qilgan namunaviy dastur asosida tuzilgan. Qo'llanma o'quv yili davomida rejaga binoan olib boriladigan mavzularni o'z ichiga olgan. Qo'llanma turli manbalardan foydalanilganligini, matnning mazmundor , o'ziga xos qaytarilmasligi ko'zga tashlanadi. Shuningdek, iqtisod, telekommunikatsiya, axborot texnologiyalari, aloqa sohasi bilan bevosita bog'liq matnlar ham o'rin olgan.

Til ma'naviyat ko'zgusi

Til – milliy davlatchiligiga ega bo'lgan har bir xalq suverinitetining muhim belgisi, millat ma'naviyatining ajralmas tarkibiy qismidir. Mamlakatimiz Konstitutsiyasining 4-moddasida qayd etilganidek, O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir. Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan mamlakatimiz hali mustaqillikka erishmasidanoq istiqlol sari muhim qadam qo'yildi: 1989 yil 21 oktabr kuni O'zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilindi. Ushbu hujjat ona tilimizning qadrini mustahkamlash, faxr-iftixorimiz, g'ururimiz timsoli bo'lgan o'zbek tilining mavqeini yuksaltirishda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Farg'ona viloyatida ham bu borada keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda. – O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi uning mavqeini oshirib, qo'llanish doirasi va rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi, – deydi viloyat hokimining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha yordamchisi Zokir Rahimov. – Viloyatimizda ham davlat tilining ahamiyatini targ'ib qilish, ish va hujjatlarni davlat tilida yuritishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Shu kunlarda tashkilot va muassasalar, o'quv yurtlari, mahallalarda til bayramiga bag'ishlangan tadbirlar bo'lib o'tmoqda. Farg'ona davlat universiteti, Qo'qon davlat pedagogika institutlarida o'zbek tilining dolzarb masalalariga bag'ishlangan an'anaviy konferensiyalar tashkil etilmoqda. Umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida “Tilga e'tibor – elga e'tibor”, “Ona tili – davlat tili”, “Odob boshi – til” kabi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar muntazam o'tkazilayotir. Toponimik obyektlarga nom berishda tilning talab va qoidalariga rioya qilish, to'g'ri va xatosiz yozish doimiy e'tiborda bo'lib kelmoqda. So'nggi yillarda viloyat hududidagi 1400 ko'cha va mahallaning nomi yangilandi. Toponimik obyektlarga nom berish masalasini muvofiqshatiruvchi Respublika hamda viloyat komissiyalari qarorlariga muvofiq joy nomlarining o'zgartirilishi munosabati bilan nom ko'rsatkichlarini almashtirish, muassasa, tashkilotlar, korxonalar muhr va shtamplariga, ish qog'ozlariga tegishli o'zgartirishlar kiritish va boshqa tashkiliy hamda amaliy tadbirlar izchillik bilan olib borilmoqda. Bu

jarayonda ularning davlat tilida yuritilishi ta'minlanayotir. Ko'cha va mahalla nomlari ko'rsatkichlarini lotin yozuviga assolangan o'zbek alifbosida to'g'ri va xatosiz yozilishi yuzasidan monitoring va nazorat ishlari yo'lga qo'yilgan.Til – millat ko'zgusi, ma'naviyat sarchashmasidir. Shu bois ona tilimizni hurmat qilish, uning boy imkoniyatlarini o'rganish barchamizning asosiy burchimiz bo'lishi lozim.

Topshiriq :

1-Q, H undosh tovushlar ishtirok etgan suzlarni toping

2-Barcha so'zlarning yozilishi va o'qilishiga e'tibor bering

TIL DO'STLIK KALITI

Til kishilarning eng muhim aloqa vositasi Til odamlarning bir-birlari bilan muomalada bo'lishi uchun yordam beradigan eng muhim vositadir.Odamlar til vositasida o'z fikrlarini his-tuyg'ularini ifodalaydilar.Insoniyat jamiyatning shakllanishida tilning roli beqiyosdir.Til paydo bo'lgandan keyin (bu , olimlarning taxminicha ibtidoiy jamoa tuzumi davrida yuz bergan) jamiyat tez rivojlana boshlagan.Tilsiz jamiyat, jamiyatsiz til bo'lishi mumkin emas, shuning uchun til ijtimoiy hodisa hisoblanadi, ya'ni til yakka odamga emas , balki butun jamiyatga daxldor bo'lib, shu jamiyat a'zolari yordamida shakllantirilib, rivojlanib boradi.

Topshiriq :

1-Matnni o'qing va so'zlab bering

Tilning paydo bo'lishi.

Insonning o'zi, uning ongi mehnat jarayonida paydo bo'lgani kabi, til ham insonlarning mehnat qilishi jarayonida paydo bo'lgan.Insoniyat taraqqiyotining ma'lum bir davrida aniqrog'i, ibtidoiy jamoa tuzumi davrida odamlar mehnat qilishlari jarayonida bir-birlariga o'z fikrlarini

his-tuyg'ularini bayon qilish istagi tug'ilgan va bu dastlabki oddiy tilning paydo bo'lishiga turtki bo'lgan.

Til va jamiyat bir-biriga ta'sir qilib turadigan, birining rivojiga boshqasi hissa qo'shadigan hodialar bo'lganligi uchun jamiyatda yuz bergan o'zgarishlar tezlik bilan tilda ham aks etishi tabiiydir. Bu o'zgarishlar hammadan ko'proq tilning lug'at boyligida, ya'ni so'zlarida o'z ifodasini topadi. Tildagi nutq tovushlari, tilning grammatik qurilishi, ya'ni gap bo'laklarining joylashuvi so'z turkumlari tizimi uzoq vaqtgacha o'zgarماسligi mumkin. Ammo tildagi so'zlar tez-tez o'zgarib turadi. Buni biz mustaqillikka chiqqan davr mobaynida o'zbek tilidagi ayrim so'zlarning (oblast, rayon, xirurg, ekspress va h.k.) chiqib ketishi ayrim so'zlarning esa (marketing, menejment, kompyuter, diler va h.k.) tilimizga kirib kelishi misolida ham yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Topshiriq :

1-Matnni o'qing va savollar tuzing

2-Undosh tovushlar talaffuziga e'tibor bering

Dunyo tillari

1999-yilda yer yuzi aholisi 6 mlrdga yetdi. Mana shu aholi 2976 xil tilda gaplashadi. Ayrim darslik va qo'llanmalarda tillarning miqdori 3000 dan ortiq deb ko'rsatiladi. Shundan 200 tilning har birida 1 mln. dan ortiq, 70 tilning har birida 5 mln. dan ziyod, faqat 13 tilning har birida 50 mln. dan ortiq kishi so'zlaydi. Qolganlarining har birida esa 1 mln. dan oz kishi gaplashadi.

Kavkaz tog'larida joylashgan Dog'istonda 1 mln. dan ortiq aholi bo'lib, ular 40 ga yaqin tilda so'zlashadi.

Dunyodagi tillar kelib chiqishi, lug'aviy va grammatik jihatdan yaqinligiga qarab bir necha til oilalariga bo'linadi. Yer yuzida 20 ga yaqin til oilasi bor. Til oilalari o'z navbatida til turkumlariga bo'linadi

Topshiriq :

I-I, U harflarining tagiga chizing va talaffuziga e'tibor bering

Tirik va o'lik tillar

Hozirgi davrda ma'lum bir xalq vakillari uchun muloqot vositasi bo'lib xizmat qilayotgan tillar tirik tillar hisoblanadi: ukrain,ozarbayjon,qirg'iz tili va boshqalar.Hozirgi davrda hech bir xalq uchun muomala vositasi bo'lib xizmat qilmayotgan, lekin qoldiqlari bizgacha yetib kelgan tillar o'lik tillar deb yuritiladi: lotin,qadimgi hind yoki sanskrit tili,qadimgi slavyan tili,qadimgi xorazmiy tili,qadimgi arab tili,qadimgi fors tili,so'g'd tili hozirgi paytda o'lik tillar hisoblanadi.

Lotin tili qadimgi Rim imperiyasining rasmiy tili sifatida mavjud bo'lgan.Mazkur imperiya yemirilgandan keyin bu til ham asta-sekin o'lik tilga aylana borib, hozirgi davrda bu tilning qoldiqlarini ilmiy atamalarda uchratishimiz mumkin.Lotin tili o'rta va oliy tibbiyot o'quv yurtlarida o'qitiladi.

Qadimgi xorazmiy tili va yozuvi esa eroniy tillarning sharqiy turkumiga kirgan bo'lib, qadimgi xorazm vohasining aholisi shu tilda gaplashgan.Qadimgi xorazmiy tili XI asrlargacha muomalada bo'lgan va keyinchalik iste'moldan chiqqan hamda o'lik tilga aylangan.

Topshiriq :

1-Matnni o'qing. Ushbu matn asosida savollar tuzing

2-Til haqida maqollar ayting va mazmunini tushuntiring

Til va nutq

Til va nutq tushunchalari yaqin-yaqingacha farqlanmasdan kelinardi.Bu ikki so'zni ma'nodosh (sinonim) so'zlar sifatida ishlataverar edik.Keyingi paytlardagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, til va nutq tushunchalarini farqlash zarur ekan.Til deganda ma'lum xalq tomonidan ishlatiladigan uzoq tarixga ega bo'lgan hodisani tushunishimiz kerak.Nutq esa shu tilning ma'lum paytda va ma'lum o'rinda namoyon bo'lishidir.Ayrim olimlar til va nutq tushunchalarini farqlashda shaxmat o'yinini misol qilib keltirishadi.Shaxmat donalari taxtasi,shaxmat o'yini qoidalari yig'indisi tilga qiyos qilinadi.Har bir shaxmatchining o'yin uslubi o'ziga xos xususiyatlarini esa nutqqa o'xshatishadi.Demak,ma'lum

soʻzlar vositasida bitta fikrni turli koʻrinishlarda ifoda qilish mumkin. Bu esa shu nutqning yaratuvchisiga bogʻliqdir. Bir kishining nutqi monolog, ikki kishining nutqi dialog, ikkitadan ortiq kishining nutqi esa polilog deb yuritiladi. Nutqning yana ogʻzaki va yozma koʻrinishlari mavjud.

Topshiriq :

1-Matnni ifodali oʻqi ng

OʻZBEK TILSHUNOSLIGINING RIVOJLANISH TARIXI

Oʻzbek (qadimgi turkiy) tilini oʻrganish Mahmud Koshgʻariydan boshlandi. Bu alloma eng birinchi turkiy tilshunosi, adabiyotshunosi, elshunosi sifatida nom chiqargan olimdir. U oʻzining “Devonu lugʻotit – turk ” asarida turkiy tilda mavjud boʻlgan soʻzlarni maʼlum turkumlarga (ot, feʼl, yordamchi soʻzlarga) ajratgan. Alisher Navoiy ham tilimizni ilmiy jihatdan oʻrgangan.

Oʻzbek tili fan sifatida maktablarda XX asrning boshlarida oʻqitila boshlandi. Ana shu davrdan boshlab tilimizni tizimli (sistemali) tarzda oʻrganish boshlangan.

Oʻzbek tilshunosligi fanining poydevoriga dastlabki gʻishtlarni qoʻyishda Muhammadamin Muhammadkarimov (Faxriddinov) (1894-1941), Munavvarqori Abdurashidxonov (1873-1931), E.D. Polivanov (1891-1938), Qayum Ramazonov (1897-1942), A.K. Borovkov (1904-1962), F. Kamolov (1907-1966), X. Komilova (1912-1961), Ayyub Gʻulomov (1914-1982) va boshqa olimlarning xizmatlari katta boʻldi. Hozirgi davrda tilimizni tadqiq qilishda faol ishtirok etayotgan M. Asqarova, Sh. Shoa bdurahmonov, A. Hojiyev, A. Rustamov, N. Mahmudov, A. Nurmonov va boshqa oʻnlab yirik olimlarni hurmat bilan tilga olishimiz mumkin.

Oʻzbek tilshunosligining nisbatan yangi sohasi sanaladigan stilistika - uslubshunoslik til birliklarining aloqa vositasi sifatida muomala jarayonida turli soha va vaziyatda qoʻllanishi, nutqni tashkil qilish qonuniyatlari, til tizimidagi barcha vositalarning nutq jarayonidagi imkoniyatlari va maʼno nozikliklarini aniqlash bilan shugʻullanadi. «Stilistika – tilda mavjud

bo'lgan barcha vositalar – leksik, grammatik, fonetik vositalardan nutqda qanday foydalanish zarurligini, ma'lum bir tipdagi forma, so'z va konstruksiyalardan qaysi birini qo'llash muvofiq ekanini, yaxshi va eng muvofiq vositasini tavsiya etadi, norma qilib belgilaydi, nutqning turli stilistik qatlamlarida qo'llanadigan vositalarni belgilab beradi, Shunga ko'ra, stilistika so'z san'ati, ifoda vositalar haqidagi alohida bir fandır»

Mavzu nuqtai nazaridan bu o'rinda bizni vazifaviy uslubshunoslik qiziqtiradi. Kishilar o'z ijtimoiy faoliyatlarida tildagi barcha vositalardan – fonetik, grammatik, leksik, frazeologik birliklardan foydalanganlarida, avvalo ularni o'z ehtiyojlaridan kelib chiqib, nutq mavzusiga, vaziyatga qarab tanlaydilar va qo'llaydilar.

Tilimizdagi vositalarning bir nechalab ko'rinishlarga ega bo'lishi, sinonimik rang-baranglik shunday yo'l tutishga imkon beradi. Mana shu tanlash nutq jarayonida til birliklarining o'ziga xos uslubiy chegara lanishini taqozo qiladi. Til birliklarini ijtimoiy muhitda tanlab ishlatish zarurati va ularni tilshunoslikda ilmiy-amaliy tahlil qilish uslubshunoslikda yangi sohani – vazifaviy uslubshunoslikni vujudga keltirdi.

O'zbek tili uslublarini vazifaviy jihatdan tasnif qilish ikki omilga – til va tildan tashqarida bo'lgan omillarga tayanadi. Bu uslublarning N.A.Baskakov, A.Sulaymonov, A.Shomaqsudov, T.Abdurahmonov, B.O'rinboyev, S.Muhamedovlar tomonidan tavsiya etilgan variantlari mavjud bo'lib, ularda asosan beshta uslub – so'zlashuv, ommabop, ilmiy, rasmiy va badiiy uslublar e'tirof etiladi.

Rasmiy uslub hozirgi o'zbek tilining davlat-ma'muriy, huquqiy muassasalarida, rasmiy diplomatik munosabatlarida namoyon bo'ladigan ko'rinishidir. Qonun matnlari, farmonlar, farmoyishlar, buyruqlar, xullas barcha rasmiy ish qog'ozlari ana shu uslubda shakllanadi. Bu uslubning og'zaki va yozma ko'rinishlari, binobarin, ushbu ko'rinishlar-ning o'z me'yorlari mavjud.

Ushbu uslubda shakllangan matnda noaniqlikka, izohtalab o'rinlarga yo'l qo'yilmasligi lozim. Fikr va mazmun sodda, aniq va tushunarli tilda bayon qilinishi kerak: O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi hamda

uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat beradigan idoralar tomonidagina amalga oshiri ladi. (O`zR Konstitusiyasi, 7 - modda).

Ushbu uslub uchun jargonlar, oddiy so`zlashuvga xos so`zlar, emosional-ekspressiv bo`yoqqa ega bo`lgan so`zlarning ishlatilishi me`yor sanalmaydi va shu jihati bilan boshqa uslublardan keskin farq qiladi.

Rasmiy uslubning grammatik me`yori ham alohida xususiyatlarga ega. Masalan, ot so`z turkumiga o`id so`zlar ko`p ishlatiladi.

Ilmiy uslub ilmiy asarlar uslubidir. Til birliklarining fan sohasida, ilmiy bayon jarayonida ishlatilishi mazkur uslubning shakllanishiga asos bo`ladi. Ilmiy tafakkur fikrlashning o`ziga xos usuli ekanligi, obyektiv borliqni idrok etishda faqatgina dalil va faktlarga tayanish, fikriy izchilik kabi ekstralingvistik omillar ham nutqning ushbu turining shakllanishida, binobarin, nutqiy me`yorning o`ziga xos turining yuzaga kelishida muhim omil sanaladi.

Ilmiy uslubning janr xususiyatlari ham keng. Monografiya, risola, darslik, o`quv qo`llanmasi, o`quv-metodik qo`llanma, da`stur, ma`ruza matnlari, taqriz va referat singlar uning ana shu janr ko`rinishlari hisoblanadi. Garchi ularning har birining bayon usuli va uslubi ma`lum darajada bir-birlaridan farq qilsa-da, til birliklaridan foydalanish me`yoriga ko`ra umumiylikni tashkil etadi.

Ilmiy uslub fonetik jihatdan boshqa uslublardan farqlanib turuvchi yorqin belgilarga ega emas. Leksikasida esa farq qiluvchi jihat sohaviy atamalarning ko`pligi hisoblanadi. Bu uslubda ham, xuddi rasmiy uslubda bo`lgani kabi, so`zlarni ko`chma ma`nolarda qo`llash, tasviriy vositalardan unumli foydalanish xos xususiyat sanalmaydi.

Ommabop uslub o`zbek tilshunosligida filologiya fanlar nomzodi T.Qurbonov tomonidan monografik yo`nalishda o`rganilgan

Ommabop uslub imkoniyatlarining kengligini lingvistik va ekstralingvistik (paralingvistik) – tildan tashqaridagi omillarning mustahkam aloqadorligida kuzatamiz. Publisistik janrda yozilgan asarlarning mohiyatan hozirjavobligi, ularning axborot hamda targ`ibot-tashviqot xarakterda bo`lishi va ommani dunyo yoki mamlakatimiz miqyosida sodir bo`layotgan voqeya-hodisalardan zudlik bilan xabardor qilish natijasida yuzaga keladigan novatorlik unda tabiiy ravishda yangi

ijtimoiy-siyosiy terminologiyaning qo'llanilishi va tilimizda me'yorlashishiga sabab bo'ladi. Boshqacha aytganda, ommabop uslub tilning yangi so'z va iboralar hisobiga boyib borishiga ko'maklashadi.

Ommabop uslub ma'lum ma'noda oraliq uslub sanaladi. Bu uslubda shakllangan matnlar obrazlilik, ta'sirchanligi, tasviriy vositalarning mahsuldor qo'llanilishi bilan badiiy uslubga yaqinlashsa, dialektizmlar, istorizmlar, argo va jargonlar qo'llanilmasligi bilan undan uzoqlashadi. Ifodaning aniqqligi va publisistik janrlarga xoslangan hamda ijtimoiy-siyosiy terminologiyaning qo'llanilishi bilan ilmiy uslubga o'xshaydi. Ayni paytda, ifodadagi qisqalik, lo'ndalik, ixchamlik, yorqinlik kabi xislatlar ham uni ilmiy uslub bilan yonma-yon qo'yadi.

Badiiy uslub o'zbek tili vazifaviy uslublari orasida o'ziga xos mavqyega ega bo'lib, ayni paytda o'zining alohida me'yorlariga ham ega. Til materialini qamrab olish imkoniyatining kengligi, umumxalq tilida mavjud bo'lgan barcha lingvistik birliklarning, shu bilan birga, boshqa vazifaviy uslublarga xos bo'lgan elementlarning ham ishlatilaverishi va ularning muhim bir vazifaga – badiiy-estetik vazifani bajarishga xizmat qilishi badiiy uslubning asosiy xususiyati hisoblanadi. Tabiiyki, bunday imkoniyatlar boshqa vazifaviy uslublarda chegaralangan.

Til vositalarini qo'llashdagi ana shu keng qamrovlilik bo'lishi bilan birga, bu uslub doirasida ularni qo'llashning ma'lum me'yorlari ham amal qiladiki, fonetik, grammatik, leksik va frazeologik xususiyatlar tarzida ko'zga tashlanadigan ana shu me'yorlar uni boshqa vazifaviy uslublardan chegaralash imkonini beradi.

O'zbek tili so'z turkumlarining grammatik shakllari turli adabiy, tarixiy hamda dialektal variantlarga ega bo'lib, ular hozirgi adabiy til me'yori nuqtai nazaridan bir tomondan qo'llanish chastotasiga ko'ra faol yoki aksincha bo'lsa, ikkinchi tomondan ularda vazifaviy-uslubiy chegaralanish ham sezilib turadi.

Topshiriq :

1-Matnni o'qing, savollar tuzing va so'zlab bering

2-Matndagi til orqa tovushlari o'qilishiga e'tibor bering

O'zbekiston - yagona Vatan

O'zbek xalqining paydo bo'lish tarixi qanchalik uzoqqa borib tarqalsa, uning milliy urf-odatlari, marosimlari ham shunchalik teran tarixiy ildizga ega. Ular xalqning ma'naviy ehtiyojlari zahirida paydo bo'lib, shakllanib, sayqallanib o'z mazmunida shu xalqning orzu – o'ylari, istaklari, turmush tarsi, axloq normalarini mujassam etadi. Shuning uchun ham bir xalq, elat, millat, ularni ko'z qorachig'idek avaylab-asrab, taraqqiy ettirmog'I, kelgusi avlodlarga ma'naviy qadryat sifatida yetkazmog'i lozim.

Darhaqiqat, an'analar, urf-odatlar, marosimlar va bayramlar xalqning millatning ma'naviyti, qadryatlarining ajralmas qismi. Prezidentimizning sa'y – harakatlari tufayli jamiyatni ma'naviy yuksaltirish, milliy qadryatlarimizni tiklash, ularning umrboqiyiligini ta'minlash borasida juda katta g'amxo'rliklar qilinmoqda. Bu esa mamlakatimiz kelajagi buyuk bo'lgan yoshlarni milliy qadryatlarimizni tiklashda, ularniung mazmunan va mohiyatini yuksaklikka ko'tarishda muhi ahamiyatga egadir.

To'y oilaviy bayram bo'lsada, u barcha qarindosh – urug', mahalla ko'y, do'stu birodarlar bilan baham ko'riladi. Albatta, bu ijobiy hol. U klshilarda hamjihatlik, ahillik, mehr-oqibat, insonparvarlik kabi fazilatlarini tarbiyalshga xizmat qiladi.

To'ya xalqimizning milliy mentaliteti. o'zligi tom ma'noda aks etadi. Lekin to'ylar xalqimizning ma'naviy yuksalishda qanchalik ijobiy rol o'ynamasin, uni o'tkazish bilan bog'liq ba'zi ortiqcha rasm-rusmlar, odat tusiga kirib borayotgan sun'iy udumlar jamiytimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga sable ta'srini o'tkazadi. Jumladan, bola-chaqasini yaxshi yedirib, kiyintirmaslik evaziga tejalgan mablag', katta miqdorda qarz olish, oila budjetida mavjud mablag'ni to'liq sarf qilish hisobiga yoki ba'zi kimsalarning qing'ir yo'llar bilan topilgan boylik hisobiga dabdabali to'y o'tkazishga intilishlari bozor munosabatlari sharoitida boyvochchalarcha manmanlikdan o'ziga narsa emas. Bunday soxta obro' orttirish yo'lida o'zini unutib qo'yib, ortiqcha dabdababozlik, shuhratparastlik qilishi hech kimga shon-shihrat keltirmagan, keltirmaydi ham.

Topshiriq :

1-Matnni o'qing va matndagi notanish so'zlarga lug'at tuzing

2-Matnni yoritib beruvchi savollar tuzing

O'zbekim

Tarixingdir ming asrlar
Ichra pinhon o'zbekim,
Senga tengdosh Pomiru
Oqsoch Tiyonshon, o'zbekim.
So'ylasin Afrosiyobu
So'ylasin O'rxun xati,
Ko'hna tarix shodasida
Bitta marjon, o'zbekim.
Al Beruniy, Al Xorazmiy,
Al Farob avlodidan,
Asli nasli balki O'zluq,
Balki Tarxon, o'zbekim.
O'ldilar sho'rlik boshingdan
O'ynatib shamsirlarin
Necha qon, necha sulton,
Necha ming xon, o'zbekim.
Tog'laring tegrangda go'yo
Bo'g'ma ajdar bo'ldi-yu,
Ikki daryo - ikki chashming,
Chashmi giryon, o'zbekim.
Qaysari Rum nayzasidan
Bag'rida dog' uzra dog',
Chingizu Botu tig'iga
Ko'ksi qalqon, o'zbekim.
Yog'di to'rt yondin asrlar
Boshingga tiyri kamon,
Umri qurbon, mulki toroj,
Yurti vayron, o'zbekim.
Davr zulmiga va lekin
Bir umr bosh egmading,
Sen - Muqanna, sarbador - sen,
Erksevar qon, o'zbekim.
Sen na zardusht, sen na buddiy,

Senga na otash. sanam,
Odamiylik dini birla
Toza imon, o'zbekim.
Ma'rifatning shulasiga
Tolpinib zulmat aro.
Ko'zlaringdan oqdi tunlar
Kavkabiston, o'zbekim.
Tuzdiyu Mirzo Ulug'bek
Ko'ragoniy jadvalin.
Sirli osmon toqiga ilk -
Qo'ydi Narvon. o'zbekim.
Mir Alisher na'rasiga
Aks-sado berdi jahon,
She'riyat mulkida bo'ldi
Shohu sulton, o'zbekim.
Ilmu she'rda shohu sulton,
Lek taqdiriga qul,
O'z elida chekdi g'urbat,
Zoru nolon, o'zbekim.
Mirzo Bobur - sen, fig'oning
Soldi olam uzra o't.
Shoh Mashrab qoni senda
Urdu tug'yon, o'zbekim.
She'riyatning gulshanida
So'ldi mahzun Nodira.
Siyam tanni yuvdi ko'z yosh,
Ko'mdi armon, o'zbekim.

Yig'ladi furqatda Furqat
Ham muqimlikda Muqiyim,
Nolishingdan Hindu Afg'on
Qildi afg'on, o'zbekim.
Tarixing bitmakka, xalqim,
Mingta Firdavsiy kerak,
Chunki bir bor chekkan ohing
Mingta doston, o'zbekim.
Ortda qoldi qo'hna tarix,
Ortda qoldi dard, sitam,
Ketdi vahming, bitdi zahming.

Topdi darmon, o'zbekim.
Bo'ldi osmoning charog'on
Tole xurshidi bilan,
Bo'ldi asriy tiyra shoming
Shu'laafshon, o'zbekim.
Men Vatanni bog' deb aytsam,
Sensan unda bitta gul,
Men Vatanni ko'z deb aytsam,
Bitta mujgon o'zbekim.
Faxr etarman, ona xalqim,
Ko'kragimni tog' qilib,
Ko'kragida tog' ko'targan
Tanti dehqon, o'zbekim.

O'zbekim deb keng jahonga
Ne uchun madh etmayin!
O'zligim bilmoqqa davrim
Berdi imkon, o'zbekim.
Men buyuk yurt o'g'lidurman,
Men bashar farzandiman,
Lekin avval senga bo'lsam
Sodiq o'g'lon, o'zbekim.
Menga Pushkin bir jahonu
Menga Bayron bir jahon,
Lek Navoiydek bobom bor,
Ko'ksim osmon, o'zbekim.
Qayga bormay, boshda do'ppim,
Shuhratim, qadrim buyuk,
Olam uzra nomi ketgan
O'zbekiston, o'zbekim.
Bu qasidam senga, xalqim,
Oq sutu tuz hurmati,
Erkin o'g'lingman, qabul et,
O'zbekim, jon o'zbekim.

Tops hiriq :

1-She'rni ifodali o'qib yod oling

Universitetim bilan faxrlanaman

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti- avvalgi elektro texnika aloqa instituti tashkil etilgan iga 57 yil bo'ldi.

Universitet O'rta Osiyo Respublikalari va Qozog'ston telekommunikatsiyalari sohasining asosiy kadrlar tayyorlash tayanch oquv yurti hisoblanadi. Universitet bitiruvchilarini doimo yuqori bilimdonlik va yashi kasbiy tayyorgarlik ajratib turadi. Bunga universitet olimlari va o'qituvchilari butun bir sulosining mexnati orqasi erishilgan.

Universitetning 10ming lab biturchilari telekomukastisya tarmoqlari va pochta aloqasining ishonchli va tuxtovsiz ishlarini ta'minlaydilar. Dunyoning ko'plab mamlakatlarida, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari muammolari bilan shug'ullanuvchi ilmiy laboratoriyalar va firmalarda universitet mutahassislarini uchratish mumkin.

Universitet o'zining shonli yubileyini mamlakatning axborot texnologiyalari soxasidagi bosh oily o'quv yurti sifatida, ijodiy kuchga to'lgan xolda kutib olmoqda.

Nukus, Samarqand, Farg'ona, Qarshi va Urgansh shaxarlarida universitetning fililallari ochildi.

XXI asrga, axborot jamiyati asriga qadam quyar ekan universitet jamoasi uni O'zbekiston raxbariyati tomonidan o'z oldiga quyilgan vazifalarni aniq kurgan xolda kutib oladi.

Universitet bitiruvchilarini, uning professor-o'qituvchilari tarkibini ilmiy hodimlari, talabalar va xizmatchilarni shonli yubiley-universitet tashkil etilganining 50 yilligi bilan tabriklaymiz va sizlar bundan buyon xam o'z sharaflari an'analaringizni rivojlantirasiz xamda doimo ilg'orlar qatorida bulasiz degan ishonch bildiramiz.

So'z boshi

Toshkent elektronika aloqa institute 1955 yilda sobiq ittifoq aloqa vazirligiga qarashli 7 institutining sifatida tashqil etilib, tarmoq oily o'qud yurti hisoblangan. Institut O'rta Osiyo respublikalari va Qozig'iston ushun elektrotexnika va radioaloqa injenerlarini tayyorlar edi.

O'zbekiston Respublikasi mustakillikka erishishi bilan Toshkent elektrotexnika aloqa instituti O'zbekiston Respublikasi aloqa vazirligi tasarrufidagi tarmoq aliy yurtiga aylantirildi.

1997 yil O'zbekiston Respublikasi aloqa vazirligi O'zbekiston Respublikasi pochta va telekommunikaciyyalar agentligiga, 2002 yildan

O`zbekiston aloqa axborotlashtirish agentliga aylantirildi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2002 yil 30 maydagi Farmonida asosan Toshkent aloqa elektrotexnika institutiga universitet maqomi berildi va Toshkent aloqa texnologiyalari universiteti deb nomlandi. Universitetga axborot texnologiyalari bo`cha mutaxassisni tayyorlash vazifasi yuklatildi.

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan universitetning mamlaratimiz fani rivoji, milliy ta`lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida yukori malakali mutaxassislar tayyorlash, yoshlar tarbiyasidagi katta xissasini e`tiborga olib, 2004 yil 22 dekabrda "2005 yilda universitet 50 yilligini to`g`risida"gi 598-sonli karori Kabul qilindi. Unio`tkazish bo`yinchayayyorgarlik rejayasi asosan tashkiliy ko`mita tarkibi tasdiklandi.

Ko`lingisidagi kitob Sizni universitet tarixiy manbalari bo`ylab sayohat qilishigizga beradi. Unda Toshkent axborot texnologiyalari universitetini O`zbekiston Respublikasi oily o`quv yurtlari o`rtasida nufuzli o`rinni egallashida muhim hissa qushgan, bu yo`lda maqsadlari mushtarak bo`lgan fidoyi insonlar haqida hikoya qilinadi.

Topshiriq :

1-Matnni o`qing uning mazmunini so`zlab bering

2-O`z fakultetingiz haqida so`zlab bering

Inson va jamiyat. Konstitutsiya O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI

Konstitutsiya lotincha so`z bo`lib «o`rnataman», «belgilab qo`yaman» degan mazmunini ifoda etadi. O`zbek tilida «asosiy qonun», ya`ni davlatni boshqarish, uning ichki va tashqi hududlarini idora qilish kabi ma`nolarni anglatadi. Bu qomusiy hujjatlarimizning xalqchiligi shundaki, unda milliy urf-odatlarimiz, an`analarimiz, e`tiqodimiz, umuman milliy qadriyatlarimiz himoyasi va ravnaqi aniq belgilab qo`yilgandir. Shuning uchun ham biz mustaqillik bayrog`ini baland ko`tarib, istiqlolni mustahkamlash uchun butun kuch-g`ayratimizni safarbar etmoqdamiz. Mamlakatimizda davlatchilik tizimlari tez shakillantirildi. Ulardan biri mustaqil davlatimiz Konstitutsiyasidir. 1992 yil 8-dekabrda qabul qilingan O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, eng avvalo Vatanimiz ozodligining shahodati sifatida qadrlidir. Mustaqil O`zbekistonning tarixida birinchi Konstitutsiyaning qabul qilinishi

Respublikamizning yangidan tug'ilishidir, haqiqiy mustaqillikka qo'yilgan mustahkam poydevordir.

• O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mustaqillik bergan hurriyat timsolidir. Uning tarixiy ahamiyati va mohiyati shundan iboratki, unda respublikamiz fuqarolarining haq-huquqi, erkinligi, qadriyatleri, urf-odatleri, barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi o'z ifodasini topgan. Shuning uchun ham xalqimiz har yili 8dekabrda O'zbekiston Konstitutsiyasi bayramini nishonlaydi. Katta siyosiy, huquqiy va xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan O'zbekiston Konstitutsiyasi jahon maydonida yangi mustaqil davlat - O'zbekiston davlati faol yashayotgani va mehnat qilayotganini namoyish qilishi qalblarimizga quvonch bag'ishlamoqda. Bugungi kunda O'zbekiston o'z yo'lini Konstitutsiyaga asoslanib, respublika manfaatleri, shart-sharoiti va xususiyatlariga to'la mos keladigan iqtisodiy islohotlarni amalga oshirmoqda. Shuni aytish kerakki, O'zbekiston Konstitutsiyasi umrboqiy qomusiy hujjatdir.

• O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 1992 yil 8-dekabrda qabul qilingan. Konsitutsiyamiz - Bosh qomusimizga ulkan ijodiy va yaratuvchilik qudrati jo qilingan. Rivojlangan, taraqqiy etgan davlatlarning inson huquqlari sohasida erishgan yutuqlariga, ularning tarixiy tajribalariga tayanib yaratilgan. Shuning uchun ham Mustaqilligimiz qomusi bo'lgan Konsitutsiyamiz xalqimiz ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy- iqtisodiy hayotida katta ahamiyatga ega. U O'zbekistonda yashayotgan fuqarolarning dunyoqarashini, o'zaro munosabatlari, mehr-oqibat, o'zga millat va elatlarga nisbatan hurmat, ilmga inilish, or-normus kabi yuksak olijanob fazilatlarni o'zida mujassamlashtirgan.

Qomusimizda O'zbekiston fuqarosi bo'lgan barcha millat va elatlarning tili, urf-odatleri, milliy an'analarini hurmat qilish kafolatlangan. Bu esa ana shu millat va elatlar o'rtasidagi do'stlik rishtalari mustahkamligiga garovdir. Asosiy Qonunda adolat, iymon, olijanoblik, fidoyillik, insonga g'amxo'rlik, mardlik kabi ulug' xislar aks ettirilgan. O'zbekistonda yashovchi barcha fuqarolarning farovon hayot kechirishini ta'minlash, insonparvar huquqiy davlat barpo etish kabi olijanob g'oyalar o'z ifodasini topgan. Ma'lumki, davlatning ishonchi, obro'-e'tibori ko'rki uning Konstitutsiyasidir. Demak, biz ham Konstitutsiyamiz tufayli o'z obro'-e'tiborimizga ega bo'ldik.

Topshiriq :

- 1- **Matnni o'qing, savollar tuzing va so'zlab bering**
- 2- **Yangi so'zlarni yod oling**

3- Matndan sinonim va antonimlarni toping

Huquq va majburiyatlar

miyatimizning barcha jabhalarida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar zamirida inson huquq va erkinliklariga bo'lgan e'tibor, uning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, inson huquqlarini eng oliy qadriyat sifatida e'tirof etish kabi g'oyalar bosh maqsad sifatida mustahkamlangan. Konstitutsiyada fuqarolar ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, siyosiy, diniy hamda boshqa bir qator huquqlari batfsil yoritilgan. O'zbekiston Konstitutsiyasi – bu mamlakatni rivojlantirishda davlat, jamiyat, madaniy-ma'naviy ehtiyojlar va barqaror Konstitutsiyaviy rivojlanishiga bo'lgan jahon tajribalarining ijodiy birligidir. Shu boisdan ham O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida xalqaro huquq normalarining ustunligi tan olingan.

Mustaqillik Qomusimiz 6 bo'lim, 26 bob va 128 moddadan iborat. U o'z ichki tuzilishi bilan jahon konstitutsiyaviy amaliyotiga to'la mos keladi. Inson – jamiyat – davlat tushunchalari uyg'unligi uning asosiy mantiqiy yo'nalishini tashkil etadi. Qomusimizning muhim xususiyati shundan iboratki, u davlat hayotining ijtimoiy munosabatlarini ma'lum bir tarmog'ini emas, balki muayyan jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar tizimini va davlat tuzumining eng muhim va eng asosiy tomonlarini huquqiy jihatdan mustahkamlaydi.

Ma'lum bir davlat hududida yashab turgan inson uchun qaysi davlatga mansubligi muhim ahamiyatga ega. Har bir insonning huquqiy maqomi uning qaerda yashayotganligi, qaysi davlat fuqarosi ekanligi kabi holatlarga bog'liq holda shakllanadi. Shu bosi ham O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ikkinchi bo'limi "inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari" deb nomlanib, unda inson va fuqaro maqomi alohida ta'riflanadi.

Konstitutsiyada fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari quyidagicha ta'riflanadi; Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir. Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonunga

asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas. Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko'rib chiqilib, uning aybi isbotlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi. Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'raonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdaagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas.

Konstitutsiyamizda mustahkamlangan inson huquqi va erkinliklarining g'oyasi 1948 yilda qabul qilingan va mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yilida ratifikatsiya qilingan "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" talablariga to'la mos tushadi. Endi, deklaratsiyaning "huquq va burchlar" mohiyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qoidalari bilan taqqoslasak.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi insoniyatning uzoq davom etgan erkinlik va tenglik uchun kurashi jarayonida shakllangan umuminsoniy siyosiy-huquqiy qadriyatlarga bo'lgan e'tiqodi va sodiqligini namoyish etib, inson va fuqaro huquq hamda erkinliklarini tizimli ravishda mustahkamlaydi.

1-Matnni o'qing va savollar tuzing

2-Notanish so'zlarni yod oling

O'zbekiston Konstitutsiyasi

O'zbekiston Konstitutsiyasi xalqimizning erkinlik va ijtimoiy adolat, insonparvar, demokratik davlat, kuchli fuqaroviy jamiyat barpo etishdek azaliy orzusining maxsulidir. Konstitutsiyamizda jahon tajribasi va xalqimizning milliy qadriyatlari o'z ifodasini topgan.

Bosh qomusimizning jahon andozalariga mos kelishi, inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va boshqa muhim xalqaro huquqiy normalarni o'zida mujassam etganligi keng jamoatchilik va xorijiy mutaxassislar tomonidan e'tirof etilgan. Eng muhimi, asosiy Qonunimiz mustaqilligimizni konstitutsiyaviy jihatdan mustahkamlagan, oliy yuridik kuchga ega bo'lgan hujjat hisoblanadi.

Baxtimiz qomusi - O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mustaqillik ramzi, istiqolning buyuk ne'mati yorqin timsoli sifatida xalqning dilidan chuqur joy oldi, yurtning har bir fuqarosi e'zozlovchi mo'tabar ijtimoiy-huquqiy qadriyatga aylandi. Asosiy qonunimizning oliy nufuzi, benazir

qadr-qimmatini uning inson uchun yaratilganligida, inson haq-huquqlari va erkinliklarini ustivor ta'minlashga xizmat qilayotganligidadir. SHunday ekan xar bir inson o'z xuquq va burchlariga asoslanib, jamiyatda o'z o'rnini topib borishi diqqatga sazovordir. SHuning uchun ham bosh qonunimizning 16 yilligi butun mamlakatimizda keng nishonlandi.

Kuni kecha Andijon qishloq xo'jalik institutida Konstitutsiyamizning 16 yilligi munosabati bilan tantanali yig'ilish va "Siz konstitutsiyani bilasizmi?" mavzusida ko'rik tanlov bo'lib o'tdi.

Tadbirda Andijon qishloq xo'jalik institutining professor-o'qituvchilari, talabalari va institut qoshidagi 2-akademik litsey, Kuyganyor akademik litseyi talabalari ishtirok etdilar.

Tadbirni Andijon qishloq xo'jalik institutining rektori professor O.YAqubjonov olib bordi va kirish so'zi bilan ochdi.

Konstitutsiyamizning 16 yilligi xaqida "Gumanitar fanlar" kafedrasidotsenti, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi Dilshodxon Qurbonova ma'ruza qildi. "Ma'naviyat va ma'rifat" markazi boshlig'i X. Siddiqov institutda chop etilgan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kunning 16 yilligi va Qurbon xayiti munosabati bilan moddiy rag'batlantirish to'g'risida" buyruq matni bilan yig'ilganlarni tanishtirdi.

Institut faxriylar kengashining raisi, dotsent Mamasoli Jo'raev, Zulfiya nomidagi davlat mukofoti tanlovining viloyat bosqichi sovrindori, Agranomiya fakulteti 2-bosqich talabasi Maqsuda Xudoyberdiyevlar so'zga chiqishib Konstitutsiyamizning 16 yilligi, konstitutsiya qanday axamiyatga ega ekanligi, respublikamizda istiqomat qilayotgan har bir fuqaroning xuquq va burchlarini bilishi zarurligi, erkin va farovon xayot kechirishlarida, qaysi jamoa yoki tashkilotida ishlashidan qat'iy nazar ularning huquqlari va erkinliklari qonun bilan ximoya qilinganligi xaqida batafsil ma'lumotlar berib, ishtirokchilarni Konstitutsiyamizning 16 yilligi va Iyd-qurbon xayiti munosabati bilan samimiy muborakbod etdilar.

Ana shundan so'ng tadbirning asosiy qismlaridan biri hisoblangan "Siz Konstitutsiyani bilasizmi?" mavzusidagi ko'rik tanlovi o'tkazilib, unda 5 ta jamoa, Agranomiya fakul'tetining "Adolat qalqoni", Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash fakul'tetining "Adolat", Iqtisodiyot va boshqaruv fakul'tetining "Femida", institut qoshidagi 2-sonli akademik litseyining "Adolat-2" hamda Kuygan-yor akademik litseyining "Qalqon" jamolari o'rtasida quyidagi uchta shart bo'yicha qiziqarli bellashuv bo'lib o'tdi:

1. Konstitutsiyaga ta'rif (3 daqiqagacha)
2. Konstitutsiya boblari va moddalariga oid savollar (xar bir guruhga

ikkitadan savol. Xar ikki savol uchun 5 daqiqa vaqt)

3. Guruhlarning bir-biriga savollari (Bittadan savol,2 daqiqa vaqt) o'zaro bellashdilar.

Ko'rik tanlovi natijalariga ko'ra Agranomiya fakul'tetining "Adolat qalqoni" jamoasi birinchi. Iqtisodiyot va boshqaruv fakul'tetining "Femida" jamoasi ikkinchi. Kuygan-yor akademik litseyining "Qalqon" jamoasi uchinchi o'rinni egalladi.

Konstitutsiya asosidagi savol-javoblar, talabalarning musiqali chiqishlari yig'ilganlarga va davraga o'zgacha ko'rk qo'shib, professor-o'qituvchilar, talabalar va mehmonlarga manzur bo'ldi.

Tadbir yakunida institut rektori O. YAqubjonov qatnashgan jamoalarga, mexnat faxriylariga minnatdorchiligini bildirib, munosib o'rinlarni egallagan jamoalarga, mexnat fahriylariga, institutning faol o'qituvchi va talabalariga institut tomonidan tashkil qilingan esdalik sovg'alarini topshirdi.

Topshiriq:

1-Matnda uchragan notanish so'zlar lug'atini tuzing

2-Matnni o'qing va so'zlab bering

3-Matn asosida savollar tuzing

Oila-jamiyat tayanchi.

Oila - insoniyatning mo'jizaviy kashfiyoti. Oila noyob ijtimoiy hodisa sifatida ming yillar davomida o'z mavqegini saqlab kelmoqda. Sohibqiron Amir Temur o'z «Tuzuklari»da shunday yozadi: «O'g'illarim, nabiralaring va yaqinlarimni uylantirmoq tashvishida kelin izlamoqqa e'tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng ko'rdim. Kelin bo'lmish nasl-nasabi, odob-ahloqi, sog'lom va baquvvatliligi bilan birga qusurlardan ham xoli bo'lsagina, el-yurtga katta to'y-tomosha berib, kelin tushirdim». Demak, Temuriylar davrida ham oila qurish ishiga jiddiy e'tibor qaratilgan, avlodlar davomiyligini ta'minlash va uni toza saqlashga alohida ahamiyat berilgan.

Oila - jamiyat tayanchi, ma'naviy tarbiya maskani. Insonni ezgulik, diyonat, komillik sari eltuvchi yo'l ana shu ostonadan boshlanadi. Oilada har bir millatga xos bo'lgan xususiyatlar, fazilatlar jamuljam bo'ladi. Insonparvarlik, bir-birini tushunish, mehr-muruvvat oiladan boshlanadi.

Axloq-odob, hayo-ibo, iffat, mehribonlik, hurmat va izzat, o'z qadrini bilish, jonkuyarlik, mehnatni ulug'lash oilada shakllanadi. Bir-birini qo'llab-quvvatlash, bemorlar holidan xabar olish, mehr-shafqat, ilmi qadrlash oila bilan chambarchas bog'liq. Oiladagi xususiyatlar insonning qay tarzda kamolga yetishini belgilab beradi.

Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida barkamol avlodni voyaga yetkazish, bilimli va sog'lom avlodni tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Istiqolning dastlabki yillaridanoq bu vazifani amalga oshirish, avvalo, oila institutini har tomonlama rivojlantirish, oilalarda sog'lom muhitni shakllantirish, yoshlarni hayotga tayyorlash kabi dolzarb masalalarni hal etishdan boshlandi. Mamlakatimizda Prezidentimiz Islom Karimov rahnomoligida mustaqillikning dastlabki yillaridan oila institutini mustahkamlash, oilada sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirish, nikoh masalalariga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

Bu yo'nalishdagi ezgu maqsadlarni hayotga tatbiq etish, jismonan baquvvat va yuksak salohiyatli barkamol avlodni tarbiyalash, onalik va bolalikni muhofaza qilish ishiga Respublika "Oila" ilmiy-amaliy markazi ham munosib hissa qo'shib kelayotir. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 2 fevraldagi qaroriga asosan tashkil etilgan ushbu muassasa faoliyati oilaga taalluqli boy va sermazmun milliy an'analarimizni asrab-avaylash, umumbashariy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish, oila va nikohning muqaddasligini yosh avlod ongiga chuqur singdirish, oila a'zolarining huquqiy savodxonligini oshirishga oid masalalarni ilmiy o'rganish va fuqarolarga bu borada amaliy yordam berishni muvofiqlashtirishga qaratilgan.

Vatanimiz mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshlab oila, onalik va bolalikni muhofaza qilish, oilaning ma'naviy-ahloqiy asoslarini takomillashtirish, ko'p bolali, kam ta'minlangan oilalarni, nogironlarni qo'llab-quvvatlash, oilada komil insonni shakllantirish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Mamlakatimizda 1998 yil «Oila» yili, 1999 yil «Ayollar» yili, 2000 yil «Sog'lom avlod» yili, 2001 yil «Ona va bola» yili, 2006 yil «Homiylar va shifokorlar» yili, 2007 yil «Ijtimoiy himoya» yili deb e'lon qilinganligi bejiz emas. Zero, ona va bola

salomatligi, inson sog'ligi oila va jamiyat mustahkamligining asosini tashkil etadi.

Oilaning ijtimoiy maqomi Bosh qomusimizda belgilab berildi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar hamda xalqimiz hayotiga singib ketgan saxovat, mehr-oqibat kabi tushunchalar Konstitutsiyamizning oilaga bag'ishlangan alohida bobida o'z ifodasini topdi. Ayniqsa, davlatimiz rahbari tomonidan 1998 yil mamlakatimizda Oila yili deb e'lon qilinishi natijasida bu ijtimoiy institutning o'rnini va roli yanada mustahkamlandi, huquqiy-tashkiliy asoslari takomillashdi.

Yurtimizda izchillik bilan amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi inson manfaatlarini, har bir oilaning farovonligi va tinchlik-xotirjamligiga qaratilgan. Bu dargohda sog'lom muhit qaror topishi yosh avlodning o'sib-ulg'ayishi, kelajakda o'z o'rnini topishi uchun mustahkam zamin bo'ladi. Har bir insonning oiladagi halovati shu jamiyatning barqarorligi va farovonligi omilidir.

Yoshlarni hayotga tayyorlash va yosh oilalarga alohida g'amxo'rlik ko'rsatish borasida mamlakatimizda keng miqyosli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, davlatimizning "Yoshlar yili" Davlat dasturi asosida yosh oilalarga uy-joy sotib olish va qurish, ro'zg'orini butlashga ko'maklashish borasida alohida g'amxo'rliqi tufayli minglab yosh oilalarning ijtimoiy-maishiy turmush sharoitlari yaxshilandi. Ushbu dastur asosida ma'naviy boy va jismonan sog'lom farzandlarni tarbiyalash borasida samarali chora-tadbirlar hayotga tatbiq etilmoqda.

Oilalardagi totuvlikni yanada mustahkamlash, yosh avlodni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, oila sportini rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash borasida mahallalarda faoliyat ko'rsatayotgan diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchilarning o'rnini katta bo'layotir.

Farzand ota-onaning baxti, saodati, butun jamiyat va mamlakatning betimsol boyligidir. Shu bois mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha ezgu ishlar negizida sog'lom avlodni voyaga yetkazish masalasi o'z ifodasini topgan. Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan bu borada

amalga oshirilayotgan izchil islohotlar o'zining yuksak samalarini bermoqda.

Bolalarni ruhan va jismonan sog'lom bo'lib o'sishida oila muhitining ta'siri katta. Chunki oilaviy muhit qanday bo'lsa, bolalar xuddi shu muhit ta'sirida o'sib-ulg'ayadilar. Oila muhiti bolalarni hayotga moslaydi. Jamiyatda esa bolalarni ruhan va jismonan sog'lom qilib voyaga yetkazish, faqat ota-onaning shaxsiy ishigina bo'lib qolmasdan, balki, ijtimoiy burchi hamdir. Ayniqsa, o'smirlik davridagi bolalarga ota-onaning mehribonligi, doimiy nazorati va do'stona maslahati katta ahamiyatga ega.

Ammo afsuski, ko'pgina ota-onalar bolani «bebosh» qilib qo'ymaslik uchun bu ajoyib insoniy tuyg'udan cho'chiydilar. Ular bola o'zini sevishlarini yaxshi bilib olsa, u tantiq, shaxsiyatparast bo'lib qoladi, deb o'ylaydilar. Natijada bola ota-onaning erkalashi va e'tiboridan mahrum sharoitda ulg'ayadi.

Nosog'lom oila muhitida o'sgan bolalar surunkali davom etib kelayotgan janjallar, tushunmovchiliklar oqibatida ruhan ezilib, har xil kasalliklarga chalinishi mumkin. Bundan tash-qari, bekorchilik, ichkilikbozlik, o'g'rilik, giyohvandlik, jinoyatchilik, turli jinoiy va diniy-ekstremistik guruhlarining ta'siriga tushib qolish xavfi kuchayadi. Shu o'rinda bir narsani alohida uqtirish kerakki, bolalar tarbiyasida asosiy ta'sirchan kuch-qudrat bu - onadir. Prezidentimiz aytganlaridek, «Oilani ham, jamiyatni ham birlashtirib, unga fayzu barokat kiritadigan, xonadonlarimizni mehr-muhabbat, nafosat, ezgulik nuri bilan munavvar qiladigan zotlar ham aslida mo'tabar onalarimiz».

Shunday ekan, oila muhiti, qolaversa bolalarning kelajagi, ularning ruhiy dunyosi ijtimoiy tasavvurlarining ijobiy va boy bo'lishi ko'p jihatdan onalarga bog'liq.

O'smirlar o'ziga kattalarning nazoratini keraksiz hisoblab, undan qutilishga harakat qiladi. Gap shundaki, o'smirlik davri (12-15 yosh) rivojlanishdagi eng murakkab davr bo'lib, o'tish davri ham deyiladi. Bu davrda bola organizmida murakkab anatomik, fiziologik va ruhiy o'zgarishlar ro'y beradi. O'smirlik yoshidagi bola bo'yiga tez o'sadi. Suyaklar muskullarning tez o'sishi natijasida bola qattiq og'riq sezadi,

tomirlari tortishadi, isitmaydi. Natijada, ko'p bolalar asabiy va jahldor bo'lib qoladilar.

Shu boisdan ham o'smirlar bilan muomalada har bir ota-ona, kattalar, avvalo bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olib, iloji boricha ular bilan yumshoq va jiddiy munosabatda bo'lishlari, ayrim masalalarda ularning ham fikrlarini so'rashlari, gaplariga e'tibor bilan quloq solishlari kerak.

Har bir ota-ona o'z farzandini hayotning eng baxtli, lazzatli o'chog'i oila ekanligiga ishonch ruhida tarbiyalamoqlari lozim. Shundagina oilaning barqarorligi, mustahkamligi kuchayadi.

Mamlakatimizda jamiyatning asosiy bo'g'ini – oilalarda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ezgu an'ana va qadriyatlarni rivojlantirish, yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirishmoqda. Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Xotin-qizlar qo'mitasi, "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati, "Mehr nuri" jamg'armasi. "Ayollar kengashi" respublika jamoat birlashmasi tashabbusi bilan o'tkazilayotgan "Oila salomatligi" aksiyasi va telemarafoni ham ana shu olijanob maqsadga qaratilgan.

Topshiriq :

- 1-Matnni ifodali o'qib bering**
- 2-Notanish so'zlar lug'atini tuzing**
- 3-Vatan haqida maqollar ayting**

Milliy qadriyatlar e'zozi.

Ma'naviy qadriyatlar.

Ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglashning tiklanishi .

Ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglashning tiklanishi.

Biron –bir jamiyat imkoniyatlarini , odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi.

Xalqning madaniy qadriyatlari , ma'naviy merosi ming yillar davomida Sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib

xizmat qilgan . Uzoq vaqt davom etgan qattiq mafkuraviy taqyiqqa qaramay , O'zbekiston xalqi avloddan avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga hos an'analarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi .

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingran g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi.

Biz ma'naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o'zlikni anglashning o'sishidan, xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz .

Xalqimiz siyosiy mustaqillik va ozodlikni qo'lga kiritgach , o'z taqdirining chinakam egasi, o'z tarixining ijodkori , o'ziga hos milliy madaniyatining sohibiga aylandi .

Tarix xotirasi, xalqning, jonajon o'lkaning , davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash milliy o'zlikni anglashni , ta'bir joiz bo'lsa ,milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi .

Tarix millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda . Buyuk ajdodlarimizning ishlari jasoriyatlari tarixiy xotiramizni jonlantirib ,yangi fuqorolik ongini shakllantirmoqda . Axloqiy tarbiya va ibrat manbaiga aylanmoqda .

Markaziy Osiyo tarixida siyosiy aql-idrok bilan ma'naviy jasoratni, diniy dunyo qarash bilan qomusiy bilimdonlikni o'zida mujassam etgan buyuk arboblar ko'p bo'lgan . *Imom Al-Buxoriy , Imom At-Termiziy , Xo'ja Bahouddin Naqshbandi , Xo'ja Ahmad Yassaviy , Al-Xorazmiy , Beruniy , Ibn Sino , Amir Temur , Mirzo Ulug'bek , Zahiriddin Muxammad Bobur* va boshqa ko'plab buyuk ajdodlarimiz milliy madaniyatimizni rivojtirishga ulkan hissa qo'shdilar , xalqimizning milliy iftixori bo'lib qoldilar . Ularning nomlari , jahon sivilizatsiya taraqqiyotiga qo'shgan buyuk hissalarini hozirgi kunda butun dunyoga ma'lum .

Tarixiy tajriba , an'analarining meros bo'lib o'tishi - bularning barchasi yangidan- yangi avlodlarga tarbiyalaydigan qadriyatlarga

aylanib qolmog'i lozim. Bizning madaniyatimiz butun insoniyatni o'ziga rom etib kelayotgan markaz bo'lib qolganligi tasodif emas. Samarqand, Buxoro, Xiva faqat olimlar va san'at ihlosmandlari uchungina emas, balki tarix va tarixiy qadriyatlar bilan qiziquvchi barcha kishilar uchun ziyoratgohga aylangan.

Xalqimizning etnik, madaniy va diniy sabr- bardoshi ma'naviy uyg'onishning yana bir bitmas- tugalmas manbaidir. Ming yillar mobaynida Markaziy Osiyo g'oyat xilma-xil dinlar, madaniyatlar va turmush tarzlari tutashgan va tinch totuv yashagan markaz bo'lib kelgan. Etnik sabr – toqat, bag'ri kenglik hayot bo'ronlaridan omon qolish va rivojlanish uchun zarur tabiiy me'yorlarga aylandi. Hatto bu hududlarni bosib olganlar ham qimmatbaho an'analarini, shu hududda mavjud bo'lgan davlatchilik an'analarini avaylab qabul qilganlar.

Ayni shu zaminda ko'p asrlar mobaynida jahon madaniyatlari dunyo miqyosida bir-birini boyitgan. Bu yerda ko'chmanchi xalqlar o'troq xalqlar bilan, eronlik qabilalar turk qabilalari bilan, musulmonlar nasroniylar va yahudiyalar bilan ko'p asrlar birga yashab kelganlar. So'ngi ikki asr davomida ham o'zlarini "madaniyatli" va "ma'rifatli" hisoblab kelgan davlatlar ommaviy qirg'inlar va ta'qiblar bilan o'zlariga dog' tushirgan bir paytda, O'zbekiston zamini xalqlar va madaniyatlar tinch birlashgan joyigina bo'lib qolmay, balki quvg'in qilingan xalqlarga boshpana ham berdi.

Ijtimoiy hayotimizni isloh qilish va yangilash boshlanib ketganligi bois madaniyatning qudratli qatlamlari ochildi. Ular xalq ruhiyatini vatanparvarlik, milliy iftihor, butun dunyo uchun bag'rikenglik tomon keskin o'zgartirib yubordi. Bu esa xalq ruhi qudratining birinchi belgisidir. Bu ruh shu qadar yorqin va o'ziga hoski, jahon hamjamiyatining uzviy bir qismiga aylanishga harakat qilmoqda.

Jamiyatning diniy – ruhiy asoslarini, xalqimizning ming yillik ma'naviy – axloqiy yuksalish tajribasini o'zida jamlagan Islom madaniyatini tiklash o'z taqdirini o'zi belgilash, tarixiy xotiraga,

madaniy – tarixiy birlikga ega bo'lish yo'lidagi g'oyat muhim qadam bo'ldi. Eski masjidlar ta'mirlanmoqda va yangilari bunyod qilinmoqda. O'quv yurtlari tarmog'i kengaymoqda.

Ma'naviy qadriyatlarning yana bir qudratli manbai an'anaviy oila va qarindoshlik munosabatlari odobidan iboratdir. Kattalarni hurmat qilish, o'zro yordamlashish, kelajak avlod haqidagi g'amho'rlik qilish hamisha uning asosiy qoidalari bo'lib kelgan.

Topshiriq :

1-Notanish so'zlar lug'atini tuzing va yodda tuting

2-Matnni o'qing va so'zlab bering

3-Matndan sifatlarni toping va turini aniqlang

Navro'z bayrami

Navro'z – qutlug' so'z, xalqimizning katta bayrami. Bu bayram qadim-qadimdan beri nishonlanib kelinganidan, bolalik chog'larimizda bu bayramga katta tayyorgarlik ko'rardik. Qish o'tib, havo isiy boshlagani sababni qishloq ahli jonlanib qolardi. Hamma sandalni tark etib, hovli ichini tartibga solardi, tozalardi. Bolalar ham bu yumushlarni bajarishda kattalarga yordam berardi. Kechqurunlari butun qishloq uzra xushbo'y ko'k somsa hidi taralardi, bundan ham go'zal, bundan ham lazzatliroq fasl bo'lmasa kerak. Ayollar bug'doy urug'ini taxta ustiga yoyardilar. Tez kunda urug'dan oqish – sarg'ish bo'lib nozikkina nihollar nish urib chiqqanligini ko'rish nechog'li zavqli. Ko'm-ko'k maysalarning biridiriga chatishib ketgan ildizlari ajratilib, Navro'z kechasi qozonga solinardi. Dasturxonni patir non va turli xil shirinliklar bezatardi. Ko'klam elchisi, kirib kelayotgan bahor darakchisi deb yetti xil don: bug'doy, arpa, no'xat, jo'xori, guruch, mosh, loviyadan go'ja pishirardilar.

Qishlog'imizga Erondan kelib, shu yerda qolib ketgan oilalarda haftisan degan taom tayyorlanardi. Unga faqat "S" harfi bilan boshlanadigan narsalar solinardi. Masalan: sabzi, sarimsoqpiyoz, sedana, sep (olma), sanjiyda (jiyda), sinaid (isiriq) va boshqalar.

Non-ne'matlar tayyor bo'lgach, oila a'zolari dasturxon atrofiga

yig'ilardi. Hech kim dasturxonadan chetda qolmasligi kerak edi. Agar kimdir kelmasa, o'sha odam irimga ko'ra, baxtsizlikka uchrashi mumkinligi tufayli, qayerda bo'lsa ham yetib kelishi kerak edi.

Eh, esdan chiqmaydi o'sha baxtiyor, beg'ubor onlar, o'sha yorug', quvnoq bolalik damlari!

Sharqda navro'z kunlari sumalak, halim, ko'k somsa va chuchvara kabi maxsus taomlar tayyorlangan. Qadimda arpa yaxshilik belgisi hisoblangan, shuning uchun Sharq ayollari navro'zda farzandlariga yaxshi orzu-istaklar bildirib, arpa unidan sumalak tayyorlorganlar. Ayniqsa, egizak farzandlari bor bo'lgan xonadonlarda har yili ko'klamda sumalak pishirish odat tusiga kirgan. Sumalak juda shirin taom bo'lib, ko'pchilik bo'lib tayyorlanadi. Sumalak qaynayotgan qozon atrofida tong otguncha barcha qo'ni-qo'shnilar, qarindosh-uruqlar yig'ilib, o'yin-kulgi qiladilar. Befarzand ayollarga farzand, bemorlarga shifo so'rab, yaxshi niyatlar bildiradilar. Aytishlaricha, yilda bir marta sumalakka to'ygan odam sira kasal bo'lmas emish.

Hayit — bu musulmonlarning diniy bayrami. Arab tilida “hayit” so'zi “iyd” (bayram) deb ataladi. Bu bayram yilda ikki marta bo'ladi. Birinchisi — Ramazon otida 30 kun ro'za tutiladi. Ro'za tamom bo'gach, uch kun hayit bo'ladi.

Ikkinchisi — Ramanzondan keyin yetmish kun o'tgach bo'ladigan Qurbon hayitidir. Qurbon hayiti haj safari bilan, qurbonlik qilish bilan bog'liq bo'lgan bayram hisoblanadi. Har ikkala hayitdan bir kun oldin, ya'ni arafa kuni qo'ni — qo'shnilar bir — birlariga osh ulashadilar. O'zbekiston Respublikasi xalqi ham yer yuzidagi mo'min — musulmon birodarlari kabi har ikkala hayitni zo'r xursandchilik, ochiq yuz va pokizalik bilan bayram qiladilar. Bu kunlarda barcha musulmonlar bir — birlarini tabriklaydilar, yetim — yesirlar holidan xabar oladilar, keksalar, tabarruk zotlarni, bemorlarni borib ko'radilar. Xullas, xursandchilik bilan uch kun bayram qiladilar.

Topshiriq :

1-Nota nish so'zlar lug'atini tuzing

2-Matnini o'qib, savollar tuzing

3-Yana qanday o'zbek udumlari borligini ayting

GUL BAYRAMI

Biz qadimda ajdodlarimiz ham bizlarning yoshimizda turli-tuman bayramlar, marosimlar o'tkazganliklarini yaxshi bilamiz. Albatta bu bayramlar mavsum va marosimlar bilan bog'liq bo'lgan.

Ma'lumki, bahor uyg'onish fasli, tabiatning yangilanishi, gulchechaklarning dunyo yuzini qayta ko'rishi davri. Qadimda bolalar avvalo boychechak, so'ng binafsha, qoqigul, tolbargak ochilib, yaproqyozishini bayram qilishgan.

Bu mavsumiy bayramlarda qizaloqlar tolbarglar, qoqigullardan chambaraklar yasashib, bir-birlarining boshlariga kiygizishgan. Qo'llariga, englariga taqishgan. Ular bu bilan tabiat uyg'onishini olqishlagan holda ayni paytda, gilam, savat to'qish malakasini ham egallab borishgan. Qizchalar turli-tuman lapar, tosh, ip, halinchak o'yinlari bilan bayram kayfiyatini yanada xush qilishgan.

Bu mavsumiy bayramlarda qizaloqlar tolbarglar, qoqigullardan chambaraklar yasashib, bir-birlarining boshlariga kiygizishgan. Qo'llariga, englariga taqishgan. Ular bu bilan tabiat uyg'onishini olqishlagan holda ayni paytda, gilam, savat to'qish malakasini ham egallab borishgan. Qizchalar turli-tuman lapar, tosh, ip, halinchak o'yinlari bilan bayram kayfiyatini yanada xush qilishgan.

Shaqildoqlarini shaqillatib, hosil sayli, bayramini nishonlashda davom etganlar. Bahor tugab, yoz oshlanishi boshlanishi bilan turfa gullar butun borliqqa atir hidlari tarata boshlagan. Bu paytga kelib, bolalar gul bayramlari o'tkazishgan, bu udum qadimdan yashab kelib, hozirda ham ko'pgina viloyatlarimizda bolalar orasida keng tarqalgan. Ayniqsa, Namanganda gul bayramlari o'tkazish yaxshi odat tusini olgan. Kuz pishiqchilik – xirmon ko'tarish fasli bolalar bu davrda kattalar bilan hosil bayrami qilib, bog'-rog'lar, polizlarga chiqishgan. Shirin-shakar olmanor, nok-uzum, qovun-tarvuz, yong'oq yig'ib-terib olsh sayllari ko'p bo'lgan. Shuning uchun ham ota – bobolarimizdan: “Har bir ho'l meva pishig'idan to tugagunga qadarbolalar undan kamida uch marotaba to'yib tanovul qilishi ham farz. ham qarzdır”, degan o'ta hayotiy gap qolgan. Bu

fikrda hikmat juda ko'p.

Bolalarning fasl va marosim bilan bog'liq bo'lgan barcha bayram shodiyonalari ham albatta, tabiatga muhabbat tuyg'usi bilan yo'grilgan. Oldinlari ov, kaptar, bedana, kaklikka ishqibozlikdan tug'ilib, qaror topgan, hozirda qush o'yinlari sifatida bayram tusini olib borayotgan bu odat ham bolalarning o'yin-bayramlaridan biriga aylanib qoldi. Bu o'rinda tabiatning mo'jaz mavjudotlari–turli qushlar hayotini o'rganish, ularni xonakilashtirish, musiqiy ovozi eshitish singari bola zavqi, hissiy dunyosini boyituvchi omil sifatidagi ahamiyati beqiyosdir.

Topshiriq :

1-Matni o'qing va so'zlab hering

2-Notanish so'zlar lug'atini tuzing

QOVUN SAYLI

O'zbekiston agrar-industrial davlat bo'lgani uchun aboli dehqonchilik bilan shug'ullanadi. Aholi dehqonchilik bilan shug'ullangani uchun xalq orasida dehqonchilik haqida aqlan va jismonan xordiq chiqaradigan sayllar, bayramlar paydo bo'ladi. Bu bayramlar yillar o'tib anana va urf-odatga aylanadi. "Qovun sayli" ham azaldan nishonlanib kelinayotgan sayldir. Bu sayl yozning iyul oyida qovun pishgan vaqda nishonlanadi. Bu saylda dehqonlar o'zlari yetishtirgan qovun, tarvuz, poliz ekinlari va boshqa meva-chevalarni ko'rgazmaga olib chiqadilar. Bu kunlari katta yarmarka bo'lib, salyga olib kelingan mahsulotlarni bozor narxidan tushirib sotadilar. Hakamlar tomonidan g'olib aniqlanadi. G'olibga hokimiyat tomonidan qimmatbaho sovg'a va yorliqlar topshiriladi.

Topshiriq :

1-Matni rus tiliga tarjima qiling

2-Yangi so'zlarni yod oling

BESHIK TO'Y

Beshik to'yda yangi bo'shangan, beshikda bolasini emizib turgan

onaga non tishlatib, bu non bolalarga olib qochdirilgan. Beshik narisiga, ayvongashirinliklar, tuli meva qoqilari sochilib, bolalarga talashib-tortishib tanovul qildirilgan. Bu bilan yangi tug'ilgan bolaning umri shirin, mo'l bo'lib, uzoq yillar hayotda sochilgan rizq-qo'zini yig'ib-terib eb yursin, degan ma'no anglashilgan. Beshik to'yida bolani chillasi chiqib, uni beshikka belash marosimida ikki turmush ko'rgan, ajralgan xotinlar irim qilib qo'yilmagan. Beshikka muqaddas hisoblangan daraxt tug'dona shoxi kesib olib, osib qo'yilgan. Bolaning beshik yostig'li ostiga pichoq, non parchasi qo'yilgan. Isiriq tutatilib, tumor osilgan.

Beshik to'yi bolar uchun juda-juda quvonchli bayramdir. Chunki, ular o'z saflariga no'malum bir bolaning kelib qo'shilayotganidan shodlanadilar. Umuman olganda, bolalik olami juda ham go'zaldir. U har bir kichik narsadan xursand bo'ladi.

Topshiriq :

1-Matn ni ifodali o'qib bering

HOVLI TO'Y

Hovli to'yida qishloqdoshlarning, qarindosh-urug'larning katta hashari bilan qurilgan yangi imoratga ko'chib kirilgach, xudoyidan keyin maxsus to'y qilingan. Bu to'y ham ko'proq kuz yo qishda o'tkazilgan. Hovli to'y munosabati bilan yanada shinam, ko'rkam, orasta, xonakilashgan. Hovli to'yidan keyingina yangi imorat o'zlashtirilgan, unda yashashga o'rganilgan, kirishilgan. Bu to'y ham nikoh to'yidek oila uchun eng baxtiyor, tantanavor marosimdir. Boshpana, imorat hovlilik yosh oila endi oyoqqa turib olgan. Barqaror, qabila, qishloq, elatning kori xayriga yaraydigan mustahkam qo'rg'on sanalgan. To'ylarning har qishloqda katta-kichikni yaxshi taniydigan kayvonisi, qo'li engil sartarosh-ustasi, qo'li shirin oshpazi, epchil dasturxonchisibolganidek, alohida aytimchi-jarchisi ham albatta bo'lgan. Bu aytimchi-jarchilar zamoniga, joyiga, qishloqlar xududining katta-kichikligiga qarab, piyoda, otda, eshakda, velosiped, motosikl ya mashinada o'qti-o'qtin to'xtab, jar solganlar.

Ayrim mo'ysafidlar, nogironlar, qulog'i og'r keksalar, diniy arbob,

hurmatli kishilar qishloq oqs oqoli tomonidan maxsus kishi yuborib, to'yga chorlaganlar.

Sho'ro zamoni davrida, to'y marosimining mazmuni ham shakli-shamoyili ham ancha o'zgaradi. To'gri ilgari zamonlarda ham o'zbekning to'yida qozoqning polvoni, qirg'izning o'lanchisi, tojikning ustasi, turkmaning shavandozi, albatta, izzatli mahmon sifatida faol ishtirokn etgan. Tabiiyki, o'zbek to'yida bu xalqlar lafzi shevasi ham jaranglab turgan. Biroq yangi tuzumga kelib, bu qirralar yanada kuchaydi. To'ylar ham baynalmilallikning eng yorqin misoli-namunasiga aylandi. Bu marosim osiyocha-ovro'pacha omuxtalashdi. Xalqimizning odat va marosimlari bir-birlariga qo'shib, chatishib, omuxtalashib ketdi. Bundan yangi shakl va mazmun hosil bo'ldi. Demak, to'y marosimlari yangi qiyofaga kirdi.

Hovli to'yi, yosh va tavalludning ma'lum pog'onalari bilan bog'liq bo'lgan nishonlashommaviy marosimlari paydo bo'ldi. Bulr kumush to'y-turmushning birgalikda kechgan 25 yili, oltin to'y-50 yili, brilliant to'y-75 yili kabi turlaridir. Ota-ona, bobo-buvilaringizning turli yubiley kunlari 50, 60, 70, hatto 100 yillik to'ylarini ko'pchilik bilan nishonlash odat tusiga kirib qoldi.

To'yning hokisor, bejirim o'tkazilishi ham to'y egasining ma'naviy qiyofasi yuksakligini ko'rsatadi. Poraxo'r-xoromxo'r kimsalar to'y bahonasida o'zlarining kimliklarini, kuchu-quvvatlarini ko'rsatib qo'ymoqchi bo'ladilarki, bu ma'naviy tubanlikdir. Ko'pchilikning xolatiga qarab, o'shalardan kam ham emas, ko'p ham emas-o'rtamiyona to'ylar o'tkazish zarur.

Topshiriq :

1-Matnni o'qing va so'zlab bering

NIKOH TO'Y

Nikoh to'yida esa bo'y etgan qiz-yigitning turmush qurishi bilan bog'liq bo'lgan qadimiy, an'anaviy odat-marosimlar amalga oshirilgan. Kuyov bo'lmish yigitga qo'yiladigan shartlarni Siz sevib o'qigan ertaklaringiz, baxshi bobolaringiz to'qigan dostonlardan yaxshi bilasiz.

Oddiy xalqda kuyov bolaga o'tin yerdirib, er choptirib, chavandozligini, kurash tushishini, kamondozligini, kosib-ustaligini sinab, imyihon qilib ko'rishgan.

Qadim ajdodlarimizda o'zaro kelishilgan holda bo'lajak kelinni olib qochish rasm bo'lgan. "O'g'irla" kelingan qizni yigit nikohlab olishi uchun muayyan qonun-qoidalar asosida to'y tayyorgarligini ko'rishgan. Shu munosabat bilan nikohdan oldingi va keyingi marosimlar amalga oshirilgan. Turkiy xalqlarda hamma ma'noda qizning bahosi baland bo'lgan. Shuning uchun kuyov tomon kelin tomonga albatta qalin to'lagan. Bu to'lov pul, oltin-kumush, qo'y-mol, gilam va kigiz shakllarida bo'lgan.

Kelinni tushirib olish marosimi, ayniqsa, qiziqarlidir. Qadimiy ajdodlarimiz o't-olovga sig'inishgani tufayli, otda, tog' etaklaridan kelgan kelinni (hozir engil moshinalarda) kuyov bola otdan tushirib, darvozaoldida yoqib qo'yilgankatta gulxan atrofidan uch bora aylantirib, so'ng chimildiqqacha ko'tarib olib kirgan. Bu bilan ajdodlarimiz yangi oilani olov taftida har xil ins-jinslardan, yomon ko'zlardan tozalagan. Ikkinchidan, er kishi o'z jufti halofi, turmush hamrohi bo'lgan ayolni hamisha izzat-hurmatda, qo'lda ko'tarib yurishini ramziy ravishda ifoda qilgan.

Xorazmda qadimdan xonadonga kelin bo'lib tushgan yangi oila a'zosi bir yil davomida o'z qaynonasi bilan og'iz ochib gaplashmaydi. O'g'il o'stirganning xizmatini qiladi, topshiriqlarini bajaradi, buyruqlarini quloq qoqmay ado etadi, ammo churq etib, og'iz ochmaydi. Bu arazlagani, iddaosidan emas, odob-andishasidan, istihola qilganidan shunday muomalada bo'ladi. Kelin birinchi farzandini tug'ib, uni beshikka belaganidan keyin qaynona-oyisi bilan gaplashish huquqiga ega bo'ladi.

Qaynota-kelin munosabatlari yana-da murakkabroq. Kelin nech yil davomida tug'ilishidan qat'l nazar, to'rt farzand ko'rguniga qadar o'z qaynotasi bilan gaplashmaydi. Qaynota otaning topshiriqlarini bajaradi, yumushiyu xizmatini qovoq-tumshuq qilmay o'rniga qo'yadi. Faqat bu ijronigungu saqovdek, hatto ovozi va shovrini ham chiqmasdab bajaradi. Bu ham odob, andisha, istihola tushunchalarining eng oliy namunalaridir.

Albatta, kelin-kuyov to'y kunlari maxsus kiyim-boshlar kiyishgan. Bu kiyimlar yurtimizning qaysi vohasiga qarab, bir-biridan farq qilgan.

Masalan, Samarqand, Buxoroni bir toifa bo'lsa, Surxon va Qashqa vohasiniki ikkinchi toifa. Farg'onaniki o'zi bo'lak bo'lsa, xorazmlik kelin-kuyovning kiyim-boshi tamoman o'zgacha bo'lgan. Bu tashqi belgilar ham xalqimiz madaniyatining juda boy va qadimligidan dalolat beradi.

Nikoh to'yigacha quda tomonlar o'rtasida maslahat oshi berilib, so'ng unashtirish marosimi o'tkazilgan. Xalq orasida bu odat "non sindirish" deb ham ataladi. Fotiha to'yidan keyin kelin tushgan xonadonga hayit, bayram kunlari hayitliklar jo'natilgan. Kelin tushishining o'zi katta bir marosim bo'lib, quda tomonlar azaldan amal qilib kelinayotgan taomilga qilishgan. To'y kunidagi to'y jo'natish, tortishmashoq-kelin oyog'iostiga tashlangan poyandoz talashish marosimlarining o'zi bir to'ydir.

Chimildiq (go'shanga) ga kirish bilan bog'liq odatlarning o'zi bir jahon. Kelin-kuyovning ustidan sochqi sochish, kelin bola va yangalar bilan kuyov to'ra va uning jo'ralario'rtasidagi ayitshuv, "belbog' echdi", "kelin ko'tardi", "oyoq bosdi" odatlari shular jumlasidandir.

Nikoh to'yidan keyin bo'ladigan marosimlar ham xalqimiz jo'mard tabiat, qo'li ochiqlik odati, to'kin-sochin, erkin hayoti mazmunidan kelib chiqqan. Bular kelinning yuzini ochish, kelin salomi, kuyov tomon va mahalla xotin-qizlarning kelin ko'rdisi va so'nggisi-yoyilgan sepmi yig'ishdir. Bu marosimni xalq orasida "joy yig'di" ham deyishadi. "Joy yig'di" da kutilgan natijani bermagan ayrim kelinlar ertasi qo'tir eshakkka teskari o'tqazilib, yo'l-yo'lakay masxaralab kulib, sazoyi qilinib, hazar bilan ota-onasinikiga eltib tashlangan. Bu isnod qolgan barcha oilalarga qizlari, bo'lajak kelinlari uchun katta saboq rolini o'tagan.

Yor — yor va kelin salom.

Xotin qizlarning qiz uzatish bahona o'zlari to'qigan yor-yorlarida qiz bolaning qismati, uning baxtini tilash, epli - sepliligini ta'kidlash, qizlarning taqdirga tan berishi, ko'nikishi kerakligi haqidagi momolar o'giti ifodalangan quyidagi turli viloyat va tumanlardan yozib olingan "Yor-yor"lardan namunalar keltiramiz:

Hay-hay o'lan, jon o'lan, baxting bo'lsin yor-yor,

Payg'amharning qizidek taxting bo'lsin yor-yor,

Payg'amharning qizini kim ko'rgan bor yor-yor,

Ota-ona uyiga kim to'lgan bor yor-yor.

*Zargar qilgan zanjirni uzib bo'lmas yor-yor,
Xudo qilgan taqdirni buzib bo'lmas yor-yor,
Hay-hay o'lan, jon o'lan, mis panjura yor-yor,
Har jafoga ko'nadi qiz bechora, yor-yor.*

*Yig'lama qiz, yig'lama, to'y saniki yor-yor,
Ostonasi tillodan uy saniki yor-yor,
Hay-hay o'lan, jon o'lan atoyi qiz, yor-yor,
Upa-epik kerakmas, chiroyli qiz, yor-yor.*

Kelin salom. Kelin salom kelin tushgan kunning ertasiga ertalab, kelinni kuyovning ota-onasi va qarindoshlariga ko'rsatish, tanishtirish, salomlashish uchun o'tkaziladi.

Kelinning yuziga parda yopib, ro'molcha to'sib xonadon ostonasiga olib chi qadilar va kelin salom aytadilar:

To'pshiriq :

1-Matni o'qing

2-Matn mazmunini yorituvchi savollar tuzing

3-Siz tug'ulib o'sgan joyingizdagi urf-odatlar haqida gapirib bering

Ramazon

Kichik hayit ro'za namozi bilan bo'g'liq marosim bo'lib, bir oy tutilgan ro'za-parhezdan keyin shavvol oyining 1-3 kunlari bayram qilinadi. Bu bayram ham garchi nomi kichik hayit deb atalsa-da, xalq orasida juda katta marosim sifatida nishonlanadi. Ro'za nomozidan keyin bozor, mahalla, ko'chalarda tuxum, xo'roz, it, qo'chqor urshtirayotgan yosh-yalanglarni, masxarabozlik sahnalarini, dorbozlik o'yinlarini, savdo rastalari to'la bayram qandolatu holvalarini uchratishingiz mumkin. Ro'za ichi har kuni oqshomlari muayyan muddatda iftorlik "og'iz ochish"

marosimlari o'tkaziladi. Bu ham o'ziga xos mehmondorchilik bo'lib, ro'zadorlar niyat qilib iftorlik berayotgan kishining uyida o'z ro'zalarini ochi, iftorlik luqmalarini tanovul qilishadi. Iftorchi ro'zaning savobiga sherik bo'ladi. Ro'zadorlar sahar turib, tamaddi qilib, "og'iz bog'lashadi". Ya'ni, kun davomida suv ichilmaydi, ovqat yeyilmaydi. Umuman, hech nima iste'mol qilinmaydi. Bu kishilik a'zolarini, badanni o'ziga xos parhez qilish, bir oz tozalashga, davolashga qaratilgan tadbirdir. Roza kishi irodasini toblaydi, qanoat o'rgatadi. E'tiqodini mustahkamlaydi.

Topshiriq :

1-Matnni mazmunli gapirib bering

Qurbon xayiti.

Bu xayit mahalliy tilda kichik xayit deb ataladi. Bu xayit Ramazon xayitidan 70 kundan so'ng nishonlanadi. Islom dinida bu xayitda hayvon so'yib qurvonlik qilinadi. Qurvonlik mol, qo'y va boshqa xayvonlarni so'yish bilan amalga oshiriladi. Bu xayitda ota-onalar bolalariga xayitlik berishadi. Bu xayitlik asosan pul, kiyimkechak va boshqa narsalardan iborat bo'ladi.

Topshiriq :

1-Matnni o'qing va sifatlarni aniqlang

Qovun sayli.

O'zbekiston agrar-industrial davlat bo'lgani uchun aholi dehqonchilik bilan shug'ullanadi. Aholi dehqonchilik bilan shug'ullangani uchun xalq orasida dehqonchilik haqida aqlan va jismonan xordiq chiqaradigan sayllar, bayramlar paydo bo'ladi. Bu bayramlar yillar o'tib anana va urfodatga aylanadi. "Qovun sayli" ham azaldan nishonlanib kelinayotgan sayldir. Bu sayl yozning iyul oyida qovun pishgan vaqda nishonlanadi.

Bu salyda dehqonlar o'zlari yetishtirgan qovun, tarvuz, poliz ekinlari va boshqa meva-chevalarni ko'rgazmaga olib chiqadilar. Bu kunlari katta yarmarka bo'lib, salyga olib kelingan mahsulotlarni bozor narxidan tushirib sotadilar. Hakamlar tomanidan g'olib aniqlanadi. G'olibga

hokimiyat tomonidan qimmatbaho sovg'a va yorliqlar topshiriladi.

Topshiriq :

1-Matni mazmunini gapirib bering

2-Undagi sifatlarni aniqlang

Tarix va zamonamiz.

Tarixiy obidalar – ma'naviyatimiz ko'zgusi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, ajdodlarimizdan qolgan madaniy tarixiy merosga e'tibor kuchaydi, tarixiy yodgorliklar davlat nazorati ostiga olindi. Istiqlol yillarida Buxoro, Samarqand, Termiz, Xiva, Toshkent, Qo'qon, Shahrisabz kabi shaharlarda ulug' ajdodlarimizning yuksak iste'dodi bilan bunyod etilgan obidalar o'zining haqiqiy qadr-qimmatini topdi, ularni ta'mirlash va asl qiyofasini tiklash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Toptalgan tariximiz, qutlug' qadamjolar, hatto nomlari ham unutila yozgan obidalar ta'mirlandi, qayta tiklandi. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abu Mansur al-Moturudiy, Ahmad al-Farg'oni, Burhoniddin al-Marg'inoniy, Mahmud az-Zamaxshariy kabi ulug' kabi ulug' allomalarimizning sha'nlari munosib yodgorlik majmualar yaratildi. Toshkent, Samarqand va Shahrisabzda Sohibqiron Amir Temur, Toshkentda Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Urganchda Jaloliddin Manguberdi, Termizda Alpomish haykallari qad ko'tardi.

Bugungi kunda mamlakatimizda etti mingdan ortiq yodgorlik, shu jumladan, 2500 ta me'moriy obida, 2700 tadan ortiq monumental san'at asari davlat muhofazasiga olingan. 1991 yildan Xivadagi Ichonqal'a qo'riqxonasidagi, 1993 yildan Buxoro shahri markazidagi, 2000 yildan Shahrisabz shahri markazidagi yodgorliklar Yuneskonning "Umum jahon madaniy merosi" ro'yxatiga kiritildi.

Topshiriq :

1-Matn mazmunini yorituvchi savollar tuzing

2-Matnda uchraga yangi so'zlar lug'atini tuzing va yod oling

Registon ansambli

Samarqandning Registon maydonida uch madrasa (Ulug`bek madrasasi , Tillakori madrasa, Sherdor madrasa) dan iborat me`moriy majmua. Dastlab Ulug`bek madrasasi bunyod etilib (1417-1420), keyinchalik qarshisiga -maydon sharqiga Ulug`bek xonaqohi (1424) , shimoliga Mirzoyi karvonsaroyi, janubiga Alike Ko`kaldosh Juma masjidi(1430) qurdirgan , yonida esa yog`ochdan xotamkori uslubida masjidi Muqatta va Abusaid madrasasi qurilgan . XV asrning 20-40 yillarida Registon hashamatli me`moriy ansamblga aylangan. XVII asrda Samarqand hokimi Yalangto`sh Bahodir vayrona holatdagi Ulug`bek xonaqohi o`rniga Sherdor madrasa (1619-1635)ni , Mirzoyi karvonsaroyi o`rniga Tillakori madrasa-masjidi (1646-1659)ni qurdirgan. Registon o`zining rang –barang koshinkori bezaklari, naqshinkori peshtoqlari, ulkan gumbazlari bilan O`rta Osiyo me`morligining noyob yodgorligi hisoblanadi.

Topshiriq :

1-Matnni lug`at yordamida rus tiliga tarjima qiling

2-Lug`at tuzing va ularni eslab qoling

Go`ri Amir maqbarasi

Sohibqiron Amir Temur Turon zaminining yirik davlat arbobi, buyuk sarkardasidir. U qudratli davlatni vujudga keltirgan. Amir Temur har gal uzoq yurishga otlanganda davlat poytaxti Samarqandga nevarasi Jahongir Mirzoning o`g`li Muhammad Sultonni valiahd qilib qoldirar edi.

Go`ri Amirga Amir Temur avlodlari dafn etilgan. Bu yerda sohibqironning piri Mir Sayyid Baraka va Sayyid Umarning qabri ham bor. Ulug` Shayx Mir Sayyid Baraka Kirmon viloyatidan bo`lib, Amir Temurning ustozlari hisoblanadi. U 1404 yilda Mozandaronda vafot etgan va Afg`onistonning Andhud shahrida dafn etilgan. Amir Temur vasiyatiga ko`ra jasadi Samarqandga Shohruh Mirzo tomonidan keltirilgan. Buyuk Sohibqiron o`z jasadini uning oyog`i uchiga qo`yishlarini vasiyat qiladi.

Topshiriq :

1-Matnni o'qib so'zlab bering

BIBIXONIM MADRASASI VA MAQBARASI

Saroymulixonim (Bibixonim) Chig'atoy xonlariga mansub Qozonxonning qizi bo'lib, 1341-yilda tug'ilgan. 1370 yili Amir Temur nikohiga o'tgan. U xon avlodiga mansubligi uchun "Bibixonim" (Kattaxonim) unvoniga sazovor bo'lgan. Saroymulixonim siyosatdon va insonparvar ayol edi.

Ko'pgina tarixiy kitoblarda, jumladan, Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Hofizi Abru, Abdurazzoq Samarqandiy, Fasih Havofiy, Ibn Arabshoh, Klavixoxo kabilar asarlarida Saroymulxonimning fazilatlarini, shaxsiy sifatlarini ko'p ulug'lanadi. Chunonchi, Ispaniya elchisi Ryui Gonzales de Klavixoxo o'zining «Samarqandagi Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi» asarida oqila malika Bibixonimning Amir Temur saltanatidagi o'rnini, qurultoylar va oliy majlislarda, amirlar bilan qatnashish huquqiga egaligini yozib qoldiradi. 1404 yil 17 oktyabrda Saroymulxonim elchilarga katta ziyofat berganini bayon qiladi. Bu dalillar esa Amir Temur saltanatida, davlat ishlarida Saroymulxonim faol qatnashganini yana bir bor tasdiqlaydi.

Bibixonim Amir Temur ruxsati bilan Samarqandda ulkan madrasa qurdiradi. Otasi Qozonxondan meros bo'lgan bir juft baldog'ini sotuvga qo'yib, pulini madrasa qurilishiga ishlatgan ekan. Samarqanddagi hozirgi Jome' masjidining kun chiqar tomonida, ya'ni Bibixonim maqbarasi yonida barpo etadi. Bibixonim madrasa talabalariga g'amxo'rlik qilib borgan, ularga moddiy yordam berib turgan. Madrasa nihoyatda mahobatli bo'lib, Amir Temur qurdirgan Jome' masjidiga tutash va monand bo'lgan. Biroq har xil sabablarga ko'ra madrasa keyinroq vayron etilgan. Bibixonim hayotda farzand ko'rmagan. Ammo u temuriyzodalarga murabbiylik qilgan. Xususan, Mirzo Ulug'bek Bibixonim tarbiyasida voyaga yetgan. Bibixonim 1408 yilda vafot etadi. Uning jasadi o'zi qurdirgan madrasa yonidagi maqbaraga qo'yilgan.

Bibixonim madrasasi yoniga sohibqiron Amir Temur Hindiston

zafaridan keyin mahobatli masjid qurdiradi. Hozir ushbu masjid mavjuddir. Bu buyuk koshonalar xalq o'rtasida "Bibixonim" nomi bilan shuhrat topgandir.

Topshiriq :

1-Lug'at tuzing va ularni eslab qoling

2-Matni lug'at yordamida tarjima qiling

SHOHI ZINDA... HAYRAT MASKANI

Samarqandni, bu qadim va maftunkor yurtdagi betakror obidalarni, xususan Shohi Zinda tarixiy majmuasi haqida bugun kunda butun dunyo biladi desak, xato bo'lmaydi. Afrosiyob tepaligidagi bu ziyoratgoh yigirmadan ortiq me'moriy inshootlar – maqbaralar, masjidlar va madrasalardan tashkil topgan. Tarixning kafolat berishicha, XIX asrning oxiriga qadar bu yerga kiradigan darvozaning peshtoqida "Ushbu buyuk binoni Abdulazizxon ibn Ulug'bek ko'ragon ibn Shohruh ibn Amir Temur ko'ragon 838 (1435) yilda qurdirgan" degan yozuv bo'lgan.

Ziyoratgohdan joy olgan Xo'ja Ahmad, Shohi Mulk Oqa, Amirzoda, Usta Olim Nafasiy, Amir Burundiq, Tuman Oqa, Qozizoda Rumiya kabi maqbaralar xalqimiz me'morchilik san'atining bebaho namunasi sifatida qad rostlagan. Maqbaralarni soatlab tomosha qilayotgan dunyoning turli mamlakatlaridan kelgan sayyohlarni ko'rib, vujudimizda faxrlanish tuyg'usini sezamiz. Majmu'a Prezidentimizning 2004 yildagi maxsus qaroriga ko'ra to'liq ta'mirlandi va obodanlashtirildi.

Topshiriq :

1-Matni o'qib, so'zlab bering

QUSAM IBN ABBOS SHOHIZINDA (TIRIK SHOH) MUHAMMAD

Qusam ibn Abbos Shohizinda (Tirik shoh) Muhammad Payg'ambarimizning amaki-vachchasi (amakisi Abbosning o'g'li) bo'lib. 676 yilda Samarqandga Islom dinini joriy etish uchun keladi va jangda halok bo'ladi. Uning jasadi hozirgi Afrosiyob tepaligining Janubiy-Sharqiy

qismiga dafn etiladi. Qusam ibn Abbos haqida "Qandiya" kitobida shunday satrlar keltirilgan: "Hech bir mozor Shohizinda mozoridek ulug' emasdir. Payg'ambarimizning muborak yuzlarini ko'rgan oxirgi kishi ham Qusam ibn Abbosdir". Shuningdek, Payg'ambarimizning "Qusam ibn Abbos o'zining yuz tuzilishi, husni va fazilatleri, odatlari bilan menga ko'proq o'xshaydi" - degan hadisleri ham bor.

Qusam ibn Abbos maqbarasi go'rxona, ziyoratxona, masjid va chillaxonadan iborat. Shohizindadagi barcha qurilishlarni buyuk sohibqiron Amir Temur va Mirzo Ulug'bek amalga oshirgan. Ular o'z avlodlari va yaqin kishilarini Shohizinda maqbarasi yoniga dafn etganlar. Amir Temur O'lja oyim, Tug'li Tekin, Shirinbeka oqo (Amir Temurning singlisi), Turkan oqo (Amir Temurning opasi), Tuman oqo (Amir Temurning xotini) uchun maqbaralar, Ulug'bek esa o'g'li Abdulaziz nomidan ajoyib darvozaxona qurdiradi

Topshiriq :

1-Matn mazmunini ochib beruvchi savollar tuzing va savollar asosida gapirib bering

2-Egalik qo'shimchalari ishtirok etgan so'zlarni ko'chiring va qaysi shaxsda ekanini aniqlang

IMOM AL-BUXORIY YODGORLIK MAJMUASI

Samarqand yaqinidagi me'moriy yodgorlik, qadamjo. Chelak tumanining Xartang qishlog'ida joylashgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 y. 29 apreldagi "Imom al-Buxoriy tavalludining hijriy-qamariy taqvim bo'yicha 1225 yilligini nishonlash to'g'risida"gi qaroriga muvofiq yurtboshimiz Islom Karimov loyihasi asosida allomaning maqbarasi o'rnida barpo etildi. Majmua 1998 y.da ochilgan. Yodgorlik majmui avvalo ziyoratgoh, qadamjo; so'ng kundalik, juma, hayit namozlari o'qiladigan joy vazifasini o'taydi. Umumiy maydoni 10 ga ni tashkil etadi. Majmuada maqbara, ma'muriy bino, masjid, kutubxona, ilmiy xodimlar xonasi va yordamchi xonalar mavjud. Masjidning peshayvonida 1500 gacha kishi namoz o'qishi mumkin. Bu

yodgorlik majmui keyingi asrlarda bunyod etilgan ulkan va noyob inshootdir. U yosh avlodni ezgulik ruhida tarbiyalaydigan, har bir insonni hayot va abadiyat haqida o'ylantiradigan aziz maskanga aylandi.

Topshiriq :

1-Matni rus tiliga tarjima qiling

AMIR TEMUR MUZEYI

Amir Temur tarixiy shaxs sifatida uzoq vaqt qoralanib kelindi. Faqat O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingina buyuk bobomizning hayoti va faoliyati haqqoniy bahosini olib, qadr-qimmati joyiga qo'yildi. Amir Temurning 660 yillik yubileyi respublikamizda zo'r tantana bilan nishonlandi. 1996 yil 18-oktyabrda Amir Temurning 660 yillik yubileyi munosabati bilan Toshkentda Temuriylar tarixi davlat muzeyi ochildi; Toshkentda, Samarqandda va Shahrisabzda unga haykallar o'rnatildi. Ko'plab ko'chalar, xiyobonlar, maydonlar uning nomi bilan atala boshladi. "Amir Temur" ordeni ta'sis etildi. Buyuk sarkarda va davlat arbobi, uning ajdodlari hayoti va faoliyatiga bag'ishlab kitoblar nashr etildi, kinofilmlar ishlandi.

Topshiriq :

1-Matn mazmunini ochib beruvchi savollar tuzing va savollar asosida gapirib bering

2-Kelishik qo'shimchalari ishtirok etgan so'zlarni ko'chiring va qaysi kelishikda ekanligini aniqlang

O'ZBEKISTON MUZEYLARI YAQIDA

O'zbekiston Davlat san'at muzeyi Markaziy Osiyo hududidagi eng yirik hisoblanib, Sharq hamda G'arbiy Yevropaning noyob san'at asarlarini o'zida mujassamlashtirgan. U 1918 yilda 500 eksponatni o'z ichiga olgan kichik to'plamdan tashkil etilgan edi. Bular asosan rus va G'arbiy Yevropa san'atining asarlaridan iborat bo'lgan, rassomchilik, haykaltaroshlik, naqqoshlik; chinni, bronza va shu kabilar namunalari edi. XX asr

davomida ilmiy tadqiqotlar va to'plamlar natijasida muzey kolleksiyasi 50 mingga yaqin eksponatga yetdi. Bu - O'zbekiston san'at asarlari, xorijiy Sharq mamlakatlari, rus va G'arbiy Yevropa san'ati asarlaridir.

Bunday xilma-xil va keng miqyosdagi kolleksiya to'plami Markaziy Osiyo hududidagi biron bir muzeyda yo'qdir.

Bugungi kunda muzeylar millatning ma'naviy rivojlanishida katta ahamiyat kasb etmoqda. Muzeylarning muhim ma'naviy va tarbiyaviy ahamiyatini hisobga olgan holda Istiqlol yillarida muzey ishlarini takomillashtirishga qaratilgan qator Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari qabul qilindi. Xususan, 1994 yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Muzeylar faoliyatini yaxshilash chora-tadbirlari to'grisida" gi qarori qabul qilindi. 1998 yilda esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning "Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'grisida" gi farmoni chiqdi. O'zbekiston muzeylari xalqaro me'yorlarga javob berishi uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda. Bunda muzeylarning me'moriy yechimi, interyer dizayni va ekspozitsiyalarni badiiy bezash, kolleksiyalarni to'ldirish, saqlash sharoiti, harorat tartibi, muzey jihozlari va kompyuter texnikasi bilan ta'minlashga alohida e'tibor berilmoqda

Mustaqillik yillari mobaynida hukumatimizning qo'llab-quvvatlashi natijasida xalqaro talablarga javob beruvchi bir qator yangi muzeylar qurildi, faoliyat ko'rsatayotgan muzeylar esa kapital ta'mirlanib, jihozlandi.

San'at muzeyining hozirgi binosi 1974 yilda qurilgan. Me'morlar (I. Abdullov, M. Rozenblam, A. Nikiforov) uni "modern" uslubida - oynaband kub shaklida loyihalashtirdilar. Vaqt o'tishi bilan binoni ta'mirlash va qisman rekonstruksiya qilish zaruriyati tug'ildi. Hukumatimiz tomonidan mablag' ajratildi va 1997 yilda binoni to'la ta'mirlash ishlari boshlanib, hozirda bu ishlar muvaffaqiyatli bajarildi. Ta'mirlash ishlari bilan bir qatorda kolleksiyalarni saqlash xonalari va ekspozitsiya uchun zarur bo'lgan maxsus jihozlar sotib olindi hamda noyob to'plamlarni saqlash sharoitlarini yaxshilash va ularni asrash uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berildi.

Belgiya san'at va tarix Qirollik muzeyi «Samarqand Buyuk Ipak

yo'li chorrahasida: O'zbekiston muzeylari xazinasini ko'rgazmasini o'tkazish yuzasidan tayyorgarlik ishlarini boshlab yubordi.

San'at va tarix Qirollik muzeyi – Belgiyadagi eng yirik va mashhur muzeylardan biri. 1835 yilda tashkil etilgan muzey to'plamlarida 350 mingdan ortiq eksponat bor. Ular 60 ming kvadrat metrlik maydonda namoyish etiladi, «Jahon» AA xabar qiladi.

Muzey to'plamlari to'rtta qismga bo'lingan. Bular: Belgiya milliy arxeologiyasi to'plami, Yaqin Sharq, Misr, Gresiya va Rim antik to'plami, Osiyo (Xitoy, Yaponiya, Koreya, Janubi-Sharqiy Osiyo), Amerika (qit'ada Kolumbgacha bo'lgan davr san'atning eng boy kolleksiyalaridan biri), Okeaniya va islom dunyosiga asosiy e'tibor qaratilgan Noyevropa sivilizasiyalari to'plami hamda o'rta asrlardan to XX asrga qadar bo'lgan Yevropa bezak san'ati to'plamidir.

Har yili Qirollik muzeyi turli mamlakatlarning 15 ta kichik ko'rgazmasi hamda biron mamlakat yoki mavzuga bag'ishlangan bitta katta ko'rgazma o'tkazadi. Joriy yil sentyabr oyida bu yerda birdaniga uchta ko'rgazma ochildi. Ular «Kolumbgacha bo'lgan davr san'ati ustalari», «Meksikaning an'anaviy liboslari» va «Hindular Bryusselda» deb nomlangan bo'lib, aprelga qadar davom etadi.

Muzey 2009 yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan «Samarqand Buyuk Ipak yo'li chorrahasida: O'zbekiston muzeylari xazinasini ko'rgazmasiga hozirdanoq tayyorgarlikni boshlab yubordi. Ushbu loyihaning boshlanishiga muzey bosh direktori Ann Kaen-Delay rahbarligidagi delegasiyaning O'zbekistonga yaqinda amalga oshirgan tashrifi sabab bo'ldi.

- Qadimiy Eron va Markaziy Osiyo to'plamlari mutasaddisi sifatida men Bryusselda O'zbekiston to'g'risidagi katta ko'rgazmani tashkil etishga rahbarlik qilish sharafiga muyassar bo'ldim, - deydi delegasiya a'zosi, muzeyning qadimiy Eron va Markaziy Osiyo arxeologiyasi departamenti rahbari doktor Bryuno Overlaet «Jahon» axborot agentligi muxbiri bilan suhbatda. - O'zbekiston muzeylaridagi hamkasblarimiz bilan birgalikda biz yurtimizning Iskandar Zulqarnayn va Ahmoniyar saltanati davrlaridan buyon Buyuk Ipak yo'li faoliyatida tutgan o'rnini, keng

ko`lamda ko`rsatib berish niyatidamiz.

Ko`rgazma doirasida arxeologik eksponatlar, tarixiy va madaniy boyliklar, san`at asarlarini ham namoyish etishga harakat qilamiz. Ularning ayrimlari O`zbekiston hududida amalga oshirilgan arxeologik qazish ishlari chog`ida topilgan.

Shu munosabat bilan so`nggi yillarda mamlakatingizda arxeologiya tadqiqotlari keskin ko`payganini qayd etishni istardim. O`zbekistonlik arxeologlar xorijiy hamkasblar bilan birgalikda bunday ishlarga ulkan kuch va sarmoyalarini yo`naltirmoqda. Ushbu sa`y-harakatlar tufayli O`zbekiston va Markaziy Osiyoning jahon sivilizasiyasi tarixida tutgan muhim o`rni yanada yorqinroq

bo`layotir.

O`zbekistonga tashrifimiz chog`ida biz Madaniyat va sport ishlari vazirligi, respublika Badiiy akademiyasi hamda Toshkent va Samarqanddagi ko`plab muzeylar bilan to`g`ridan-to`g`ri aloqalarni o`rnatdik. Tashrif yakunlaridan juda mamnunmiz. Biz o`zbekistonlik hamkorlar bilan Bryussel hamda «Ko`hna qit`a»ning boshqa poytaxtlarida o`tajak yurtigiz arxeologiya va madaniy qadriyatlari ko`rgazmasi Yevropa madaniy hayotidagi yirik voqealardan biri bo`lib qolishi uchun barcha imkoniyatlarni ishga solishga tayyormiz, - deya ta`kidladi doktor Overlaet.

Topshiriq :

1-Matnni o`qib, gapirib bering va notanish so`zlar lug`atini tuzing

Adabiyot-ma`naviyat o`chogi.

ABDULLA QODIRIY

(1894—1938)

Abdulla Qodiriy tavalludining 115 yilligi

Abdulla Qodiriy yangi davr o`zbek adabiyotining asoschilaridan biri, o`zbek milliy romanchilik maktabining tamal toshini qo`ygan buyuk adibdir. U 1894-yil 10-aprelda Toshkentda bog`bon oilasida tug`ulgan. 9-10 yoshlarida eski usul maktabda tahsil ko`radi. So`ng rus-tuzem maktabida o`qiydi. 17-18 yoshlarida bog`bonchilik bilan tirikchilik

o'tkazadi. Abdulla Qodiriy ijodi 1913-1914-yillarda boshlanadi. U shu yillari barcha ilg'or fikrli yoshlar qatori jadidchilik xarakteriga qo'shilgan va o'zining ilk asarlarida ma'rifat, millat taraqqiyoti va hurligi g'oyalari ni targ'ib eta boshlagan. Qodiriy savdogarga prikazchilikka yollanib 3-4 yil ishlaydi.

Dastlab ma'rifiy she'rlar yozdi. "Axvolimiz", "Millatimiz", "To'y" kabi she'rlari jadid matbuotida e'lon qilinadi.

1915-yili u Bexbudiying "Padarkush" fojiasi ta'sirida "Baxtsiz kuyov" pyesasini yozadi. So'ng o'zi "milliy ro'mon" deb atalgan "Yuvonboz" hikoyasini yarata di. Bu asarlar xam avvalo ma'rifatparvarlik qarashlari maxsuli bo'lib, jamiyatda chirkin illatlar va qoloq urf-odatlar ni keskin tanqid qilishga yo'naltirilgan. 1916-yilda yozilgan "Uloqda" xikoyasi A.Qodiriy ijodida badiiy izlanishlar rivojini ko'rsatadigan muxim xodisalar dandir. 1917-yil fevral va oktyabr voqealaridan keyin A.Qodiriy xayotida xam, ijodida xam o'zgarishlar ro'y berdi. U sho'ro idoralarida "Ishtirokiyun" va "Qizil bayroq" gazetalari da adabiy xodim, "Mushtum" jurnati tashkilotchilarida bo'ldi. Moskvada V.Brusov nomidagi jurnalistlar institutida taxsil oldi. A.Qodiriy 1925-1926-yillarda "O'tgan kunlar" romanini e'lon qi ladi.

Bu to'laqonli realistic ilk o'zbek romani bo'lib, Qodiriyning jadidona siyosiy qarashlari yuksak ifodasini topgan asar edi. 1928-yili yozuvchi "Mexrobdan chayon" romanini e'lon qildi. Bu roman xam adibga katta shuxrat kelditrdi. Bundan tashqari, A.Qodiriy "Obid ketmon" qissasining, "Toshpo'lat tajang nima deydi?", "Kalvak maxzumning xotira daftaridan" turkum satiric xikoyalarining, rus va g'arb adabiyoidan o'g'irgan qator tarjimalaming xam muallifidir. Abdulla Qodiriy 1937-yil so'nglarida xibsga olinib, 1938-yil 4-oktyabrda Toshkentda Bo'zsuv bo'yida qatl etiladi. 1991-yili O'zbekiston mustaqillikka erishishi bilanoq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga ko'ra Abdulla Qodiriyga Navoiy nomidagi Davlat mukofoti berildi. 1994-yili adib "Mustaqilik" ordeni bilan taqdirlandi.

Topshiriq :

1-Matnda uchragan yangi va qiyin so'zlarni ko'chirib oling, ularni yodda tuting

SAID AHMAD

O'zbek adabiyotining yetak nosirlaridan biri Said Ahmad Husanxo'jaev 1920 yili Toshkentning Samarqavd darboza mahallasida ziyoli oilasida dunyoga keldi. Shu yerda o'rta maktabni (1939) bitirib, Oliy o'quv yurtida (1940—1941) ta'lim olgan. Adabiyot darslari va to'garaklarida ijodga bo'lgan havasi ortib, qo'lga qalam ushlagan, vaqtli matbuot uning ijod dorilfununi bo'lgan. Said Ahmad dastlab «Mushtum» oynomasida, Radio komitetida (1942—1943), «Qizil O'zbekiston» ro'znomasi (1943—1947), «Sharq yulduzi» oynomasida (1948—1950) va so'nggi yillarda u O'zbekiston Yozuvchilari uyushmasi qoshidagi nasr bo'limiga boshchilik qiladi. Uning birinchi hikoyalar to'plami «Tortiq» 1940 yilda nashr etiladi.

Urush va urushdan so'nggi yillarda Said Ahmad ko'plab fel'eton, ocherk va hikoyalar yozdi. «Er yurak» (1942), «Farg'ona hikoyalari» (1948), «Muhabbat» (1949) kabi to'plamlar nashr etildi. Ulug' Vagan urushi davri voqealariga bag'ishlangan «Xazina», «Hayqiriq», «Rahmat azizlarim» kabi hikoyalarda avtor urushning dahshatli oqibatlarini hayajonli tasvirlaydi, urush qahramonlarini ulug'laydi.

Adibning hikoyalari Oybekning psixologik tasvir mahorati, G'afur G'ulorning yumori, Abdulla Qahhorning bayondagi lakonizmi mujassamdir.

Said Ahmadning barcha hikoyalari zamonaviy mavzuda yozilgan. U hikoyalarda tasvirlaydigan har bir voqeadan falsafiy umumlashma chiqarishga, voqealarni lirik ta'sirchanlik bilan ifodalashga, badiiy priyomlarning xilma-xilligiga erishishga intildi. «Cho'l burguti», «O'rik domla», «Lochin», «Odam va bo'ri», «Bo'ston», «To'y boshi» kabi qator asarlari Said Ahmad ijodida ham, o'zbek nasrida ham yangilik bo'ldi, Adib hikoyalarining bosh qahramoni ichki dunyosi boy va pok bo'lgan zamondoshlarimizdir. Muallif «Tog' afsonasi», «Zumrad», «Muhabbatning tug'ilishi», «Ko'zlaringda o't bor edi», «Poyqadam», «Alla», «Iqbol chiroqlari» asarlarida hayotiy xarakterlar yaratdi.

Said Ahmad hajviy hikoyalari taraqqiyotimizga to'siq bo'layotgan yaramas urf-odatlar ustidan kuladi. yangicha ma'naviy-axloqiy masalalarni

oʻrtaga qoʻyadi. Aksincha, oʻzbek psixologiyasiga singmaydigan, milliylikdan yiroq beva tan, bemillat, yangicha urf-odatlar, udumlar ustidan ham qahqaha otib kuladi. Uning «Xanka bilan Tanka» «Lampa shisha» kabi oʻnlab hajviyalari shular jumlasidandir. Said Ahmad kichik hajviy asarlari bilan oʻzbek radio va televideniyesida quvnoq miniatyuralar teatriga asos solgan

Said Ahmad hikoyalari dan asta-sekin yirik polotnolar yaratishga oʻtdi. 1949 yilda chop etilgan «Qadrdon dalalar» va «Hukm» (1958) qissalari shular jumlasidandir.

«Ufq» romanida (1964) Ulugʻ Vatan urushining olovli yillarida oʻzbek dehqonlarining front orqasida koʻrsatgan mehnat qahramonliklari atroflicha hikoya qilinadi. «Ufq» trilogiya boʻlib, yozuvchi unda urushdan oldingi va undan keyingi davr hayotiy muammolari haqida bahs yuritadi.

Said Ahmad ham qatagʻonlik zulmining ikkinchi toʻlqiniga duchor boʻlgan, lager azoblarini tortgan ijodkordir. Oʻz talanti va ona xalqiga sadoqat, katta ishonch adibni soʻz sanʼatkori darajasiga yetkazgan.

Ijodkor tarjima ishlari bilan ham faol shugʻullangan. Jumladan, B. Polevoy, A. Musatov, O. Gonchar kabi yozuvchilar asarlarini oʻzbek tiliga tarjima qilgan. Ayni chogʻda adibning koʻpgina hikoyalari qardosh va horijiy tillarga agʻdarildi.

Said Ahmad oʻzining quvnoq, orombahsh hikoyalari va salmoqli romanlari bilan oʻzbek prozasi rivojlanishiga katta hissa qoʻshib kelayotgan ilgʻor yozuvchidir. U Oʻzbekiston xalq yozuvchisi, Hamza mukofoti sovrindori hamdir.

Topshiriq :

1-Matnni lugʻatyordamida rus tiliga tarjima qiling

2-Matnda uchragan sonlarni toping, son turini aniqlang

OʻLMAS UMARBEKOV

Poytaxtning Yakkasaroy tumanidagi Abdulla Qahhor mahallasi yuzlab oddiy mahallalardan biri — hovli joylar va yigirmadan ziyod koʻp qavatli uylardan iborat, besh mingga yaqin aholisining ham el qatori tashvishu xursandchiliklari bor. Ular ertalab ishga, kechqurun esa uylariga

oshiqadilar. Yo'li mahallaning Xumo tor ko'chasidan o'tadiganlar «**Bu uyda 1959–1994 yillar O'zbekiston xalq yozuvchisi O'lmas Umarbekov yashab, ijod qilgan**» lavhasini ko'rib, nurli xotiralarini yodga olsalar ajab emas. Tengdoshlari uning go'zal suhbatlarini, yoshlar esa maslahatlarini, shu bilan birga amaliy yordamini esga olishadi.

Hozir bu xonadonning chirog'ini yozuvchining rafiqasi yoqib o'tiribdi. Filologiya fanlari nomzodi, dosent, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiyi Zuhra Umarbekova bilan suhbatimiz ularning tanishuvi mavzusidan boshlandi.

Yaqindagina «O'lmas Umarbekov zamondoshlari xotirasida» nomli to'plam nashrdan chiqdi. Kitobni O'lmas Umarbekovning qizi Umida chop ettirdi, yozuvchi Omon Muxtor materiallarni to'plash va saralashda xolis xizmat qildi.

O'lmas «O'zbekfilm» kinostudiyasi rahbari edi. Bir kuni oshxonamizdagi kran quvuri yorilib, suv toshib ketdi. Bosim juda kuchli edi. U kishiga qo'ng'iroq qildim, darhol ishxonalaridan odam jo'natdilar. Ustalar qaytib borgach, xodimlar ulami o'rtaga olishibdi.

...O'lmas Umarbekov Moskvada davolanayotgan kezlarda qiziga yozgan maktublaridan birida unga nasihat-maslahatlarini aytadi. Jumladan, «bu yog'i oying bilan bor imkoniyatga qarab yasha. sendan sharoiti yaxshi hech kimga rashk bilan qarama, bironvi ko'rolmaslik hech qachon odamga baxt keltirmagan» deb yozar ekan, oxirida qo'shib qo'yadi:

Nutq tugashi bilan boshlangan telefon qo'ng'iroqlari hali ham davom etyapti. Qarindosh-urug', tanish-bilishlar uni tabriklayapti. O'lmas Umarbekovning umr yo'li, insoniylik fazilatlarini yana qayta-qayta tilga olinyapti.

Bittagina farzandidan o'zini unutmashligini xokisorlik bilan so'ragan bu buyuk insonga xalqning ehtiromi sababini qisqagina izohlash mumkinmi? To'g'ri, adib el ko'nglidan joy olgan asarlar yaratdi, turli vazifalarda ishlaganda el koriga yaradi. El ehtiromining yana bir boshqa sababi ham bor. Buni yana «Qizimga maktublar»dagi mana bu oddiygina so'zlardan ilg'ab olish qiyin emas

Topshiriq :

1-Matn ni rus tiliga tarjima qiling

2-Notanish so'zlar lug'atini tuzing

TOXIR MALIK

O'zbek fantastic adabiyoti taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatayotgan ijodkorlardan biri Tohir Malik 1946 yil 27 dekabrda ziyoli oilasida tug'ilgan. O'rta maktabni tugatgach, kunduzlari qurilishda ishlaydi, kechqurunlari ToshDUning jurnalistika fakultetida o'qiydi. U maktablarda o'qituvchilik qildi, nashriyotlarda ro'znoma va oynomalarda radiyo – televidiniya qo'mitasida, O'ZBEKISTON yozuvchilar qo'mitasida ishladi. Yozuvchi ko'pincha fantastik, ilmiy fantastik, sarguzasht yo'nalishida yozadi.

Yozuvchining "Alvido bolalik" asaridagi asosiy mavzu hech kim jinoyatchi bolib tug'ilmaydi, bolani atrof – muhit, jamiyatdagi turli illatlar jinoyatchiga aylantiradi. Bu haqda adibning o'zi shunday deydi: Men o'amirlar va yoshlarning jinoyat ko'chasiga kirib qolayotganligiga befarq qarab turolmayman. Bolalar axloq tuzatish kaloniyalarga har borganimda yuragim eziladi.

Ozod, erkinyashab, o'qib hunar o'rganadigan bolalar bu yerga qanday tushib qoladi? Nahot jinoyat olami ularga shunday jozibali ko'rinsa? men jinoyat olamini "shaytanat" deb atab "ehtiyot bo'ling, jigarlarim bu ko'chaga yaqin yo'lamang boshi berk ko'chaning adog'ida faqatgina azobli, horli o'lim topasiz." Demoq niyatida yozdim. Yozganlarimni ogohlantirish deb qabul qilishingizni istardim.

Asarlari: "Xikmat afandining o'imi" (1971 birinchi asari) "Zaharli g'ubor" "Somon yo'li elchilari" "Chorrahada qolgan odamlar" "So'ngi o'q" "Charhpalak" "Murdalar gapirmaydi" "Falak" vaboshqalar.

Topshiriq :

1-Matnga savol tuzing, savollarga javob bering

NODIRA

(1792 - 1842)

Taniqli shoira, davlat arbobi. Asl ismi Mohlaroyim, Andijon hokimi Rahmonqulibiy oilasida dunyoga keldi. 1808 yilda o'sha paytda Marg'ilon

hokimi bo'lgan Amir Umarxonga turmushga chiqadi. 1810 yilda akasi Olimxon o'rniga taxtga chiqqan Umarxon bilan Qo'qonga keladi. 1822 yil Umarxonning fojeali vafotidan so'ng o'g'li Ma'dalixon bilan birga Qo'qon xonligini boshqaradi. Madrasa, masjid, karvonsaroylar qurdiradi. Ilm ahliga rahnamolik, faqirlarga homiylik qiladi. 1842 yil Buxoro xoni Amir Nasrulloh tomonidan qatl etiladi.

Nodiraning she'riy merosi bir nechta devonlarining qo'lyozmalari (inv. № 7768, 660, 2090) orqali yetib kelgan. O'zbekcha she'rlarida Komila va forsiyda Maknuna taxalluslari bilan ham asarlar yaratgan. Uning 10.000 misraga yaqin asari yetib kelgan. G'azal, muxammas, ruboiy, fard kabi ko'plab janrlardan faol foydalangan. She'rlarida Navoiy, Fuzuliy, Bedil an'analarini davom ettirgan. Nodira g'azallarida firoq, dard iztiroblari samimiy bayon qilingan.

Nodira hayoti va ijodini o'rganish o'z davridanoq boshlangan. Hakimxon To'raning "Muntaxabut-tavorix", Avazmuhammad Attorning "Tuhvatut-tavorix", Ishoqxon To'raning "Tarixi Farg'ona", Mushrifning "Ansobus-salotin va tavorixi xavoqin" kabi tarixiy asarlarda, Uvaysiyning "Voqeoti Muhammadalixon", Nodir-Uzlatning "Haft gulshan" nomli dostonlarida Nodiraning iqtidori, faoliyati borasida qimmatli ma'lumotlar bayon etilgan. Ijodi A.Qayumov, T.Jalolov, X.Razzoqov, M.Qodirova kabi olimlar tomonidan o'rganilgan.

Andijonda shoir nomiga shahar markazidagi shohko'chalardan biri, kinoteatr va boshqa madaniy muassasalar qo'yilgan.

Topshiriq :

1-Matnni mazmunini ochib beruvchi savollar tuzing, savollar asosida gapirib bering

2-Matnda uchragan sonlarni turini ayting

ERKIN VOHIDOV

Taniqli o'zbek shoiri va jamoat arbobi. 1936 yilning 28 dekabrda Oltiariq tumanida o'qituvchi oilasida tug'ilgan. To'qqiz yoshida otasidan, bir yildan so'ng onasidan ajralgan. Toshkentlik tog'asi Karimboy Sohoboev qo'lida tarbiyalangan. ToshDU (hozirgi O'zMU)ning o'zbek filologiyasi fakultetida (1955-1960) tahsil olgan. So'ng turli nashriyot va

gazeta-jurnallarda ishladi. Respublikamiz yoshlarining birinchi jurnali «Yoshlik»ning asoschisi (1982).U I va II chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputati. Hozir qo'mita raisi vazifasida ishlamoqda. Keyingi yillarda O'zbekiston Oliy majlisining qo'mita raisi vazifasida ishlamoqda. Uning birinchi kitobi «Tong nafasi» 1961 yilda chop etildi. Shundan so'ng uning «Qo'shiqlarim sizga' (1962), «Yurak va aql» (1963), «Mening yulduzim» (1964), «Nido' (1964), «Lirika' (1965), «Palatkada yozilgan doston» (1966), «Yoshlik devoni»(1969), «Charog'bon» (1970), «Quyosh maskani» (1972), «Tirik sayyoralar» (1978), «Sharqiy qirg'oq» (1981), «Kelajakka maktub' (1983), «Muhabbat» (1984), «Hozirgi yoshlar» (1986), «Iztirob' (1991), «Yaxshidir achchiq haqiqat» (1992) kabi she'riy to'plamlari nashr qilindi. «Nido' (1964), «Palatkada yozilgan doston» (1966), «Charog'bon» (1970), «Ruhlar isyoni» (1980), «Ko'hinur» (1982) kabi dostonlar yozgan.

«Oltin devor», «Istambul fojeasi», «Ikkinchi tumor» kabi dramalar muallifi. S. Esenin, A. Tvardovskiy, M. Iqbol, G. Emin she'rlarini, Gyotening «Faust», R. Hamzatovning «Dog'istonim» asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. I 999 yilda O'zbekiston Qahramoni unvoniga sazovor bo'ldi.

Erkin Vohidov menga oq yo'l tilagan inson va ustoz sifatida azizdir.Uztozning oq yo'li bilan 1976 yilda o'sha davrning eng obro'li jurnali «Guliston»da ilk she'riy turkumum bosilgan edi.

Topshiriq :

1-Matnda uchra gan notanish so'zlar lug'atini tuzing, shu so'zlar asosida gap tuzing

\
ABDULLA ORIPOV
(1941-yilda tig'ilgan)

Buyuk o'zbek shoiri.O'zbekiston Qahramoni va O'zbekiston xalq shoiri. Shoir o'z hayot yo'lini shunday tasvirlaydi:Mening tug'ililib o'sgan, bolaligim o'tgan joylar Qarshi (qadimgi Nasaf) shahridan besh-o'n chaqirim shimolroq tomondagi Qo'ng'irtov etaklaridir: Bobolarimizning

aytishicha, qaysi bir zamonlarda Navoiy bobomiz Samarqanddan Buxoroga ana shu Qo'ng'irtovni oshib o'tgan emishlar. Albatta, bu gaplar xalqning xotirasida o'qtin-o'qtin chaqnab turadigan xayol uchqunlari bo'lishi mumkin.

O'sha Qo'ng'irtovda bizning bolalik yillarimiz o'tgan. Bahor kelganda havoni o't-o'lanning yoqimli xushbo'y hidi qoplar, sharros yomg'ir quyganda biz tog' cho'qqisi unguridagi kichik-kichik g'orlarga bekinib olardik. O'sha yuksaklikdan shimol tarafdagi yam-yashil bepoyon kengliklarni tomosha qilar edim, to'yib-to'yib nafas olar edim. Ayniqsa, bu joylarda janub kechalari, yulduzli osmon nihoyatda go'zal bo'lar edi. Tim qora osmonda qo'l cho'zsang yetgudek ulkan-ulkan novvotrang yulduzlar charaq lab turadi. Hayotimda bunday go'zal manzaralarni keyin uchrata olmadim.

Topshiriq :

1-Matn ni o'qib, gapirib bering

MUSO TOSHMUHAMMAD O'G'LI OYBEK

Oybek — 1905-yilda 10-yanvarda Toshkentning Govkush mahallasida tug'ilgan Muso Toshmuhammadning adabiy taxallusi. “Bolalik xotiralarim” (1963) asarida bolaligini: ota-onasi, qarindoshlari, 20-asr boshidagi Toshkent va uning atrofidagi qishloq, kentlarni, ilk sabog'i, saboqdoshlarini tasvirlaydi.

1922-yildan unring oxirigacha Oybek she'r, dostonlar yozdi. “Onamning mozorida” (1924), “Ovchiga” (1924), “Yoshlik xotiralaridan” (1925), “Gunafsha” (1927) singari she'rlarida yosh shoir ruhiyatining holatlari tasvirlanadi. “Fanga yurish” (1930), “Fikr” (1931), “Tansiq” (1935), “Dala yo'lida” (1935), “Qishloq qizi student” (1933), “Brigadir ayol” (1935) singari she'rlarida ijtimoiy hayot aks ettiriladi. Shoir “Dilbar – davr qizi” (1932), “O'ch” (1932), “Navoiy” (1947). “Qizlar” (1947). “Davrim jarohati” (1965) singari poemalar yozgan.

Oybek poemalarining qahramonlari “Qutlug' qon” (1940), “Navoiy” (1944), “Oltin vodiyan shabadalar” (1949) singari romanlariga ham

o'tgan. "Quyosh qoraymas" (1954), "Ulug' yo'l" (1963), "Nur qidirib" (1955), "Bola Alisher" (1967) – Oybekning muhim asarlaridan. U nosir sifatida xalqning boy, murakkab tarixini aks ettirdi.

Oybek 1943-yilda O'zbekiston Fanlar Akademiyasiga haqiqiy a'zo bo'ldi. Olim "Adabiyot qoidalari haqida" (1926), "Abdulla Qodiriyning ijodiy yo'li" (1936), "Tanqidchilikda savodsizlik va ur-yiqitchilikka qarshi o't ochaylik" (1939), "Muqimiy asarlarida sotsial tiplar" (1939) singari tadqiqotlarni, Navoiy haqidagi maqolalarni yozdi.

Topshiriq :

1-Matndagi yangi so'zlar lug'atini tuzing

2-Matnni lug'at yordamida rus tiliga tarjima qiling

G'AFUR G'ULOM

O'zbek adabiyotining mashhur namoyandalaridan biri, Ittifoq Davlat va Lenin mukofotlarining laureati G'afur G'ulom 1903 yil 1 mayda Toshkent shahrining Qo'rgontegi mahallasida mehnatkash oilasida tug'ildi. To'qqiz yoshida otasidan yetim qolgan G'afur avval eski maktabda, so'ngra rus-tuzem maktabida ta'lim oldi.

U Oktyabr to'ntarishidan keyingi yillarda muallimlar tayyorlov kursini bitirib, yangi usuldagi maktablarda o'qituvchilik qildi. 1923 yildan bolalar uyida mudir va tarbiyachi, so'ng «Kambag'al dehqon», «Qizil O'zbekiston», «Sharq haqiqati» ro'znoma muharririyatlarida ishladi. Ro'znoma uning uchun dorilfunun rolini o'ynadi, xalq hayotini o'rganish, unda faol aralashish yo'licda muhim vosita bo'ldi.

Uning mamlakatni himoya qilish haqidagi tantanavor qasidalari, o'tmish sarqitlarini qoralovchi hajviy she'rlari va xalqning kundalik ijodiy mehnatini olqishlovchi asarlaridan jamlangan «Dinamo» va «Tirik qo'shiqlar» nomli dastlabki she'riy to'plamlari 1931-1932 yillarda chop etildi.

Shoir liro-epik janrlarida (1930-1935) «Ko'kan» poemasini, «To'y», «Ikki vasiqa» balladalarini yaratdi. Biroq, shoirning bir qator she'rlarida, xususan, biz ko'p yillar kollektivlashtirish mavzuidagi eng yirik liroepik

janrdagi asar deb maqtab kelgan «Ko'kan» poemasi hozirgi kun talablari darajasida emasligi sezilib qoldi. Jumladan, poemada boshdan oyoq maqtalغان kollektivlashtirish siyosati ma'lum ijobiy natijalari qatorida cheksiz zulm — fojialarga ham sabab bo'lganligi bor bo'yicha realistlik ifodalan magan edi.

Mustaqillik davri o'tmish tarixiga yaqindan haqiqat ko'zglasida boqishni taqozo etgach, bunday nuqsonlar ma'lum bo'lib qoldi. Xuddi shunday hol uni partiya, ona Vatan, V.I.Lenin, Oktyabr haqidagi she'rlarida ham seziladi. Shu tufayli shoir ijodini zarracha kamsitmaganda holda unga tanqidiy yondashishni taqozo etadi.

30-yillar G'afur G'ulom hikoya, ocherk, fel'etonlar qatori «Netay», «Yodgor», «Tirilgan murda» kabi qissalarini ham o'z kitobxoniga taqdim etdi.

Ulug' Vatan urushi yillarida shoir o'z ijodining butun haroratini fashist bosqinchilariga qarshi kurashayotgan xalqqa, uning muqarrar g'alabasiga bag'ishladi. U «Sen yetim emassan», «Oltin medal», «Kuzatish», «Vaqt», «Sog'inish» kabi she'rlarini ijod qildi, publitsistik ocherk va maqolalar yozib, xalqni jang va mehnat g'alabasiga otlantirdi. So'nggi yillarda G'afur G'ulomning 20 ga yaqin she'riy to'plamlari chop etildi. Ayniqsa, shoirning «Kuzatish», «Sen yetim emassan», «Qish», «Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak», «Vaqt», «Onalar» singari asarlarida dunyo xalqlarini fashizm vabosidan xalos etgan jangchilarimning mardona kurashlari tasvirlangan.

G'afur G'ulom urush yillarida yozilgan she'rlaridan jamlangan «Sharqdan kelayotirman» to'plami uchun 1946 yili Ittifoq Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi. Adibga vafotidan so'ng «Lenin va Sharq» mavzusidagi asarlari uchun Lenin mukofoti (1973) berildi. G'afur G'ulom o'z davrida «Hurmat belgisi» (1944), uch marta «Mehnat Qizil Bayroq» ordeni (1937, 1951, 1961), Lenin ordeni (1949), medallar va faxriy yorliqlar bilan taqdirlangan. U O'zbekiston Fanlar akademiyasining a'zosi (1943) edi. 60 yillik yubileyi munosabati bilan unga O'zbekiston xalq shoiri faxriy unvoni berildi. Shoirning ko'pgina asarlari qardosh xalqlar, Osiyo va Yevropa tillariga tarjima qilingan.

Topshiriq :

1-Matni o'qib gapirib bering, Notanish so'zlar lug'atini tuzing

MUHAMMAD YUSUF

1954 yil 26 aprelda Andijonning Marhamat tumanida tug'ildi. Toshkentdagi rus tili va adabiyoti institutini tamomladi (1978). Respublika kitobsevarlar jamiyatida (1978-1980), "Toshkent oqshomi" gazetasida (1980-1986), Adabiyot va san'at nashriyotida, "O'zbekiston ovozi" gazetasida (1986-1993) ishladi.

Umrining oxirgi 4-5 yilida O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining kotibi bo'ldi. U "Tanish teraklar" (1985), "Bulbulga bir gapim bor" (1987), "Iltijo" (1988), "Uyqudagi qiz" (1989), "Halima enam allalari" (1989), "Ishq kemasi" (1990), "Ko'nglimdagi yor" (1991), "Bevafo ko'p ekan" (1991), "Erka kiyik" (1992), "Yolg'onchi yor" (1994), "Osmonimga olib ketaman" (1998) to'plamlarining muallifi. 1998 yilda unga "O'zbekiston xalq shoiri" unvoni berildi. U II chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga deputat qilib saylandi. 2001 yilda "Saylanma" asarlari chop etildi.

M. Yusuf she'rning qo'shiqqa aylanishi, yuksak parvoz qilishini ko'rsata oldi. Shoir she'rlaridagi har bir so'zda qanoat, parvozga shaylik bor.

Ulug'vor muhabbat, o'talmagan burch, qadrlanmagan sevgi armoni, Yurtga o'g'illik sadoqati – shoir she'rlari asosini belgilaydi.

M. Yusuf 2001 yil 29 iyulda vafot etdi, tug'ilgan qishlog'idagi qabristonga dafn etildi.

Topshiriq :

1-Matnda uchragan yangi va qiyin so'zlar lug'atini tuzing

2-Matn mazmunini yorituvchi savollar tuzing

O'ZBEK SAN'ATI USTALARI

Tamaraxonim.

Raq - san'at turi. Bunda raqqos(a)ning garmonik tana harakati va

holatlari, plastik ifodaviyligi va yuz imo ishoralari, ritm, temp, kompozitsiya orqali obraz yaratish raqsning asosiy vositasidir. Dastlab raqs qo'shiq va so'z bilan bog'liq bo'lib keyinchalik u mustaqil san'at turiga aylangan.

Amir Temur davrida olov atrofidagi o'yinlar, Anaxita va Rustam timsollariga bag'ishlangan o'yinlar, maqom raqslari "Arg'ushtak" kabi raqslar shular jumlasidandir. "Munojat", "Tanovar", "Lazgi" raqslari ham shu davrda malakali ijrochilar dasturidan mustahkam o'rin olgan.

O'zbek raqsini dunyoga tanitish yo'lida Hamdamxon Xaydaraliyev, Yusufjon qiziq Shakarjonov, Usta Olim Komilov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboeva, Gavhar Rahimova, Roziya Karimova, Qunduz Mirkarimova, Karim Rahimov, Qodir Mo'minov, Ma'mura Ergasheva, Yulduz Ismatova, Shokir Ahmedov, Gavhar Matyoqubova, Rushana Sultonova, Dilafroz Jabborova, Qizlarxon Do'stmuhammedova, Malika Ahmedova kabi raqs ustalarining xizmatlari katta.

1997 yil 8 yanvarda O'zbekiston Respublikasi prezidenti Islom Karimovning "O'zbekistonda milliy raqs va xoreografiya san'atini rivojlantirish to'g'risida"gi farmoni va mazkur farmonni bajarish yuzasidan Vazirlar Mahkamasining o'sha yili 25 fevralda 101 - qarori chiqdi. Shu asosda M. Turg'unboeva nomidagi "O'zbekraqs" ijodiy birlashmasi tashkil topdi, birlashma qoshida maxsus jamg'arma tuzildi.

O'zbek xonandasi, raqqosasi va baletmeysteri Tamaraxonim 1906 yilda Farg'ona viloyatining Gorchakova qishlog'ida tug'ilgan. Yoshligidan san'atga qiziqqan Tamaraxonim Yusufjon qiziq Shakarjonovdan o'zbek xalq raqs sirlarini va qo'shiqlarini o'rganib, sahna faoliyatini 1919 yilda Hamza tashkil etgan drama truppasida boshladi.

1921-1922 yillarda Toshkent Davlat teatrida ishladi, 1923-1924 yillarda Lunacharskiy nomidagi Moskva teatr texnikumida o'qidi.

1924 yilda M. Qoriyoqubov rahbarligidagi kontsert truppasida ishlab, shu trupa bilan 1925 yilda Parijda bo'lgan Jahon dekarativ san'ati ko'rgazmasida qatnashdi.

Tamaraxonimning «Lolaxon», «Qorasoch», «Bilakuzuk», «Oyijon», «Fabrikaning yo'lida», «Qizlar, shitobingiz nima», «Gulyor», qo'shiqlari, «Dilxiroj» «Qarinavo»; «Usmoniya» singari raqslari xalqchilligi,

ommabopligi, o'sha davr kishilari ruhiyatini ifoda etishi jihatidan hammaga manzur bo'ldi.

Zamonasining yetuk san'atkorlari bo'lgan K. Stanislavskiy, V. Nemirovich-Danchenko, V. Mayerxold, A. Nejdanova, Hamzalardan ashulachilik va aktyorlik mahoratini o'rganishi, S. Raxmaninov bilan ijodiy hamkorligi, A. Lunacharskiy bilan bo'lgan ijodiy suhbatlari, N. Hikmat, S. yesenin va V. Mayakovskiy bilan qilgan uchrashuvlari, Moskva teatrlaridagi chiqishlari uning san'atda o'z o'rnini topishida muhim ahamiyat kasb etdi.

1925—1929 yillarda Qo'qon, Andijon, Samarqand teatrlarida G'. Zafariyning «Halima»sida Halima, Xurshidning «Farhod va Shirin»ida Shirin, U. Hojibekovning «Arshin mol olan»ida Gulchehra rollarini ham ijro etdi. 1929—1934 yillarda Samarqand O'zbek Davlat musiqali teatrida, 1934—1935 yillarda Xorazm teatrida ishladi.

Shu yillarda uning repertuari Farg'ona vodiysi, Samarqand, Xorazm xalq qo'shiq va raqslari, yangi laparlar: «Yallamayorim» (marg'iloncha), «Omonyor» (andijoncha), «Buxorocha raqs», «Mavrigi»; «Lazgi» va boshqa raqs bilan boyidi. 1936—1941 yillarda O'zbek Davlat filarmoniyasida, O'zbek Davlat musiqali teatrida raqqosa va baletmeyster sifatida faoliyat ko'rsatib, ustoz Usta Olim Komilov bilan o'zbek xalq raqslarini sahnalashtirib, yangi zamonaviy raqs yaratdi.

«Bahor», «Qizil va oq», «Atirgullar urushi» kabi raqs janrlarini ijod qildi va o'zbek sahnasida o'zi qo'ygan birinchi balet — «Gulandom»da bosh rolni ijro etdi.

1935 yilda o'zbek san'atkorlari bilan Angliya sahnasida ijro etgan qo'shiq va nozik raqslariga maftun bo'lgan ingliz tomoshabinlari uni «Sharq marvaridi» deb atadilar.

Tamaraxonim 1941 —1969 yillarda. O'zbek Davlat filarmoniyasining musiqa dastasida badiiy rahbar, baletmeyster va aktrisa sifatida faoliyat ko'r-satdi. Ikkinchi Jahon urushi yillarida Kiev, Ukraina frontlarida kontsert brigadalari bilan madaniy xizmat qildi va bu xizmatlari uchun kapitan harbiy unvoni bilan taqdirlandi.

San'atkorning qo'shiqlari va laparlari yoqimlilik, xalqchilligi bilan, raqsleri esa nafis va sho'xligi bilan ibratlidir. Uning qo'shiqlarida xalqlar

do'stligi, ozodligi, tinchligi mavzulari muhim o'rin tutadi. Bu jihatdan u ijro etgan «O'zbekcha vals», «Parizodoy» (qirg'izcha), «Jo'ra jonim» (tojikcha) «Kim kelyapti?» (armancha), «Garmonist» (tatarcha) «Qora to'rg'ay» (qozoqcha), «Qoshing qarosy» (uyg'urcha) «Nilufar» (hindcha), «Binti shalobiya» (arabcha), «Qaydasan qo'zichog'im» (indonezcha) qo'shiqlari katta e'tiborga sazovordir.

U ustoz sifatida ko'plab yetuk san'atkorlarni tarbiyalab, voyaga yetkazdi. M. Turg'unboeva, G. Izmaylova, G. Rahimova, R. Karimova, G. Mavaeva, H. Komilova, I. Oqilov va boshqalar uning munosib shogirdlaridir.

O'zbek san'atining dovrug'ini nafaqat ona yurtimizda, balki chet ellarda ham katta muvaffaqiyat bilan namoyish etgan Tamaraxonim Frantsiya, Norvegiya, Olmoniya, Italiya, Vengriya, Chexoslavakiya, Polsha, Avstriya, Albaniya, Turkiya, Eron, Afg'oniston, Hindiston, Indoneziya, Xitoy, Mo'g'iliston, Pokiston va boshqa mamlakatlarda gastrol safarlarda bo'ldi. Uning serhirra va sermazmun ijodi Davlat mukofoti (1941), «O'zbekiston xalq artisti», «Xalq artisti» unvonlari bilan taqdirlanai.

O'zbek madaniyatining ulkan arbobi Tamaraxonim 1991 yilda Toshkent shahrida vafot etdi.

Dilbar qo'shiq va laparlari, ularning mazmuniga mos yoqimli raqslari bilan xalqimizni maftun etgan, birinchilar qatori o'zbek qo'shiq va raqs san'atining asl namunalarini chet ellarda namoyish etib. «Sharq marvaridi» deb nom olgan mashhur san'at ustasi Tamaraxonim o'zbek madaniyati tarixida o'chmas iz qoldirdi. Italiyada bo'lib o'tgan kuchli operachilar musobaqasida o'ttizlik guruhiga tushib, laureat bo'ldi.

Ijro etgan raqslari:

«Lolaxon»

«Qorasoch»

«Bilakuzluk»

«Oyijon»

«Fabrikaning yo'lida»

«Qizlar, s hitobingiz nima»

«Gulyor»

«Dilxiroj»

«Qarinavo»

«Usmoniya»

Ijro etgan rollari

G'.Zafariyning «Halima»sida Halima rollari

Xurshidning «Farhod va Shirin»ida Shirin rollari

U. Hojibekovning «Arshin mol olan»ida Gulchehra rollari

Ijro etgan qo'shiqlari

«O'zbekcha vals»

«Parizodoy» (qirg'izcha)

«Jo'ra jonim» (tojikcha)

«Kim kelyapti?» (armancha)

«Garmonist» (tatarcha)

«Qora to'rg'ay» (qozoqcha)

«Qoshing qarosy» (uyg'urcha)

«Nilufar» (hindcha)

«Binti shalobiya» (arabcha)

«Qaydasan qo'zichog'im» (hidonezcha) qo'shiqlari

Unvonlari

Davlat mukofoti (1941),

«O'zbekiston xalq artisti» unvonlari bilan taqdirlan

Tamaraxonimdek millat raqsini dunyoga tanitishda munosib hissa qo'shgan san'at darg'asining ham bu sohaga qadam qo'yishida juda katta qarshiliklar bo'lgan. Uni yengiltalikda ayblashgan, toshbo'ronlardan qutilib qolgan. Raqqosaligini haqidagi xabar ona qishlog'iga yetib borgach, otasi vahshiylarcha o'ldirildi. Onasi esa farzandlari bilan yolg'iz qoldi. Shunda ham iste'dodli raqqosa o'zida kuch topib taslim bo'lmaslikka qaror qildi. Toshkentda uni ko'rish uchun minglab odamlar konsert uyushtirilayotgan maydonga tomoshaga chiqshardi. Konsertlardan so'ng parda ortiga o'tib uni olqishlardilar. Bu esa raqs Tamaraxonimning hayotiga aylanib qolganligining nishonasi edi. Ana shunday konsertlardan so'ng pardoz xonasiga notanish yigit bir dasta gul bilan kirib keldi. U Muhiddin Qori Yoqubov edi. Aynan shu inson Tamaraning do'sti, hamkasbi va birinchi muhabbati bo'ldi... Ular turmush qurdilar. Bitta qiz

dunyoga keldi va hayot iziga tushdi. Bugun esa tarix Tamaraxonim bilan faxrlanadi.

1896-yilning 14-yanvarida Qo`qon shahrida tavallud topgan.

SSRI Xalq artisti (1967-yil).

1925-yildan Qo`qon professional sahnasida rollar ijro eta boshlagan.

Andijon va Farg`ona teatrlarida ijod qilgan. 1934-39-yillari O`zbek musiqali teatrida, 1941-1973-yillari Muqimiy nomidagi O`zbek musiqali teatrida faoliyat ko`rsatgan.

Ko`plab o`z farzandlarining baxti uchun kurashgan onalar obrazlarini yaratgan; Aysara, Kimyo, Ona ("Gulsora", Nurxon", "Ravshan va Zulhumor"). Shuningdek Shirin, Yosuman (Farhod va Shirin), Maysara ("Maysaraning ishi") kabi rollarni ijro etgan. 1931-yildan kinoda rollar ijro eta boshlagan 1959-yil "Farzandlar olisroqqa boradi", 1962-yil "Sen etim emassan" va boshqa rollari tomoshabinlar mehrini qozongan.

5-6-chaqiriq O`zSSR Oliy Soveti Deputati.

Ko`plab Davlat mukofotlari, orden va medallar bilan taqdirlanga.

Lutfixonim Sarimsoqova haqida shingil hikoyalarni onamdan - kompozitor Xafiyaxon Muhamedovadan eshitib, u kishi bilan uchrashishni, suhbatini olishni orzu qilib yurardim. Toshkentning "Oq machit" dahasidagi mahallalarga elektr quvvati yetmay qolar, ko`p qatori bizning bolaxonali xonadonimizda ham lampa chiroq yoqilar, yarim tunga qadar sandal atrofida o`tirib hikoya, latifa, musiqa eshitardik. G`ira-shira yoritilgan, lekin iliqqina xonaning bir chetida savlat to`kib turgan qop-qora pianino ning oq va qora klavishlariga onamizning nozik barmoqlari tekkani da atrof yorishib ketgandek bo`lardi. Yoqimli kuy, lirik taronalar zulmatri yengib, har birimizga xushkayfiyat bag`ishlardi.

"Omon yor", "Qilpillama, yor", "Barno yigit", "Fabrikaning yo`lida ro`molcha topib oldim" kabi qo`shiqlarni xirgoyi qilib, ularning ohangidan zavq olib bizni qorong`i tunda ovutayotgan onamiz: "Mana bu qo`shiqni Lutfixon ayadan yozib olganmiz. Bu mashhur xonanda, usta sana`tkorni Marg`il ondan izlab topganmiz!" - derdi.

Topshiriq :

1-Matni o`qing, unda uchragan olmoshlarni toping, ular asosida gaplar tuzing

Abror Hidoyatov

Buyuk o'zbek aktyori Abror Hidoyatov 1900 yilda Toshkentda tug'ilgan. Yoshligidan san'atga mehr qo'ygan Abror Hidoyatov eski maktabda savodini chiqazdi. 1918 yilda Mannon Uyg'ur O'zbek Davlat drama teatrini tashkil qiladi va unga Obid Jalilov, Sayfi qori Alimov, Abror Hidoyatov kabi yoshlarni jalb etadi.

G'. Zafariyning «Halima»sidagi Ne'mat, U.Hojibekovning «Arshin mololon»idagi Asker,Shillerning «Makr va muhabbat»idagi Vurmlar A. Hidoyatovning teatr sahnasida yaratgan ilk obrazlari bo'ldi.

O'ziga ham, o'zgalarga ham talabchan bo'lgan Abror Hidoyatov bu yaratgan obrazlaridan har doim ham ko'ngli to'la-vermas, haqiqiy aktyor bo'lish uchun mukammal bilim va katta malaka zarurligini chuqur his etib, Moskvadagi o'zbek teatr studiyasiga o'qishga kirib, V. Kansel, R. Simonov, I. Tolchanov, O. Basov, M. Sverdlin kabi san'atkorlardan ta'lim olib, realistik sahna san'ati sirlari haqida chuqur nazariy va amaliy bilimga ega bo'ladi.

O'zbek teatr studiyasida sahnalashtirilgan Molyerning «Xaxis»ida Gorgagon, Gogolning «Revizor»ida Skvoznik Dmuxanovskiy obrazlarini yaratadi. Umuman, Moskva studiyasida o'qish A. Hidoyatovning kelgusidagi ijodiy parvozida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

1927—1935 yillarda A. Hidoyatov Q.Yashinning «YOndiramiz»idagi Sarimsoq, U. Ismoilovning «Rustam» idagi Rustam, Xurshidning «Farhod va Shirin»idagi Shopur, Lope de Veganing «Qo'zibuloq qishlog'i»dagi Frandosa kabi rollarni ijro etib, ijod pillapoyasi sari asta-sekin ko'tarila bordi va yetuk obrazlarini yaratish yo'lida jiddiy tayyorgarlik ko'rdi.

1935 yilda Hamza teatrida V.Shekspirning «Hamlet» tragediyasining premyerasi bo'ldi. Rejissyor Mannon Uyg'ur sahnalashtirgan bu asarda aktyor Hamlet rolini ijro etdiki, bu spektakl xalq orasida katta muvaffaqiyat qozondi. «Hamlet» spektakli, ayniqsa, Hamlet obrazi o'zbek teatr san'ati tarixida katta voqea bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmas.

Asar tomoshabinlarning muhabbatini qozonganligi sababli, ketma-ket 21 kun ko'rsatildi. Teatr jamoatchiligi, chet ellik san'at muxlislari spektaklga va Hamlet obraziga qoyil qoldilar.Chindan ham A. Hidoyatov yaratgan Hamlet obrazi nafaqat o'zbek teatri sahnasida, balki jahon teatr

san'atida ham erishilgan katta yutuq bo'ldi.

1939 yilda rejissyor Ya. Bobojonov Hamzaning «Boy ila xizmatchi» asarini sahnalashtirdi va asardagi G'ofur roli A. Hidoyatovga topshirildi. G'ofur Hamletdan keyin aktyor yaratgan eng yorqin xarakterli obraz bo'lib qoldi. San'atkorning Hamza teatri sahnasida yaratgan eng yorqin obrazlaridan yana biri va aktyorga katta shuhrat keltirgani, 1941 yilda N. V. Ladigin va M. Uyg'ur sahnalashtirgan V. Shekspirning «Otello» tragediyasidagi Otello obrazi bo'ldi.

Vatanimiz va chet ellardan kelgan san'at muxlislari spektaklga aktyorlar talantiga, ularning ijrosiga yuksak baho berdilar. 1945 yilda ingliz Parlamenti delegatsiyasi teatrning taassurotlar daftariga shunday deb yozgan edi: «Biz pyesaning bunday yaxshi qo'yilganini hech qachon, hech qayerda, hatto Londonda ham ko'rmagan edik.

Biz, ayniqsa, Otello bilan Dezdemona rolini o'ynagan artistlar mahoratiga qoyil qoldik». Otello rolini aktyor 18 yil davomida 500 marta o'ynadi. Umuman, V. Shekspir ijodini o'zbek xalqiga manzur qilishda Abror Hidoyatovning xizmatlari benihoyat katta bo'ldi. Keyinchalik Hamza nomidagi O'zbek Davlat akademik drama teatrida va A. Hidoyatov nomli drama teatrida Shekspirning «Otello» tragediyasi sahnalashtirildi.

Ushbu spektakllarni kamsitmagan holda aytish kerakki, ulardagi Otello bilan A. Hidoyatov Otellosini tenglashtirib bo'lmaydi. Chunki A. Hidoyatov Otellosi betakror san'atning o'lmas namunasidir.

A. Hidoyatovning o'zbek tarixiy dramalarida yaratgan. H. Olimjonning «Muqanna»sidagi (1943) Muqanna, M. Shayxzodaning «Jaloliddin»nidagi (1943) Temur Malik, Uyg'un va Izzat Sultonning «Alisher Navoiy»sidagi (1945) Alisher Navoiy obrazlari ham katta e'tiborga sazovor obrazlar sirasiga kiradi.

«Abror Hidoyatov o'z tomoshabiniga ega zabardast aktyor edi,—deb hikoya qiladi O'zbekiston xalq artisti Mah. mudjon G'ofurov,—Abror akani G'ofur, Hamlet, Alisher Navoiy, Otello rollarida ko'rganman. Keyinchalik u Hamlet va Alisher Navoiy rollarini Olim Xo'jayevga, G'ofurni Shukur Burxonovga berib, o'zi faqat Otelloni o'ynadi.

Abror, aka haqiqiy Otello edi. Men Abror akadan boshqa aktyorni Otello roliga qabul qila olmayman. Abror Hidoyatov vafotidan keyin

Otello rolini Shukur Burhonov o'ynashi mumkin edi. Ammo, u o'ynamadi. Chunki Otello Abror Hidoyatov ijrosida tomoshabinlar qalbidan chuqur joy olgan edi. Abror Hidoyatov fojiviy rollarning mohir ustasi edi».

Abror Hidoyatovning o'zbek kino san'atida yaratgan yorqin obrazlaridan biri 1945 yilda suratga olingan «Tohir va Zuhra» filmidagi Sardor obrazi bo'ldi.

Abror Hidoyatov umr yo'ldoshi, taniqli San'at ustasi Sora Eshont'rayeva bilan ko'p yillar birga yashashdi, birga ijod etishdi, o'lmas obrazlar yaratishdi, havas qilsa arziydigan oqil va fozil farzandlarni tarbiyalab voyaga yetkazishdi, munosib shogirdlar yetishtirishdi.

Xalqimizning sevimli farzandi Abror Hidoyatov 1958 yilda Toshkentda vafot etdi. Toshkentdagi markaziy ko'chalarning biri uning nomi bilan ataladi. Poytaxtimizda A. Hidoyatov nomli drama teatri ishlab to'ribdi. Rejissyor Bobo Xo'jayev Abror Hidoyatov to'g'risida film yaratgan.

Mashhur o'zbek san'atkorining o'lmas xotirasi xalqimiz qalbidan abadiy yashamoqda. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 9 yilligi munosabati bilan o'zbek milliy madaniyati rivojiga qo'shgan ulkan hissasi uchun Abror Hidoyatov «Buyuk xizmatlar uchun» ordeni bilan mukofotlandi. Respublikamiz madaniy jamoatchiligi 2000 yilda san'atkorning 100 yillik tavallud sanasini nishonladi.

Topshiriq :

1-Matnda qanday olmoshlar borligini aniqlang va daftaringizga ko'chirib yozing

2-Notanish so'zlar lug'atini tuzing

Lutfixonim Sarimsoqova

O'zbek teatr san'atining yorqin yulduzlaridan biri, Muqimiy nomidagi musiqali drama teatri aktrisasi Lutfixonim Sarimsoqova 1896 yilda Farg'ona viloyati Rishton tumanidagi Rishton qishlog'ida tug'ilgan.

L. Sarimsoqova ijodiy faoliyatini 1923 yilda Qo'qon xotin-qizlar havaskorlik to'garagida boshlagan bo'lib, 1924—1928 yillarda Qo'qon teatrida, 1928—1931 yillarda Andijon viloyat musiqali drama teatrida,

1931 — 1934 yillarda Marg'ilon teatrida, 1934—1939 yillarda Toshkentdagi O'zbek Davlat musiqali teatrdak aktrisa, 1939—1940 yillarda esa O'zbek Davlat filarmoniyasi qoshidagi dutorchi xotin-qizlar ansamblida badiiy rahbar, 1940—1973 yillarda Muqimiy nomidagi musiqali drama teatrida yetakchi aktrisa sifatida faoliyat ko'rsatgan.

1925 yilda Qo'qon teatrida qo'yilgan U. Hojibekovning «Arshin mololon» spektaklidagi Askerning xolasi siymosi L. Sarimsoqovanning teatr sahnasida yaratgan ilk obrazidir. Keyinchalik aktrisa drama va musiqali dramalar: Xurshidning «Layli va Majnun»ida (1925) Layli, «Farhod va Shirin»ida (1926) Shirin, K. Gossining «Malikai Turandot»ida (1928) Adelma, K. Goldonining «Ikki boyga bir malay»ida (1929) Smeraldina, K. Yashin, T. Jalilovning «Urtsjlar»ida (1930) Roziya, K. Yashin, T. Sodiqov, R. Glierning «Gulsara»ida (1935) Oysara, Xurshid, Uspenskiy, G. Mushelning «Farhod va Shirin»ida Yosuman kabi murakkab xarakterdagi ayollar obrazini yaratdiki, bu obrazlar teatr muxlislari nigohida hanuzgacha saqlanib turibdi.

Lutfixonim Sarimsoqova Muqimiy teatrida Hamza va X. To'xtasinovning «Maysaraning ishi»da (1943) Maysara, K. Yashin va T. Jalilovning «Oftobxon»ida (1943) Xayri xola, S. Abdulla, T. Jalilov, B. Nadejdinning «Alpomish»ida (1950—1962) Oyijon, Hamza, T. Jalilov, G. Sobitovning «Paranji sirlari»da (1946—1960) Mastura satang, S. Abdulla, T. Jalilov, G. Mushelning «Muqimiy»ida (1949—1967) Risolat chevar, K. Yashin, T. Jalilov, G. Sobitovning «Nurxon»ida Kimyo singari obrazlari bilan o'z repertuarini boyitdi. Aktrisa Muqimiy teatrida yaratgan obrazlari bilan katta iste'dod sohibasi, yetuk san'atkor sifatida ko'pchilik muxlislarning hurmati va e'tiboriga sazovor bo'ldi.

Lutfixonim Sarimsoqova talqinida dunyoga kelgan obrazlar hayotiy, jonli va tabiiyligi bilan alohida ajralib turadi. Ular shu darajada mohirona ijro etilganki, birini ikkinchisidan ustun qo'yish, kamsitish mumkin emas. «Nurxon»dagi Kimyo bag'ri tosh, johil er qo'lida bir umr jabr-zulm ko'rgan huquqsiz, haqsiz ayol. U qizi Nurxonning hayotda baxtli bo'lishi uchun har qanday azoblarga bardosh berishga tayyor mehribon ona.

Kimyo xarakteridagi onaning shu xususiyatlarini aktrisa nihoyatda ishonchli tarzda ifoda eta olgan.

O'zbek teatr sahnasida yetuk obrazlar yaratgan aktrisa kinoda ham yorqin, esda qolarli obrazlar yaratib, kino san'atida o'z o'rni va ijodiy uslubiga ega bo'ldi. 1931 yilda suratga olingan «Ozod» filmidagi ip yigiruvchi ayol obrazi aktrisaning kinodagi birinchi roli bo'lsa, A. Usolvevning «Qasam»ida (1937) Ona, N. G'aniyevning «SHohi so'zana»sida (1947) Xolnisa, K. Yormatovning «Opa-singil Rahmonovalar»ida (1955) Sharofat, 3. Sobitovning «Farzandlar»ida (1959) Telba ayol, Sh. Abbosovning «Sen yetim emassan»ida (1963) Fotima opa, «Mahallada duv-duv gap»ida (1961) Mehriniso, A. Akbarxo'jayevning «Hadya»sida (1972) Hadya kabi ruhiy teran, turli xarakterli qahramonlar obrazi faqat aktrisa ijodidagina emas, balki o'zbek kinosi tarixida ham muhim voqea bo'ldi.

Ayniqsa, «Sen yetim emassan»dagi Fotima opa, «Mahallada duv-duv gap»dagi Mehriniso, «Farzandlar»dagi Telba ayol aktrisaning kinodagi jiddiy yutug'i bo'ldi va o'zbek musiqali drama teatri sahnasida va milliy kinomizda ona obrazining betakror va benazir ijrochisi sifatida shuhrat qozondi.

Topshiriq :

1-Matni o'qib, gapirib bering

2-Matnda uchragan notanish so'zlar lug'atini tuzing

Rahim Ahmedov

Rahim Ahmedov O'zbekiston xalq rassomi. U «O'zbekiston xalq rassomi» unvoni va «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni sohibi, o'zbek tasviriy san'ati ravnaqiga munosib hissa qo'shib, rassomchilik sa'natini yuksak darajada xalqimizga yetkazib berdi.

Biografiya

O'zbekiston xalq rassomi Rahim Ahmedov 1921 yilda Toshkentda tug'ilgan. 1937—1941 yillarda P. Benkov nomidagi Respublika badiiy o'quv yurtida, 1947—1953 yillarda Sankt-Peterburgdagi I. Repin nomidagi rassomlik, haykaltaroshlik va me'morlik institutida o'qidi.

Taniqli musavvirlar Iskandar Ikromov, O'rol Tansiqboevlardan keyingi avlod vakili bo'lgan Rahim Ahmedov o'zbek tasviriy san'atiga 50-yillarning boshlarida kirib keldi. Ilk asarlarini institutda o'qib yurgan

kezlari dayoq yaratdi. O'z ijodini portret janrida boshlagan rassom asarlarida oddiy dehqonlar, cho'ponlar, qishloq ayollari va atoqli san'at arboblarning qiyofalarini tasvirladi.

«Cho'pon yigit», «Xalq bastakori — qo'shnaychi Ahmadjon Umrzoqov», «Surxondaryolik qiz» va boshqa asarlar rassom ijodining dastlabki namunalari. Bu tasvirlarda xalq hayoti va turmushining oniy lavhasi, ko'rinishi o'z ifodasini topgan. Rassomning 50-yillarda chizgan «Ona o'ylari» asari chuqur psixologik ifodaliligi bilan tomoshabin diqqatini o'ziga jalb etadi.

Bu portretda ifodalangan onaning ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari ishonarli ifodalangan.

R. Ahmedovning 60—80-yillarda yaratgan asarlarining ham ko'pchiligini portretlar tashkil etadiki, bular «Zveno boshlig'i», «Bahor ayyomida», «Furqat portreti», «Ayol portreti», «Bahor», «Rassom B. Boboev portreti», «Rassom Salimjonova portreti» kabi asarlardir.

Shuningdek, «Birinci maosh», «Tushki dam olish», «Tong, Onalik», «Qo'shiq» asarlarini ham shu yillarda yaratdiki, ularda xalqimizning hayoti, turmush tarzi, bepoyon mamlakatimizning go'zal tabiat manzaralari nihoyatda nafis, latofatli, yorqin bo'yoqlarda did bilan tasvirlangan.

Ayniqsa, rassomni elga tanitgan, unga shuhrat keltirgan «Tong, Onalik» asarida yosh onaning pok qalbi, go'zal qiyofasi, baxtiyor onalik kayfiyati rangin bo'yoqlarda chizilganki, bu asarni tomosha qilgan kishida asarga nisbatan iliq taassurot uyg'otadi.

Musavvir ijodida manzara asarlari ham alohida o'rin tutadi. Uncha katta bo'lmagan, ixchamgina manzara suratlarida tabiat o'z go'zalligini ko'z-ko'z qiladi. Bu o'rinda uning tog' manzaralariga bag'ishlangan qator asarlarini, xususan, birgina «Qish» manzarasini eslashning o'zi kifoya.

R. Ahmedov asarlari 1948 yildan boshlab xalqaro ko'rgazmalarda ko'rsatila boshlandi.

Moskvadagi Tretyakov galeriesi, O'zbekiston Davlat san'at muzeyi ko'rgazma va panoramalar direktiyasida saqlanmoqda. Rassom uzoq yillar ijodiy ishni davlat va jamoat ishlari bilan baqamti olib borib, mamlakatimiz ijtimoiy hayotiga ham o'z hissasini qo'shdi. 1965—1994

yillarda O'zbekiston Rassomlar uyushmasining raisi vazifasida ishlab, Respublikada tasviriy san'atning rivoj topishida hormay-tolmay izlanish olib borayotgan musavvirlarga bosh-qosh bo'ldi.

U ko'p yillardan buyon San'at institutida professor -o'qituvchi vazifasida faoliyat ko'rsatib, yosh musavvirlar tayyorlashga o'zining munosib hissasini qo'shmoqda.

Rahim Ahmedovning o'zbek tasviriy san'ati ravnaqidagi xizmatlari munosib taqdirlandi. 1961 yilda unga «O'zbekiston xalq rassomi» unvoni berildi. Mustaqillik yillarida esa «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan mukofotlandi.

Ijodiy faoliyati

«Cho'pon yigit»

«Xalq bastakori — qo'shmaychi Ahmadjon Umrzoqov»

«Surxondaryolik qiz»

Ona o'ylari»

«Zveno boshlig'i»

«Bahor ayyomida»

«Furqat portreti»

«Ayol portreti»

«Bahor»

«Rassom B. Boboev portreti»

«Rassom Salimjonova portreti»

«Birinchi maosh»

«Tushki dam olish»

«Tong, Onalik»

«Qo'shiq»

«Qish»

Unvoni

«O'zbekiston xalq rassomi»

«Buyuk xizmatlari uchun» ordeni

Topshiriq :

1-Matni o'qing, matn asosida savollar tuzing

2-Matnda uchragan olmoshlarni aniqlang

Yunus Rajabiy

Bastakor, xonanda va sozanda, akademik Yunus Rajabiy avvalo keng madaniy jamoatchilikka o'tkir shirali ovozga ega bo'lgan iste'dodli xonanda sifatida tanilgan. Xonandalikni bastakorlik bilan xamjixatlikda olib brogan san'atkor o'zbek musiqali drama janrida samarali ijod etib, kuylar, qo'shiqlar, raqs kuylari, xor asarlari yozdi. U O'zbekiston xalq artisti, "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni va Respublika Davlat mukofoti sohibi, O'zbekiston Fanlar akademiyasining xaqiqiy a'zosi.

Bastakor, xonanda va sozanda, akademik Yunus Rajabiy 1897-yilda Toshkentda tug'ulgan. Avval madrasada, so'ng 1919-1922 yillarda Turkiston xalq konservatoriyasida, 1934-yilda Toshkent Oliy musiqa maktabining tayyorlov kursida, 1940-1941 yillarda Moskvada bastakorlar kursida ta'lim olgan Y.Rajabiy xalq musiqa merosini Mirzaqosim hofiz, SH.Shoumarov, To'ychi Hofiz, Domla Halim Ibodovlardan o'rgangan.

Mehnat faoliyatini 1923-1925 yillarda Samarqand pedagogika bilim yurti to'garagi o'qituvchisi sifatida boshlab, 1925-1926 yillarda Samarqand teatrining musiqa rahbari, 1927-1959 yillarda O'zbekiston radio qo'mitasi qoshidagi xalq cholg'u asboblari ansambli tashkilotchisi va badiiy rahbari, 1942-1945 yillarda Toshkent viloyati Yangiyo'l musiqali drama va komediya teatrining musiqa rahbari, 1959-1976 yillarda O'zbekiston Televideniyesi va radio eshittirish Davlat qo'mitasi huzuridagi maqom ansambli tashkilotchisi va badiiy rahbari vazifalarida ishladi

Y.Rajabiy avvalo keng madaniy jamoatchilikka o'tkir shirali ovozga ega bo'lgan iste'dodli xonanda sifatida tanilgan edi. U aytgan "Girya", "Noli sh", "Ko'cha bog'i", "Eshvoy", "Qurd". "Qalandari", "Shahnozi Gulyor", "Bayot", "Qaro ko'zim". "Dugohi Xusayniy". "Chorgoh", "Miskin", "Nasrullovi" kabi maqom yo'llaridagi ashulalar, u tiklagan

«Subhidam», «Yolg'iz», «Sayqal», «Segoh», «Dugoh» va boshqa qadimgi o'zbek kuy va ashulalari hamon tinglovchilarga estetik zavq bag'ishlab, dillarga orom berib kelmoqda.

O'zbek musiqa merosini to'plashda Y.Rajabiyning xizmatlari nihoyatda katta. U 1935 yildan boshlab kuy va qo'shiqlarni, maqomlarni to'play boshladi. Shuning natijasi o'laroq E.Romanovskaya, A.Akbarovlar

1939 yilda tuzgan “O‘zbek xalq qo‘shiqlari” to‘plamidan Y.Rajabiy notaga slogan 29 ta ashula va qo‘shiqlar o‘rin oldi.

Y.Rajabiy 1955-1959 yillarda (Y.Akbarov tahriri ostida) 5 jildlik “O‘zbek xalq muzikasi” to‘plamlarini nashr ettirdiki, ularga turli janrlardagi mingga yqin o‘zbek (bir qancha tojik, uyg‘ur) kuy va ashulalar, “Buxoro Shashmaqomi”, Toshkent, Farg‘ona maqom yo‘llari, katta ashulalar, Xamza qo‘shiqlari, o‘nlab bastakorlarning asarlari kiritilgan. Maqom ansambli bilan uzoq ishlashi natijasida, 1966-1974 yillarda (F.Qaramatov tahririda) “Shashmaqom”ning 6 jildlik yangi nashrini tayyorladi.

Mazkur kitoblarga izoh beruvchi 1978 yilda nashr etilgan “Muzika merosimizga bir nazar” asari maqomchilarning ijro uslublarini o‘rganishda muhim qo‘llanma bo‘ldi.

Ustoz san‘atkorlar T.Sodiqov, D.Zokirov, D.Soatqulov, F.Sodiqov, N.Hasanov kabi bastakorlarni, N.Axmedova, B.Davidova, K.Ismoilova, O.Imomxo‘jaev, O.Alimahsumov kabi xonandalarni tarbiyalab voyaga yetkazish bilan birga O‘zbekiston xalq artisti Obid Yunusov, O‘zbekiston xalq xofizi Hasan Rajabiy, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Toxir Rajabiy kabi farzandlarni o‘stirib, ulg‘aytirdi.

Ular oqil farzand va ijodkor sifatida o‘z otalarining ishini davom ettirmoqdalar, uning muqaddas nomini abadiylashtirish yo‘lida samarali mehnat qilmoqdalar.

Y.Rajabiyning o‘zbek musiqa va qo‘shiq san‘ati kamolotiga katta xizmatlari 1958 yilda “O‘zbekiston xalq artisti” unvoni, Respublika Davlat mukofoti(1973) bilan taqdirlandi. 1966 yilda O‘zbekiston Fanlar akademiyasining xaqiqiy a‘zoligiga saylandi.

O‘zbekiston san‘atining ulkan arbobi Yunus Rajabiy 1976 yilda Toshkent shaxrida vafot etdi. O‘zbekiston Televidenie va radio eshittirish Davlat qo‘mitasi qoshidagi “Maqom” ansambliga, Jizzax musiqali drama teatriga va Toshkent musiqa pedagogika bilim yurtiga, Toshkentdagi markaziy ko‘chalarning biriga Yunus Rajabiy nomi berildi.

Respublikamiz madaniy jamoatchiligi 1997 yilda Yunus Rajabiyning 100 yillik yubileyini keng nishonladi. O‘zbek milliy madaniyati rivojiga

ulkan hissa qo'shganligi uchun u 2000 yilda "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlandi.

Topshiriq :

1-Matnda uchragan notanish so'zlar lug'atini tuzing

2-Matnga savollar tuzing

Mutal Burhonov

O'zbekiston Davlat madhiyasi musiqasini yaratgan taniqli bastakor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi M. Burhonov «O'zbekiston xalq artisti» unvoni, «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Davlat mukofotlari sohibidir. Bastakor Mutal (Mutavakkil) Burhonov 1916 yilda Buxoroda tug'ilgan. Musiqadan ilk saboqni Samarqand musiqa va xoreografiya institutida, so'ng Moskvada taniqli musiqa allomalaridan oldi.

1941 — 1942 yillarda Moskva mudofaasi ko'ngillilari safida bo'ldi, sog'ligi yomonlashganligi sababli Toshkentga qaytdi va ijod bilan shug'ullandi. 1947 yilda yana o'z ishini davom ettirib, 1949 yilda Moskva konservatoriyasini bitirdi.

M. Burhonov ijodiy faoliyatini 30 yillarning ikkinchi yarmidan boshlab, dastlab «Ey, bulbul», «Ishk o'ti» (Mashrab), «Ishqida» (Uyg'un), «Tabassum qilmading» (Navoiy), «Namedonam chi nom dorad» (Hofiz) kabi romanlarni yozdi, 1941 yilda Uyg'un va Izzat Sultonning «Alisher Navoiy» she'riy dramasiqa musiqa, 1942 yilda T. Jalilov, T. Sodiqov, M. Vaynberg, A. Klumovlar bilan hamkorlikda «O'zbekiston qilichi» musiqali dramasiqa musiqa bastaladi.

1947 yilda shoir Temur Fattoh she'ri asosida O'zbekiston Davlat madhiyasi musiqasini yaratdi. O'rta Osiyo xalqlari qo'shiqlarini o'zbek xalq cholg'u asboblari va jo'rsiz xor uchun qayta ishladi. «Samolyot» (H. Olimjon), «Kapalak» (3. Diyor), «Vatan qo'shig'i», «Ashula bayrami» (G'. G'ulom) kabi mashhur bolalar qo'shiqlarining ham muallifidir.

Bastakor 50 yillarda «Bahor qushlari» vokal poema, «Abu Ali ibn Sino» simfonik syuita, yakkaxonlar, xor va simfonik orkestr uchun asarlar hamda 1968 yilda «Alisher Navoiyga qasida» (A. Oripov) kabi katta shakldagi musiqa asarini yaratdi. Uning yarim asrdan ziyod davr

mobaynida turli janrlarda yaratgan qo'shiqlari, lirik romanlari, jo'rsiz xor uchun qayta ishlangan Sharq xalqlari kuylari, jozibali vokal simfonik asarlari, kino musiqalari zamonaviy musiqa san'atimizning «Oltin xazina»sidan o'rin oldi.

«Abu Ali ibn Sino», «Samolyotlar qo'lnolmadi», «Maftuningman», «Orol baliqchilari» (I. Ikromov, M. Levievlar bilan hamkorlikda), «Surayyo», «Boy ila xizmatchi», «Istiqbol yo'li» kabi badiiy filmlarning musiqalari ham M. Burhonov qalamiga mansub.

Bastakor hozirgi mustaqillik kunlarida yanada katta g'ayrat bilan qizg'in ijod etmoqda. «Alisher Navoiy» (1991) operasini, O'zbekiston Davlat madhiyasi musiqasini yaratdi. Abdurahmon Jomiy she'riga bastalangan «Shiru shakar» yangi qo'shig'i va qatag'on yillarida shahid bo'lgan Fayzulla Xo'jaev, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat kabi elning asl farzandlari va o'zining akasi va amakilarining porloq xotiralari ga bag'ishlangan «Abadiy xotira» rekviem-marsiyasini yaratdi.

Taniqli bastakor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi M. Burhonovning o'zbek musiqa san'ati ravnaqidagi xizmatlari yuksak taqdirlandi. U «O'zbekiston xalq artisti» unvoni, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Davlat mukofotlari sohibidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga binoan «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan mukofotlangan.

Topshiriq :

1-Matnni rus tiliga tarjima qiling

2-Qiyin va yangi so'zlarni lug'atini tuzing

Roziya Karimova

Roziya Karimova o'zbek balet aktrisasi, raqqosa, baletmeyster va xoreograf. U nafaqat talantli raqqosa, balki mohir pedagog va raqs san'atining nazariy, amaliy masalalari bilan jiddiy shug'ullangan yirik tadqiqotchi olim hamdir. Bernora Qorieva, Ra'no Nizomova, Ibrohim Yusupov, Dilafro'z Jabborova, Shokir Ahmedov, Dilbar Abdullaeva, Karima Uzoqova, Sivilya Tangurieva, Inna Kirkova, Muhabbat

Abdullaeva, Qodir Mo'minov kabi raqqosa va raqqoslar uning shogirdlaridir.

O'zbek balet aktrisasi, raqqosa, baletmeyster va xoreograf Roziya Karimova 1916 yilda Qozonda tug'ilgan. Samarqanddagi O'zbek Davlat musiqali drama teatri studiyasida ta'lim olib, 1930 yildan shu teatrdagi o'z faoliyatini boshladi va lirik raqslar bilan bir qatorda dramatik rollarni ham ijro etdi.

Anorxon (Q. Yashin, «O'rtoqlar», 1932), Asal (K. Yashin «Gulsara» 1935), Osiyo (U. Hojibekov, «Arshin mol olon», 1936) kabi obrazlar aktrisa ijodining ilk mahsulidir. Shundan so'ng, 1934—1949 yillarda Toshkentdagi musiqali teatrdagi, 1949—1953 yillarda A. Navoiy nomidagi Opera va balet teatrida Gulandom (E. Brusilovskiy, «Gulandom»), Oqbilak (S. Vasilenko, «Oqbilak»), Fraskita (J. Bize, «Karmen»), Kumush (M. Ashrafiy, S. Vasilenko, «Bo'ron») kabi partiyalarni ijro etib, «O'rtoqlar», «Bo'ron», «Gulsara», «Ulug'bek», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun» kabi opera asarlaridagi raqslarni sahnalashtirdi va o'zi ulardagi yolg'iz o'yinlarni o'ynadi.

Shuningdek, K. Yashinning «O'rtoqlar» operasidagi raqslarni Olma ota teatrida sahnalashtirdi. Muqimiy nomidagi O'zbek Davlat musiqali drama va komediya teatrida baletmeyster, 1935—1960 yillarda shu teatrdagi solistka bo'lib, «Nurxon», «Farhod va Shirin», «Ravshan va Zulxumor», «Tohir va Zuhra». «Oftobxon», «Oq nilufar», «Zafar» va boshqa qator spektakllardagi raqslarni sahnalashtirdi va ulardagi yolg'iz raqslarni mohirona ijro etdi.

R. Karimova «Andijon samosi» (yalla), «Katta o'yin», «Gul o'yin», «Safti ufori» va boshqa milliy raqslarni ham nihoyatda nozik did va nafislik bilan o'ynagan katta iste'dod sohibidir. U Gavhar Rahimova rahbarligidagi xotin-qizlar ansambli safida 1942 yilda Eronda, 1943 yilda Shimoli-g'arbiy frontlarda bo'lib, madaniy xizmat qildi.

U nafaqat talantli raqqosa, balki mohir pedagog va raqs san'atining nazariy, amaliy masalalari bilan jiddiy shug'ullangan yirik tadqiqotchi olim hamdir. 1932 yildan O'zbekiston Davlat xoreografiya bilim yurtida pedagog, 1964 yildan Hamza nomidagi San'atshunoslik institutida ilmiy xodim sifatida o'zbek raqs san'atining muhim masalalari ustida ilmiy

tadqiqot ishlari olib borib «Farg'ona raqslari», «Buxoro raqslari», «Robiya Otajonova raqslari», «Bahor» ansambli raqslari», «Doira zarblariga mashg'ulot», «O'zbekiston raqslari» kabi o'ndan ortiq kitoblar va qo'llanmalarni yaratdi, ko'plab maqolalar yozgan R. Karimova ko'plab raqqosalarni tarbiya lashdek sharaflı ishga munosib hissa qo'shdi.

Bernora Qorieva, Ra'no Nizomova, Ibrohim Yusupov, Dilafro'z Jabborova, Shokir Ahmedov, Dilbar Abdullaeva, Karima Uzoqova, Sivilya Tangurieva, Inna Kirkova, Muhabbat Abdullaeva, Qodir Mo'minov kabi raqqosa va raqqoslar uning shogirdlaridir. Uniig bu xizmatlari e'tiborga olinib, mustaqillik yillarida unga faxriy san'atshunoslik doktori ilmiy darajasi berildi.

Roziya Karimova «O'zbekiston xalq artisti» (1950) unvoni, O'zbekiston Davlat mukofoti (1983), Mukarrama Turg'unboeva nomidagi mukofot (1994) sohibidir. Shuningdek, 1998 yilda u «El-yurt hurmati» ordeni bilan mukofotlandi.

Topshiriq :

1-Matni o'qib gapirib bering

Razzoq Hamroev

Taniqli teatr va kinoaktyor Razzoq Hamroev 1910 yilda Buxoroda tug'ilgan. 1954 yilda Toshkent teatr, va rassomlik san'ati institutini tugatgan. 1931—1945 yillarda Namangan musiqali drama va komediya teatrida aktyor, rejissyor, bosh rejissyor, va badiiy rahbar, 1946 yildan Muqimiy nomidagi musiqali drama va komediya teatrida aktyor, rejissyor, 1959—1976 yillarda bosh rejissyor sifatida faoliyat ko'rsatgan.

S. Abdullaning «Tohir va Zuhra»sidagi Nozim, Xurshidning «Farhod va Shirin»idagi Xisrav obrazlari aktyorning teatr sahnasida yaratgan ilk rollaridir. Keyinchalik, birin-ketin U. Ismoilovning «Rustam»ida Rustam, F. Shillerning «Makr va muhabbat»ida Ferdinand, K. Gotstsining «Malikai Turondot»ida Pantalone, S. Abdulla, T. Jalilov, G. Mushellarning «Muqimiy» sida Muqiadiy, K. Yashin va A. Umariyning «Hamza»sida Hamza, I. Mahsumovning «Navoiy Astrobodda»sida Navoiy, K. Goldonining «Ikki boyga bir malay»ida Trufaldino, «Musofirxona

bekasida Kavaler, V. Shekspirning «O'n ikkinchi kecha»sida Malvolio kabi ko'plab yorqin obrazlar yaratdi.

Xalqimiz R. Hamroevni faqat teatr aktyori sifatidagina emas, balki iste'dodli kinoaktyor sifatida ham yaqindan taniydi. U ekranda chuqur falsafiy va mazmunli obrazlar yaratdi. N. G'anievning «Tohir va Zuhra»sidagi Nozim, «Nasriddin sarguzashlari»dagi Xo'ja Nasriddin, K. Yormatovning «Alisher Navoiy»sidagi Alisher Navoiy, «Abu Ali ibn Sino»sidagi Beruniy, y. A'zamovning «Furqat»idagi Muqimiy, «O'tgan kunlar»idagi Mirzakarim qutidor kabi o'lmas obrazlar faqat aktyor ijodidagina emas, balki o'zbek kino san'ati tarixida ham muhim o'rin tutadi.

R. Hamroevning keng madaniy jamoatchilikka yaqindan tanitgan, uni elga mashhur qilgan obraz-bu dunyo ekranlarini kezib chiqqan «Alisher Navoiy» filmidagi Alisher Navoiy obrazidir. Aktyor Navoiy obrazini benazir yaratgan iste'dodli aktyor sifatida o'zbek san'ati tarixida o'chmas iz qoldirib, o'ziga mangu haykal o'rnatdi. U Alisher Navoiyni genial shoir, buyuk mutafakkir, yetuk davlat va jamoat arbobi sifatida yorqin gavalantirarkan, shoirning ichki kechinmalarini tomoshabinlarga ustalik bilan yetkazdi va XV asr feodalizm muhitidagi davr qarama-qarshiliklarini ifodalashda katta iste'dodini namoyish qildi.

R. Hamroev yaratgan R. Botirovning «Dorbozlar»ida Toshtemir dorboz, Sh. Abbosovning «Abu Rayhon Beruniy»sida Ibn Iroq, Dovjenko kinostudiyasida suratga olingan «Mirzacho'l» filmida Rahimjon mirob, Yu. Stepachukning «Jayhun»ida Ja'farbek, «Keksa ustaning vasiyatlarida» (3 seriyali film) Usmonboy, «Xorazm afsonasi»da Usta Nosir, Sh. Abbosovning «Olovli yo'llar» ko'p seriyali telefilmida Hazrat, 3. Sobitovning «Samolyotlar qo'na olmadi»sida Ismoil kabilar. 70-yillar o'zbek kinosida yaratilgan sara obrazlardan hisoblanadi.

Teatr va kino san'atida o'z o'rniga ega bo'lgan san'atkor rejissyorlik sohasida ham ijod etib, «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Oltinko'l», «Nurxon», «Makr va muhabbat», «Muqimiy», «Guli siyoh», «Farg'ona tong otguncha», «Toshbolta oshiq» va boshqa drama, komediya, musiqali dramalarni muvaffaqiyatli ravishda sahnalashtirdi,

«Guli siyoh», «Farg'ona tong otguncha» va boshqa spektakllar pesalariga hammuallif bo'ldi.

U Respublikamizning turli viloyat teatrlariga ham yaqindan ko'maklashib, ko'p asarlarni sahnaga qo'ydi. M. Qorievning «Sehrli uzug»i Namangan teatrlarida, G. Xo'jaevning «Ko'ngli yosh qariyalar» asari O'sh teatrida sahnalashtirildi.

Razzoq Hamroevning o'zbek teatr va kino san'ati ravnaqidagi xizmatlari uchun «O'zbekiston xalq artisti» unvoni, davlat mukofoti (1948, 1949) bilan taqdirlangan.

Betakror iste'dod sohibi Razzoq Hamroev 1981 yilda Toshkent shahrida vafot etdi.

Topshiriq :

1-Matnda notani sh so'zlar lug'atini tuzing va yodda tuting

2-Matni o'qib gapirib bering

SALOMATLIGING O'Z QO'LINGDA.

Sog'lom turmush – salomatlik garovi

Mutaxassislarining ta'kidlashicha, insonning salomatligi va uzoq umr ko'rishi u iste'mol qilayotgan ovqat tarkibidagi foydali mikroelementlar va minerallarga ko'p jihatdan bog'liq. Jumladan, o'rta yoshdagi inson organizmi me'yorida faoliyat yuritishi uchun kuniga o'rtacha uch yuz milligramm magniy minerali iste'mol qilishni talab etadi.

Asabiylashish va sog'lom turmush tarziga rioya qilmaslik tufayli kelib chiqadigan ko'plab xastaliklar oziq-ovqat tarkibidagi ushbu foydali moddaning organizmga so'rilishi jarayonini qiyinlashtiradi. Natijada tanada magniy tanqisligi yuzaga keladi va bu salomatlikka, homilador ayollarda esa ona va bola sog'ligiga jiddiy ziyon yetkazadi.

Ushbu muammoni bartaraf etishning samarali usullarini izlab topish yo'lidagi muttasil izlanishlar tufayli ixtiro etilgan Magne-V6 preparatidan jahon tibbiyotida, jumladan, mamlakatimiz sog'liqni saqlash tizimida samarali foydalanilayotir. Olim va mutaxassislarimiz ushbu shifo vositasining inson salomatligini, xususan, onalik va bolalikni muhofazalashdagi samaralarini izchil tadqiq etish, xastaliklarning oldini olish va davolash jarayonida qo'llashning yangi uslublarini ishlab chiqishga alohida e'ti bor qaratmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan Sanofi-Aventis farmatsevtika kompaniyasining (Fransiya) mamlakatimizdagi vakolatxonasi hamkorligida tashkil etilgan konferensiyada shu haqda gap bordi. Tadbirda Prezidentimiz Islom Karimovning 2007 yil 19 sentabrda qabul qilingan «Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uni rivojlantirish Davlat dasturini amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida»gi farmoni mamlakatimizda aholi salomatligini mustahkamlash, shifo maskanlari ishini zamon talablari darajasida tashkil etish, sohaga yangi texnologiya va uslublarni joriy etish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish borasidagi ishlar ko'lamini yanada kengaytirishda muhim omil bo'layotgani alohida ta'kidlandi.

Videokonferensiya tarzida tashkil etilgan ushbu tadbirda poytaxtimizdagi ilmiy-tadqiqot muassasalari, ixtisoslashgan markazlar, oilaviy poliklinikalar mutaxassislari va Rossiyadan kelgan olimlar bilan bir qatorda Andijon, Buxoro, Samarqand va Farg'ona viloyati shifokorlari ham bevosita qatnashish imkoniga ega bo'ldi.

Tadbirda inson organizmida magniy moddasi yetishmovchiligi kelib chiqishining oldini olish, tibbiyot ilmining bu borada erishayotgan yutuqlaridan va yaratilayotgan yangi shifo vositalaridan davolash jarayonida oqilona foydalanishga bag'ishlangan ma'ruzalar tinglandi va muhokama etildi. O'zA, B.Xidirova.

Topshiriq :

1-Matnda notanish so'zlar lug'atini tuzing

2-Matnda qanday fe'llar borligini aniqlang va daftaringizga ko'chirib yozing

Абдулла Тангрнев

1981 yilning 28-martida Surxondaryo viloyatida tug'ulgan. Dzyudo bo'yicha yoshlar o'rtasida Osiyo birinchilig go'libi, Sidney olimpiadasi qatnashchisi, xalqaro miqyosdagi sport ustasi, Abdulla 10 yoshidan boshlab dzyudo bilan shug'ullangan.

Tarjimai hol

Alpomishkelbat bu yosh polvonimizning kelajagiga ko'plar yorqin ishonch bildirmoqda. Chunki u keying paytda qaysi toifadagi musobaqalarga qatnashmasin, sovrindorlar qatoridan o'rin olmoqda. Abdulla 10 yoshidan boshlab dzyudo bilan shug'ullangan. O'smirlar

o'rtasidagi mamlakat birinchiliklarida u ajoyib g'alabalarga erishib, mutaxassislar nazariga tushdi, 1995 yildan boshlab u Chirchiqda respublika olimpiya o'ribosarlari bilim yurtida murabbiy S.Murodislav qo'l ostida o'z mahoratini oshirdi. Yoshlar o'rtasidagi mamlakat birinchiliklarida va xalqaro musobaqalarda (o'z vazni va mutlaq birinchilikda) u katta muvaffaqiyatlarga erishdi.

19 yoshli Abdulla Tangriev Sidney olimpiadasiga borayotgan terma jamoa tarkibiga kiritildi. Olimpiya o'yinlarida u ikkita bellashuvni o'z foydasiga hal qildi. Agar Abdulla vazni 100 kilogrammdan yuqori polvonlar musobaqasida qatnashganini hisobga olsak, bu g'alabalar uning istiqbolidan dalolat beradi.

Darhaqiqat, Abdulla ko'p o'tmay Gonkongda yoshlar o'rtasida bo'lgan Osiyo birinchiligi da zafar quchdi.

XXI asr polvoni deb baholanayotgan Abdulla Tangriev shu yil boshida O'zbekiston chempionatida 100 kilogrammdan yuqoti va mutlaq vaznda qo'shaloq g'alabaga erishdi. U shunday g'alabalar bilan 2004 yili Afinada bo'ladigan olimpiyadaga borishni niyat qilgan.

Topshiriq :

1-Matni mazmunini rus tiliga tarjima qiling

2-Matnda fe'llarni toping

Muhammadqodir Abdullayev

M.Abdullaev 1974 yilda Andijon viloyatida tug'ilgan. Murg'ak tasavvurida boksni gavalantira olgan bolakayning yillar o'tib, Sidneyda yulduzga aylanishini hech kim, hatto o'zi ham xayoliga keltirmagan bo'lsa kerak. Biroq bunday mahobatli zafarga erishish o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi, hech bo'lmaganda yurakning bir chekkasida mavhum mujdalarga qorishiq oppoq orzular bo'lishi lozim.

2000 yilda olis "yashil qit'a"ning Sidney shahridagi ringda Olimpiada o'yinlari chempionligini qo'lga kiritgan Muhammadqodir Abdullaevni bugun tanimaydigan yurtdoshimiz bo'lmasa kerak. O'sha ajoyib kunlarda gurillab o't olgan shuhrat va shijoat nuri uni bugun ham yangi-yangi g'alabalarga undayotgani, o'z ustida tinimsiz izlanishlar olib borishiga chorlayotgani, tabiiy. Sidneyda o'zbek bayrog'ining barcha davlatlar

tug'idan yuqori ko'tarilishini ta'minlagan havaskor sportchimiz ayni kez boksning professional (63 kg.gacha o'ta yengil vazn sohiblari o'rtasida) WBO (World Boxing Organization) tasnifi bo'yicha janglar o'tkazmoqda.

Tops hiriq :

1-Ma'tni o'qib gapirib bering

2-No tanish so'zlar lug'atini tuzing

MAHMUD PAHLAVON

Mazmunan boy va teran, shaklan pishiqlik va go'zal falsafiy ruboiylari tufayli «Xorazm Xayyomi» nomi bilan shuhrat qozongan bu ulug' inson Pahlavon Mahmud, Puryorvaliy deb dovrug' taratgan hassos shoir, yengilmas pahlavon va mashhur avliyodir. Eron, Hind kabi ko'plab Sharq mamlakatlaridagi kurash musobaqalarida qatnashib, hamisha zafar quchgan, bir umr kuragi yerga tegmay, mamlakatning birinchi polvoni, pahlavonlar peshvosi bo'lgan.

Ko'pgina manbalarda shoirning «Kanz ul-haqoyiq» («Haqiqatlar xazinasi») nomli masnaviysi borligi aytiladi. Ammo Yo. Ishoqovning ma'lumot berishicha, eronlik olim Said Muhammad Ali Safir 1967 yili uni Mahmud Shabustariyga nisbat berib, nashr ettirgan.

Pahlavon Mahmud «din nazariyasi, falsafa va mantiqqa doir bir necha risolalar yozgan» bo'lsa-da, ular hozirgacha topilgan emas. Pahlavon Mahmudning vasiyatiga ko'ra shogirdlari uni o'zining po'stindo'zlik do'koni atrofiga dafn etganlar. Keyinchalik u qabr ustida maqbara tiklanib, avliyo poyiga Qo'ng'iro't urug'idan bo'lgan Xiva xonlari ko'milgan. Bu maqbara nodir me'morchilik yodgorligi sifatida mana necha asrdirki, barchaning diqqatini o'ziga tortib kelmoqda. Dunyoning turli burchaklaridan kelayotgan sayyohlar bu buyuk insonning qabrini ziyorat qiladilar. Maqbara devorlariga shoir ruboiylari darj etilgan.

Pahlavon Mahmud Xivadagi futuvvatchilar jamoasining boshlig'i, javonmardlar peshvosi bo'lgan. Uning o'zi ham mardlik va saxovatning eng oliy namunalarini ko'rsatib, boshqalarga ibrat bo'lgan. Ruboiylarida futuvvatning nazariy qoidalarini bayon qilgan.

Ma'lumki, javonmardlikka ko'proq pahlavonlar talabgor bo'lganlar. Shu jihatdan, Pahlavon Mahmud pahlavonlarni tarbiyalovchi ustozgina

bo'lib qolmay, balki javonmardlik odobini o'rgatuvchi pir ham edi.

Javonmardlarning shiori dunyodagi yovuzlikning barcha ko'rinishlariga qarshi hamisha, hamma yerda ezgulikni himoya qilish, targ'ib etish va qo'llab-quvvatlashdan iborat. Bu g'oyalar Pahlavon Mahmudning ko'pgina ruboiylarida o'z aksini topgan.

Pahlavon Mahmud hayoti va ijodini o'rganish, ruboiylarini topib, xalqqa yetkazishda tariqli olim va zabardast mutarjim To'xtasin Jalolovning xizmatlari katta. Shoir ruboiylarini, shuningdek, Muinzoda, Vasiiy, Ulfat, Boqir, M. Abdulhakim kabi tarjimonlar ham tarjima qilganlar. Yo. Ishoqov, H. Homidiy, N. Komilov, S. S. Buxoriy, M. Hasaniy, Y. Jumaboev kabi olimlar bu buyuk vatandoshimiz adabiy merosi va tarjimai holini ma'lum darajada tadqiq etganlar.

Pahlavon Mahmud ruboiylari badiiy tasvir vositalariga boy, xalqona sodda va yengil uslubda, ifoda tarzi aniq va lo'nda, o'ynoqi, sershiddat tuyg'ularga yo'g'rilgan. Barcha Sharq shoirlari kabi Pahlavon Mahmud ham ikki ulug' manba — Qur'oni karim va Hadisi sharifdan ta'sirlangani, ulardan ilhomlanib qalam tebratgani qudsiy nafas ufurib turgan ruboiylaridan shundoqqina sezilib turadi. Ayniqsa, ilohiy ishq tarannum etilgan va vahdati vujud falsafasini tushuntirishga bag'ishlangan she'rlarida bu narsa yaqqol ko'zga tashlanadi.

Lekin shoir faqat ilohiy mavzular bilangina chegaralanmay, zaminiy dardni ham qalamga olgan. Pahlavon Mahmud ruboiylarida ilohiy va dunyoviy dard ko'pincha birga, o'zaro qo'shilib zuhur etadi.

N. Komilov: «Pahlavon Mahmud ruboiylarini to'rt guruhga bo'lish mumkin: birinchisi — zamona ahlidan nolish, ijtimoiy tengsizlikni ifodalovchi ruboiylar; ikkinchisi — tariqat suluki haqida yozilgan ruboiylar; uchinchisi — vahdati vujud falsafasi asoslarini tushuntiruvchi ruboiylar va to'rtinchisi — ilohiy ishqni tarannum etgan ruboiylar», — deb yozgan edi. Kezi kelganda, biz shu paytgacha shoirning axloqiy qarashlariga nisbat berib tadqiq etgan pand-nasihath ruhidagi ruboiylari aslida futuvvat ruknlarining she'riy ifodasidan iborat ekanligini ta'kidlab o'tish lozim. Ha, bunday she'rlarida u javonmardlar axloqini targ'ib etgan, ulardan ibrat olishga chaqirgan.

Topshiriq :

1-Matni o'qing, matn mazmunini yorituvchi savollar tuzing

2-Matndagi fe'llarni toping

RUSTAM QOSIMJONOV

Rustam Qosimjonov 1979, 5 dekabrda – tugʻilgan. Oʻzbek xalqaro shaxmat grossmeysteri, FIDE tasnifiga koʻra 2004-2005 yillar davomida shaxmat boʻyicha jahon chempioni.

Maktab... Uni ming bir toʻgʻonlar, toʻsiqlardan omon oʻtib, dengizga qoʻshilib ketgan irmoqning asosi — musaffo jilgʻaga qiyos qilish mumkin. Goʻyo qancha olislashib borganingiz sari yuragingizga chuqurroq oʻrnashib borayotgandek tuyuluvchi, ilk tuygʻular, ilk iztirobu ilk entikishlar muallifi boʻlgan maktabning qudrati beqiyos.

Tarixda ham, bugun ham nom taratgan zotlar, buyuklarning turli ixtirolari, oʻlmas, umrboqiy asarlarining yaratilishiga, muvaffaqiyatlariga debocha boʻlgan dastlabki tasavvurlari, dunyoqarashlari aynan shu moʻʻjaz ilm dargohida koʻz ochgani rad etib boʻlmas haqiqatdir. Shuning uchun ham sodda va bagʻrikeng muallimlarning koʻzlaridagi samimiy quvonchda, bir olam shodlikda soxtalik sezmaymiz.

Dunyoni oʻzining ohanrabosi, gʻayritabiiy jozibasi bilan maftun etgan “aql gimnastikasi” — shaxmat boʻyicha 17-jahon chempioni, Amir Temur ordeni sohibi, zamonamizning yirik grossmeysterlaridan biri Rustam Qosimjonov kamol topgan Toshkent shahridagi 76-maktabning, u yerdagi zukko va ahil pedagogik jamoaning ham oʻzbek oʻgʻloni olamshumul muvaffaqiyatida xizmati katta. U shaxmatning asosiy bilimlarini 15-bolalar va oʻsmirlar sport maktabida oʻrgangan, 76-maktab esa birinchi boʻlib ilm va sportga mehr uygʻotgani bilan qadrlı boʻlsa, ajab emas.

Bolalik tasavvurlarini ertaroq tark etgan Rustam shaxmatga boshlangʻich sinflardan birida oʻqiyotganida qiziqib qolgani haqida suhbatlarida koʻp taʻkidlaydi. Shaxmat boʻyicha koʻp karra Oʻzbekiston chempioni, mohir murabbiy Aleksandr Grushevskiyning 76-maktabga tashrif buyurishi va koʻzlarida hayrat toʻla bolakaylar bilan dildan gurunglashishi Qosimjonovni tizginsiz orzular surishga oshufta qildi. U bolalik ixlosi bilan Grushevskiyning oʻzini tutishi, yurishi, kulishi, xayolga choʻmishi singari harakatlarini kuzatdi.

Rustam Qosimjonovning qo'lga kiritgan asosiy yutuqlari, sovrinlari Istiqlol yillari bilan bog'lanadi. 1994 yili 16 yoshgacha bo'lgan o'smirlar o'rtasida Vengriyada jahon chempionati o'tkazildi. Unda sovrindor bo'lgan shaxmatchimiz shu yili Osiyo birinchiligida g'olib bo'ldi. 1996 yili xalqaro turnirlardagi yuksak ishtiroki, faolligi inobatga olinib, xalqaro sport ustasi unvoni berildi. O'shanda Qosimjonov maktab o'quvchisi edi. Bu voqea uning yorqin istiqbolidan nishona bo'lgandi.

1997 yili kattalar o'rtasida O'zbekiston chempioni bo'lish bilan birga xalqaro grossmeyster maqomiga ko'tarildi. 1998 yili Eronda kattalar o'rtasida kechgan Osiyo chempionatida zafar qozondi. 1999 yili Armanistonda uyushtirilgan 20 yoshgacha bo'lgan shaxmatchilar orasidagi jahon chempionatida sovrindor bo'ldi. 2002 yili Hindistonda o'tgan jahon kubogi bahslarida 2-o'rinni egalladi.

2004 yili Liviya poytaxti Tripoli shahrida shaxmat bo'yicha o'tgan jahon chempionatida ishtirok etib, bir yuz yigirma sakkiz nafar shaxmat ustasi orasida shaxmat tojini kiygan Rustam Qosimjonov yurtimizga qaytgach, birinchi bo'lib unib-o'sgan go'sha — 76-maktabni yo'qladi. Shogirdining mana shunday buyuk g'alabasini oynai jahon orqali kuchli hayajonda tomosha qilgan, yengil nafas olgan o'qituvchilari bir necha yoshga yoshargani shundoqqina chehralaridagi gulgunlikdan bilingandi o'shanda.

Yosh shaxmatchining hali maktab davridayoq noyob iqtidorini payqagan Prezidentimiz unga eng zamonaviy rusumdagi kompyuterni sovg'a qilgan va oradan bir necha yil o'tib, jahon chempioni bo'lgach, Islom Karimov grossmeysteriga, albatta, kitob yozishi kerakligini, u egallagan qimmatli tajriba o'sib kelayotgan avlodga yetkazilishi zarurligini tayinlagandi. Taklif bekamu ko'st amalga oshdi. Mazkur kitobning tayyorlash va nashr etish jarayonida Georgiy A'zamov nomidagi Respublika shaxmat federatsiyasi xayrixohlik ko'rsatganini alohida aytish lozim.

Rustam Qosimjonov shaxmatdan bo'sh paytida matematika, adabiyot va chet tili fanlari bilan oshufta bo'lar, diltortar she'rlarni o'qib, mag'zini chaqar va zavqlanardi. Matematik masalalarni hal qilganida esa kuchli raqibni mot qilgandek rohatlanardi. Chet tilini o'rganish jarayonida bir

soʻz boyligini tekshirsa, ikkinchi tomondan xotirasini mustahkamlab bordi. Yetuk shaxmatchi boʻlishda mana shu uch fanning ahamiyati kattaligini Qosimjonovdan boshqa sportchilar ham mamnuniyat bilan taʼkidlashgan.

Topshiriq :

1-Matnda notanish soʻzlar lugʻatini tuzing

2-Lugʻat yordamida matnни rus tiliga tarjima qiling

KELAJAK YOSHLAR QOʻLIDA

Yoshlar – kelajak poydevori

Yoshlarning hartomonlama yetuk, yuksak maʼnaviyat egasi boʻlib kamol topishida, ularning isteʼdod va salohiyatini roʻyobga chiqarishda “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining ham hissasi katta boʻlmoqda.

Orol boʻyi yoshlarini Vatan ravnaqiga hissa qoʻshishdek buyuk maqsadlar yoʻlida jipslashtirish, ularni el-yurtiga fidoiyluk ruhida biyalash, yoshlar qalbi va ongida oʻzlikni anglash, milliy va umum insoniy gʻoyalarga sadoqat tuygʻularini mustahkamlash borasida olib borilayotgan ishlar xususida “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati Qoraqalpogʻiston Respublikasi kengashi raisi Zafar Xonniyozov quyidagilarni soʻzlab berdi:

– Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan qabul qilingan “Barkamol avlod yili” Davlat dasturi joriy yilda amalga oshirishimiz lozim boʻlgan ishlar koʻlamini yanada kengaytirdi, – deydi Z. Xonniyozov. – Faoliyatimizning asosiy yoʻnalishlaridan biri yoshlar oʻrtasida sogʻlom turmush tarzini qaror toptirishga, ularda Vatanga muhabbat, jasorat va fidoiyluk fazilatlarini qaror toptirishga qaratilgan.

Ana shu maqsadda Prezidentimiz Islom Karimovning “Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch” asari mazmun-mohiyatini, unda bayon etilgan fikr-mulohazalarni chuqur oʻrganish, yoshlarni turli zararli oqimlar taʼsiridan asrash, yuksak maʼnaviyatli avlodni tarbiyalashga harakat qilmoqdarniz. Xususan, yoshlarimizning huquqiy bilimini oshirish, Konstitutsiya va qonunchiligimizga oid tushunchalarini boyitish, ularning fuqarolik huquqi va burchini toʻla anglab yetishi, jamiyat hayotida faol ishtirok etishiga koʻmaklashish maqsadida turli tadbirlar oʻtkazilayotir.

Qoraqalpogʻiston Respublikasi Adliya, Ichki ishlar va Xalq taʼlimi vazirliklari, “Mahalla” va “Nuroni” jamgʻarmalari, oʻrtamixsus kasb hunar taʼlimi boshqarmasi bilan hamkorlikda tegishli reja va dasturlar

ishlab chiqilib, ular asosida joylarda “Konstitutsiya – baxtimiz tayanchi”, “Mening fikrim”, “Huquq va burch” mavzularida davra suhbatlari, uchrashuvlar, viktorina va bilimdonlik bellashuvlari tashkil etilmoqda.

Oʻrta-maxsus bilim yurtlari oʻquvchilari oʻrtasida tashkil etilgan “Siz qonunni bilasizmi ? ” tanlovida 78 jamoa tarkibida 546 nafar yigit-qiz ishtirok etib, oʻz bilim va salohiyatini namoyish qildi. Tanlovning barcha bosqichlarida gʻolib boʻlgan Amudaryo tumanidagi akademik litseyning “Qalqon” jamoasi mamlakat bosqichiga yoʻllanmani qoʻlga kiritdi.

Qoraqalpogʻiston televideniyesida “Kamolot” bilan hamkorlikda yoshlarning aqliy qobiliyatini mustahkamlashga yoʻnaltirilgan “Bilim ring”, “Intellectual ring” singari teleoʻyinlar namoyish etilmoqda. Bu ham oʻz navbatida yoshlarning bilim va tafakkurini boyitishga xizmatqilayotir.

Maʼnaviy-maʼrifiy tarbiyani kuchaytirish, ijobiy anʼana va tashabbuslarni qoʻllab-quvvatlash, oʻsib kelayotgan yosh avlodni ajdodlarimizning bebaho maʼnaviy va madaniy merosini oʻrganish, asrab-avaylashga daʼvat etish, yoshlarning boʻsh vaqtini mazmunli oʻtishini taʼminlashga alohida eʼtibor qaratilmoqda.

Orolboʻyida har yili Navroʻz ayyomi arafasida “Milliy oʻyinlar festivali” oʻtkaziladi. Bunda yoshlar “Qasharmantoʻp”, “Langi”, “Besh tosh”, “Chullik”, “Doiraga tort”, “Koʻz bogʻlash”, “Oʻrtaga tushish”, “Jambil”, “Asiq”, “Xoʻroz urishtirish” singari milliy oʻyinlar boʻyicha oʻzaro kuch sinashadilar. Oʻtgan yili ushbu festivalda besh mingdan ortiq yoshlar ishtirok etgani festival koʻlami tobora kengayib borayotganidan dalolat beradi.

Oʻtgan yili mamlakatimiz boʻylab “Biz hech kimdan kam emasimiz va hech kimdan kam boʻlmaymiz” shiori ostida oʻtkazilgan yoshlar marafoni ishtirokchilari Orolboʻyi yigit-qizlari bilan uchrashib, hududdagi qadimgi yodgorliklar tarixi va ularning bugungi ahamiyati haqida suhbatlashdilar.

Mahallalarda yoshlarni umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, oʻsib kelayotgan yoshlar ongida vatanparvarlik hissini kuchaytirish, el-yurt shaʼnini ulugʻlash kabi oljanob fazilatlarini shakllantirish maqsadida yoshlar oʻrtasida “Qadriyatlar beshigisan, aziz mahallam” shoiri ostida oʻtkazilayotgan “Mahallam tarixini oʻrganaman” koʻrik-tanlovi ham samarali natija bermoqda.

Har bir hududning, mahallaning oʻziga xos turmush tarzi, qadriyatlari, urf-odatlarini yoshlarga oʻrgatishga xizmat qiladigan bu tadbirda Amudaryo tumanidagi “Qipchoq” mahallasi, Kegeyli tumanidagi 1-mahalla, Taxiatoʻsh shahridagi “Jayhun” mahallasi yoshlari gʻolib boʻldi.

Yoshlarning manfaatlarini himoyalash, kam ta'minlangan oilalarf arzandlarini, bolalikdan nogiron o'smirlarni otaliqqa olish, ularga g'arnxo'rlik ko'rsatish, hunar o'rgatish va ish bilan a'minlashga katta e'tibor qaratilmoqda. O'tgan yili shahar va tumanlarda tashkil etilgan mehnat yarmarkalarida sakkiz mingga yaqin yosh ish bilan ta'minlandi. Shuningdek, yil davomida "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining bevosita ko'magida 137 nafar yigit-qiz ishga joylashtirildi. Ehtiyojmand oilalarning farzandlari va jismoniy imkoniyati cheklangan bir yarim ming nafardan ziyod yoshlarga kasb o'rgatildi.

Tadbirkorlik va fermerlik harakatini rivojlantirish maqsadida yoshlar o'rtasida "Yosh tadbirkor – yurtga madadkor" shiori ostida o'tkazilgan tanlovning Qoraqalpog'iston Respublikasi bosqichida 28 nafar yigit-qiz ishtirok etib, ishbilarmonlik xususiyatlarini namoyish qildi. Ulardan eng munosib deb topilgan yeti nafari tanlovning mamlakat bosqichida ishtirok etdi.

"Barkamol avlod yili" Davlatd asturiga muvofiq, joriy yilda yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ularning jismonan baquvvat, ma'naviy yetuk inson bo'lib kamolga yetishlari borasidagi ishlar yanada kuchaytirilmoqda.

Bu yo'nalishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, "Sog'lom avlod uchun" xayriya jamg'armasi, Xotin-qizlar qo'mitasi bilan hamkorlikda turli tadbirlar o'tkazilayotir. Yoshlar o'rtasida OITS, giyohvandlik va chekishga qarshi kurash choralarini yanada kuchaytirish, ularni bu yomon illatlardan asrash maqsadida mutaxassislar ishtirokida turli uchrashuv va davra suhbatlari tashkil etmoqdamiz.

Yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarga qarshi kurashni yanada kuchaytirish maqsadida "Sog'lom avlod – jamiyatimiz tayanchi" oyligi e'lon qilindi. Oylik doirasida joylarda, ta'lim-tarbiya muassasalarida turli uchrashuvlar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazilmoqda. Jumladan, "Yoshlar kashandalik va ichkilikbozlikka qarshi!" mavzusida o'tkazilgan rasmlar ko'rgazmasi ishtirokchilarda katta taassurot qoldirdi.

Yoshlarni ilm-fanga qiziqtirish, ularning salohiyatini yanada kuchaytirish maqsadida yaqinda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi bilan hamkorlikda "Yosh olimlar kengashi" tuzildi. Ilm-fanning turli sohalarida ilmiy izlanishlar olib borayotgan yosh olimlardan tarkib topgan ushbu kengashning dastlabki majlisida yoshlarning ilmiy salohiyati va uning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni,

ularning ilmiy izlanishlarini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarishga ko'maklashish haqida so'z yuritildi.

Yoshlarning fan, texnika, axborot texnologiyalari, madaniyat, san'at, sport sohalarida yuqori natijalarni qo'lga kiritishiga puxta zamin yaratish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish yo'lida barcha imkoniyat va kuch-g'ayratimizni safarbar etaveramiz.

Topshiriq :

1-Matni o'qing, mazmuni gapirib bering

2-Matnda uchragan yordamchi so'zlarni aniqlang

Kelajak – yoshlar qo'lida

Yoshlarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlash, huquqiy bilim va madaniyatini yanada yuksaltirish, ongu shuurini turli zararli ta'sirlardan asrab-avaylash davlatimiz yuritayotgan siyosatning ustuvor yo'nalishlaridandir.

Toshkent shahar hokimligi, shahar xotin-qizlar qo'mitasi va bir qator tashkilotlar hamkorligida poytaxtimizdagi umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar kollejlari o'tkazilgan voyaga yetmagan yoshlar uchun ikki kunlik seminar-treninglarda bu jihatlar yana bir karra o'z ifodasini topdi. Mazkur tadbirlarda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan 2010 yil 29 sentabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi qonuni mazmun-mohiyati va ahamiyati yoshlarga interfaol usullarda tushuntirildi.

Toshkent mehmonxona xo'jaligi kasb-hunar kollejida bo'lib o'tgan ana shunday tadbirga Hamza tumanidagi voyaga yetmagan o'g'il-qizlar, umumiy o'rta ta'lim maktablari va kollej o'quvchilari, huquqshunoslar, psixologlar, ilg'or o'qituvchilar va ma'naviyat targ'ibotchilari taklif etildi.

Tadbirida mazkur qonun voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi, qarovsizligi, ular tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishiga imkon beradigan sabablarni aniqlash va bartaraf etishda muhim omil bo'layotgani ta'kidlandi. Turli vazirlik va idoralar, tashkilotlar hamkorligidagi ijtimoiy, huquqiy, tibbiy va boshqa zarur profilaktik chora-tadbirlar bu boradagi ishlar samaradorligini yanada oshirayotir. O'smirlarning bo'sh vaqtini to'g'ri va mazmunli tashkil etish yuzasidan qator ijtimoiy loyihalar, seminar-treninglar va sport musobaqalari tashkil etilmoqda.

– Kollejimizda yetti yuz nafardan ziyod o'quvchi turizm va mehmonxona ishi, buxgalteriya, oshpazlik kabi yo'nalishlar bo'yicha

ta'lim-tarbiya oladi, – deydi Toshkent mehmonxona xo'jaligi kasb-hunar kolleji direktorining o'rinbosari Gulnora Siddiqova. – O'quvchilar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, bo'sh vaqtini unumli tashkil etishda amaliyotchi-psixologlar, olimlar, ma'naviyat targ'ibotchilari, huquqshunos va shifokorlar ishtirokidagi davra suhbatlari va muloqotlar yaxshi samara bermoqda.

Poytaxtimizdagi 102-umumiy o'rta ta'lim maktabida bo'lib o'tgan "Kelajak – yoshlar qo'lida" mavzuidagi seminar-treningga mazkur tumanda istiqomat qilayotgan ikki yuz nafardan ortiq voyaga yetmagan yoshlar, ilg'or o'qituvchilar, mahallalar va xotin-qizlar qo'mitalari faollari, diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchilar taklif etildi.

Mazkur maktab direktori Maxfirat Asomovanning ta'kidlashicha, bu yerda yo'lga qo'yilgan maktab – mahalla – oila hamkorligi har bir yosh bilarining dunyoqarashi, intilish va qiziqishi, fe'l-atvoridan kelib chiqqan holda alohida yondashuv asosida ishlash, o'quvchilarni turli zararli ta'sirlardan himoyalash, huquqiy-mafkuraviy immunitetini mustahkamlash imkonini bermoqda.

Seminar-treninglar doirasida o'quvchilar ijodiyot markazlari to'garaklari faoliyatiga bag'ishlangan badiiy ko'rgazmalar, sport musobaqalari, konsertlar, muzeylar, teatrlar, ma'naviyat va ma'rifat masakanlari hamda Yoshlar ijod saroyiga sayohatlar tashkil etildi.

Topshiriq :

1-Matnda uchragan yangi va qiyin so'zlarini ko'chirib oling, ularni yodda tuting

2-Matndagi bog'lovchilarni aniqlang

Tabiat va inson

Jamiyatning rivojlanib borishi bilan insonlarning atrof-muhitga bo'lgan ta'siri o'sib boradi. Inson tabiat bilan, ya'ni o'simlik va hayvonot dunyosi hamda yer osti va yer usti boyliklari bilan o'zaro muloqotda bo'ladi.

Tabiat atamasi keng ma'noda fizik, material olamni bildiradi. Kundalik turmushda "tabiat" so'zi ostida odan ta'siri ostida ko'p bo'lmagan atrof-muhit va undagi havot (yovvovi tabiat) nazarda tutiladi. Birinchi holda tabiatni umuman fan, ikkinchi holda esa tabiatshunoslik

o'rganadi. Bunda tabiat subatomdan galaktik miqyoslarga bo'lib ko'riladi.

O'lkamizning tabiati o'zining rang-barangligi va turli-tumanligi bilan hayratda qoldiradi. Sahrolar va yam-yashil vodiylar, baland qorli tog'lar va yassitekisliklar, suvi mo'l daryolar va suv havzalari o'ziga xos betakror go'zallikni yaratadi. Respublikamiz hududining ko'pchilik qismi Turkiston tekisligida joylashgan. Tog'larning balandligi iqlinning quruqligiga sabab bo'ladi, asta-sekinlik bilan Qizilqum va Qoraqum sahrolari vujudga kelgan. Tog'lar va qir-adirlar respublika hududining 1.5 qismini tashkil etadi. Ularning eng baland nuqtasi — 4643 metr. Respublikamiz hududlari chegaralariga G'arbiy Tyan-Shan va Pomir-Oloy tog' tizmalarining yon bag'irlari ham kiradi. Tog'lar oralig'ida vodiylar yastanib yotadi: Qashqadaryo, Surxondaryo, Zarafshon, Samarqand vodiylari.

O'zbekiston uchun yuqori seysmiklik darajasi xosdir, lekin olimlarning aytishlaricha, kuchli zilzilalar kamdan-kam bo'lib, amalda taxminan asrda bir marta kuzatiladi.

Ekologik muammolar kengayib ularni hal etish dolzarb vazifa bo'lib qolgan hozirgi davrda bu muammolarni hal qilishda insoniyat uchun asosan ekologik ong va ekologik madaniyatning o'рни beqiyosdir.

Tabiat va inson o'rtasidagi munosabat ma'lum bir qonunlar orqali boshqariladi, ularga rioya qilmaslik ertami kechmi albatta ekologik halokatga olib keladi. Bu muammo o'zining insoniyatga keltirayotgan va keltirishi mumkin bo'lgan fojiali oqibatlari jihatidan yadro urushi halokatidan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Albatta, ilmiy-texnikaviy rivojlanish natijasida, turli soha ilm va texnologiyalarining taraqqiyoti, yangi energiya manbalari va kimyoviy moddalarning paydo bo'lishi, tabiiy resurslardan yovuzlarcha foydalanish natijasida havo, suv ifloslanadi, insoniyatni boquvchi yer yaroqsiz holga kelib, oqibatda uni yashash muhitidan mahrum etadi..

Hozirgi davrda insoniyat, u qanday xavf qarshisida kelib qolganligini tushunib yetdi, atrof-muhitga inson faoliyati tufayli yetkazilayotgan zarar qanday natijalarga olib kelganligini yaqqol his etdi.

Inson faoliyatining natijasida atrof muhitga ancha sezilarli o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bular asosan hozirgi kunda mavjud bo'lgan ekologik xavfzlik klassifikasiyasida bo'lgan: umumsayyoraviy, mintaqaviy, milliy,

lokal ekologik xavfsizliklar mamlakatimiz hududini ham chetlab o'tmadi.

- Bu xavflardan;
- ozon qatlami muammolari, ya'ni yemirilishi;
- iqlimning o'zgarishi;
- cho'llanish;
- toza ichimlik suvi tanqisligi,
- Orol dengizi muammosi;
- hayvonot va o'simlik dunyosi turlarining qisqarib borishi;
- o'simlik dunyosining noqonuniy kesilib borishi;
- yer degradasiyasi;
- suv resurslari tanqisligi;
- atmosfera ifloslanishi shular jumlasidandir.

Ekologik fojialarni bu darajadagi jadallashib borishida ekologik ong va ekologik madaniyat alohida o'rin tutadi.

Ekologik ong va ekologik madaniyatning asosiy vazifasi xalqimiz ekologik madaniyatini oshirish orqali huquqiy fuqarolik jamiyati tamoyillari asosida tabiatdan foydalanishni yo'lga qo'yish, tabiatni muhofaza qilish sohasida Davlat nazorati bilan bir qatorda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, xalqimiz ongi va madaniyatida ona Vatanimiz tabiatiga bo'lgan mehr-muhabbatini oshirish, uni asrab-avaylash va kelgusi avlod uchun zarur hayotiy sharoitlar qoldirishimiz kerakligini ko'rsatishdir.

Davlatimiz bozor iqtisodiyotiga o'tish davrini kechirayotgan hozirgi kunda ko'p sarmoya talab qiladigan ekologik tadbirlarni o'tkazish qiyindir.

Lekin xalqimiz eng avvalo yosh avlodni ona Vatanga muhabbat, xalqiga sodiqlik, ongida millatimiz va davlatimiz rivojiga xavf solib turgan xodisalariga, shu jumladan, ekologik xavfga ham, faqat ularni bilishi va sodiqligi, tadbirkorligi va mas'uliyatlilik bilan javob bera olishi hamda xavfni bartaraf etish mumkinligini singdira olishimiz, shu jumladan, ekologik ong va madaniyatni yo'lga qo'yish orqali kelajakda sodir bo'lishi mumkin bo'ladigan ko'p ofatlarni oldini olish mumkin bo'ladi.

Inson tabiatning bir bo'lagi bo'lgan holda u bilan bo'lgan munosabat orqali, ekologik madaniyat shakllana borishi tufayli tabiatni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni tartibga solishda uni boshqarish uchun tabiat qonunlarini kashf qilib kelgan. Ammo inson o'zining tabiatga

ta'siri orqali undagi muvozanatni buzdi va tabiat hodisalarining davriy muvozanatini ishdan chiqardi.

Xalqimizda bir maqol bor: "Buloq suvi qurimaguncha inson uning qadriga" yetmaydi. Darhaqiqat, necha asrlar davomida inson o'zining taraqqiyoti jarayoni bilan birga ekologiya inqirozi jarayonini tezlashtirdi.

Mulohaza qilib aytadigan bo'lsak, ekologik muammolar aksariyat hollarda insoniyat ta'siri ostida vujudga kelar ekan.

O'zbekistonda hozirgi kunda azaldan yig'ilib kelgan maishiy va ishlab chiqarish chiqindilari 1 mlrd. 400 mln. tonnadan oshib ketdi.

Ijtimoiy ongning o'zgarishi, qadriyatlarga nisbatan munosabatlarning ekologik yo'nalishdagi ma'naviy madaniyatning rivojlanishi, sayyoramiz hayotiga yangicha qarashning shakllanishi uzoq yillar davomida va qiyin kechadigan jarayon bo'lib, bu o'rinda ekologik madaniyat alohida ahamiyat kasb etadi.

Ekologik madaniyatni shakllantirishda, ekologik ong va dunyoqarashni shakllantirish va rivojlantirishda bir qator yutuqlarga erishilayotgan bir vaqtda ushbu sohani singdirishda muhim o'rin tutadigan maktab tarbiyasiga, o'rta va oliy ta'lim muassasalariga e'tibor qaratishimiz lozim.

Ekologik bilimlar tashviqoti, aholini ekologik tarbiyalash va aholini o'qitish boyicha ishlar avj oldirilganligiga qaramay, Respublikamiz oliy va o'rta maxsus bilim yurtlarida atrof muhit muhofazasi ya'ni ekologiya sohasida boshqa sohalar kabi Davlat noziri kabi mutaxassislarni tayyorlash hozirgi kunga qadar y o'lga qo'yilmagan. Ushbu soha uchun Davlat noziri kabi mutaxassislarni tayyorlash hozirgi kun talabidir.

Bundan tashqari insoniyat tarbiyasi uchun uning mahallasi ham alohida o'rin egallaydi. Mahallalar ham ushbu ishlarga jonbozlik ko'rsatishi lozim deb o'ylayman.

Har kuni 1ta tur o'simlik yoki 1ta hayvon turi yer yuzidan yo'qolib boryapti.

1983 yili hayvonlarning 63-turi va 1984 yil o'simliklarning 163 turi Qizil kitobning birinchi nashriga kiritildi. Mana oradan vaqt o'tib tabiat muhofazasiga munosabat o'zgardi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 9 martdagi 190-sonli "Qizil kitobni yuritish

to'g'risida" gi Qarori qabul qilindi.

1998 yil O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ning 1-jildi (o'simliklar qismi) nashr qilindi va bunda o'simliklarning 301 turi (163tadan 301taga oshgan) kiritilganligi qayd qilingan bo'lsa, 2006 yildagi yangi tirajida esa Qizil kitobga kiritilgan o'simliklar turi 305-turni tashkil etadi. Bu k o'rsatkich oshib bormoqda.

Inson o'z hayoti va faoliyati, shuningdek, barcha tirik mavjudot dunyosi - biosfera uchun k o'z k o'rib, quloq eshitmagan miqyos va buzuvchanlik qudratiga ega b o'lgan, katta va kutilmagan salbiy o'zgarishlar, atrof-muhitga uzoqni o'ylamay qilingan munosabat, xatolar va yangi ishlarning hosilasi sifatida hozirgi yer yuzidagi vaziyat yuzaga keldi.

O'zbek istonda har bir kishi 1 sutkada 2-3 litr chuchuk suv ichadi.

Gidrosferani faqatgina 2,5 foizini chuchuk suv tashkil qiladi. Qishloq x o'jaligining ayrim sohalaridagi suv sarfini qiyosiy hisoblab k o'rsak;

1 tonna bug'doy yetishtirish uchun 1,5 tonna, 1 tonna sholi uchun - 4-5 ming tonna, 1 tonna paxta yetishtirish uchun 10 ming tonna suv sarflanadi.

O'simlik dunyosi yer yuzidagi hayot muvozanatini ta'minlash va ijtimoiy hamda iqtisodiy sharoitlarni yaxshilash uchun hayotiy zarur bo'lgan ekzotizmlar, turlar, genetik tiplar va ekologik jarayonlarning rang-barangligini saqlaydi, insonning hayotiy ehtiyojlari talablariga javob beradigan genetik xilma-xillik va turlarni himoya qiladi.

Ekologik madaniyatni rivojlantirishda boshqaruvning o'rne faqatgina Davlat xizmati bilangina emas, balki jamoatchilik rolini oshirish bugungi "Demokratik, huquqiy davlat qurish" yo'lidagi ekologik bilimlarni targ'ibot qilish, aholining ekologik saviyasini ko'tarish borasida bir muncha ishlar amalga oshirilmoqda. Lekin shunga qaramay bu sohada bir qator kamchiliklar ham mavjud.

Insoniyat qadimgi zamonlardan oq tabiatning bir qismi ekanligini anglab, u o' zi ning harakatlari bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlarni ongli ravishda boshqariladiganligini his qilib kelgan. Lekin insoniyat tabiatdan foydalanib uni qayta tiklanishiga e'tibor qaratilishini kech bo'lsa-da tushunib y etdi. Insonlar madaniyati shakllanib rivojlana borar ekan, tabiat in'omlari b o'lmish o'simlik va hayvonot dunyosi turlarini bir qanchasini madaniylashtirib, o'zlari uchun foydalanishni amalga oshirish jarayoni

hozirda ham davom etayotgan jarayondir.

Atrof-muhit sofligi, uning rang-barangligi-yu xilma-xilligini saqlash, ekologik madaniyatni rivojlantirish va uni boshqarish asosan tabiatni muhofaza qilish Davlat q o'mitasi va uning joylardagi tashkilotlari faoliyatiga bog'liq b o'libgina qolmay, joylardagi davlat hokimiyati organlarining ham burchidir.

Joylardagi davlat hokimiyati organlarining atrof muhit muhofazasiga oid Qonun va hukumatimiz Qarorlarini bajarishda ma'lum bir sustkashliklarga yo'l q o'yilmoqda deb uzil-kesil ayta olaman. Sabab esa, qishloq x o'jaligida foydalanish uchun qaysidir yillarda ekilgan daraxtlarni parvarishlash, ularning qurigan turlari o'rniga qayta k o'chat ekish y o'li bilan tiklash ishlari qoniqarli darajada emas. Chunki Ixota daraxtzorlari sifatida ekilgan daraxtlar o' m i beqiyos ekanligi, mahsulot hosildorligini oshirish maqsadida tashkil etilgan ixotazorlarni zarurligini tasavvur ham eta olmagan holda ayrim fermerlar tomonidan ixota daraxtzorlarini kesish hollari davom etmoqda.

Atrof-muhitni muhofaza qilishda va tabiat resurslaridan oqilona foydalanishda hozirgi kunda qallanilayotgan iqtisodiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish, tabiatdan not o' g'ri foydalanganlarga tabiat solig'ini qo'llash hamda Jamiyatning ekologik madaniyatini shakllantirishni rivojlantirishda ekologik ta'lim-tarbiyaning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish va uni boshqarish ahamiyati rolini oshirishda huquqiy demokratik tarzda huquqiy normalarni takomillashgan holda joriy qilish kerak b o'ladi.

Bu bilan respublikamizda ishlab chiqarishni va insonning tabiatga bo'lgan munosabatini tartibga solish imkoniyati tug'iladi.

Tabiatimizni asrash, uni muhofaza qilish, tabiatdan oqilona foydalanish va jamiyatda ekologik madaniyat va ekologik ongni rivojlantirish nafaqat tabiatni muhofaza qilish organlarining ishi, balki shu zaminda yashayotgan har bir insonning ona Vatanimizga, uning tabiatiga bo'lgan farandlik burchidir.

Har yili suv resurslarining joriy ehtiyojga nisbatan 80 foizi iste'mol qilinadigan O'zbekistonda suv resurslarini saqlash va undan oqilona foydalanish ekologiyaning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Respublikada suv munosabatlarini tartibga soluvchi asosiy hujjat 1993 yilning may oyida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi Qonuni bo'lib, unda suvdan foydalanish va uni qo'riqlash sohasida davlat boshqaruvi va nazorati, Vazirlar Mahkamasi, mintaqaviy va mahalliy boshqaruv organlarining huquq va vakolatlari, suv munosabatlarini tartibga solish sohasining maxsus vakolat berilgan davlat organlarining vazifalari hamda suvdan foydalanuvchilarning huquq va majburiyatlari belgilab berilgan.

Mineral resurslar ilmiy-tadqiqot institutining olimlari ko'pgina sanoat sohalari uchun juda zarur bo'lgan magniyli xom ashyoni qayta ishlash usulini kashf etishga muvaffaq bo'ldilar.

Magniy - kumushsimon oq rangli va o'ta engil metallidir. Hatto barchaga ma'lum alyuminiy metali ham barcha tirik jonzorlar organizmining tarkibida mavjud bo'lgan ushbu o'ziga xos moddadan bir yarim baravar og'irroq. Shu bois, tabiiyki, magniy birikmalari tibbiyotda keng qo'llaniladi. Ayni paytda, ularga metallurgiya, mashinasozlik, elektrotexnika, qog'oz, sement ishlab chiqarish va boshqa sanoat sohalarida ham talab juda katta.

Olimlar tomonidan ishlab chiqilgan texnologiya bo'yicha o'ta yuqori sifatli magniy va metali tuzlarini hosil qilishga erishilmoqda. Bu jarayonda kam miqdordagi kimyoviy reagentlar ishlatilsada, katta hajmdagi mahsulot ishlab chiqarish ta'minlanmoqda. Taklif etilgan usul o'zining universalligi bilan ajralib turadi, chunki undan O'zbekiston hududida ochilgan barcha konlarda magniyli xom ashyoni qayta ishlash uchun foydalanish mumkin.

O'zbekiston qorako'lchilik va cho'llar ekologiyasi ITI xodimlari tomonidan biologik yo'nalishdagi boshqa institutlar olimlari bilan hamkorlikdagi ko'p yillik ilmiy izlanishlar natijasida mamlakatimiz qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning yangi sohasi - aridli ozuqa ishlab chiqarish usuli yaratildi. Fan va ishlab chiqarishning mazkur yo'nalishi agronomiya, o'simliklar ekologiyasi, fitotsenologiya, botanik resursshunoslik va o'simliklar seleksiyasining tutashuvi natijasida hosil bo'ldi. Masalaga kompleks yondashilgani tufayli yaylovlarning ustki qismini tubdan yaxshilab, unumdorligini bir yarim-ikki baravar oshirishga imkon beradigan usullarni ishlab chiqish va taklif etishga erishildi.

Olimlarning tadqiqotlari Markaziy Osiyo sharoitlarida cho'llanish jarayonini ko'p hollarda orqaga qaytarish hamda meliorativ ishlarini olib borganda tanazzulga uchragan ekologik tizimlarni qayta unumdor yerlarga aylantirish mumkin, degan xulosa chiqarishga zamin yaratdi.

Topshiriq :

1-Matnda uchragan yangi va qiyin so'zlarni ko'chirib oling, ularni yodda tuting

2-Matn mazmunini yorituvchi savollar tuzing

3-Matnda uchragan bog'lovchilarni topib, daftaringizga yozing

4-Berilgan bog'lovchilarni turini ayting

MUNDARIJA

TIL DO'STLIK KALITI.....	4
BI BIXONIM MADRASASI VA MAQBARASI	40
SHOHI ZINDA... HAYRAT MASKANI.....	41
QUSAM IBN ABBOS SHOHIZINDA (TIRIK SHOH) MUHAMMAD	41
IMOM AL-BUXORIY YODGORLIK MAJMUASI	42
AMIR TEMUR MUZEYI	43
O' ZBEKISTON MUZEYLARI YAQIDA	43
ABDULLA QODIRIY	46
SAID AHMAD	48
O' LMAS UMARBEOV	49
TOXIR MALIK	51
NODIRA.....	51
ERKIN VOHIDOV	52
ABDULLA ORIPOV	53
MUSO TOSHMUHAMMAD O'G'LI OYBEK.....	54
G'AFUR G'ULOM	55
MUHAMMAD YUSUF	57
O' ZBEK SAN'ATI USTALARI.....	57
Yunus Rajabiy.....	70
SALOMATLIGING O'Z QO'LINGDA.	77
KELAJAK YOSHLAR QO'LIDA	84

O'QISH KITOBI

**(Bakalavriatda rus tilida tahsil oladigan
barcha yo'nalishdagi talabalar uchun)**

Muharrir: Abdullaeva S.X.
Sahifalovchi: Umarova K.X.

Bosishga ruxsat etildi: 01.07.2014. Bichimi 60x84/16
Times garniturasida. Ofis qog'ozi. Printerda chop etildi
Shartli.b.t.:4,0 . Adadi: 50. Zakaz: № 3.

“IXTIYOR RISO PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi
Korxonaning manzili Chilonzor tumani, 22-mavze, 18-uy

